

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**«Audit» kafedrası**

**ERGASHEV BAXTIYOR  
XAMRAYEV ZAFAR MAMASAI DOVICH**

**TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY TAHLIL**

**O'QUV QO'LLANMA**

Bilim sohasi:	300000 – «Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq»
Ta'lim sohasi:	340000 – «Biznes va boshqaruv»
Ta'lim yo'nalishi:	5340900 – «Buxgalteriya hisobi va audit»

**Toshkent – 2011**

**Tuzuvchilar: Ergashev B., Xamrayev Z.M.** Tijorat banklarida iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011, 140 bet.

**Taqrizchilar:** **Tulaxodjaeva M.M.** – O'zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi raisi, professor  
**Xodjayeva M.X.** - TDIU, «Audit» kafedrasida dotsenti  
**Tulaev M.S.** - TDIU, «Audit» kafedrasida katta o'qituvchisi

**«MA'QULLANGAN»**  
«Buxgalteriya hisobi va audit» fakulteti  
Ilmiy Kengashida ma'qullangan

**«TAVSIYA ETILGAN»**  
«Audit» kafedrasining  
2011 yil «20» apreldagi  
majlisida muhokama  
qilingan va tavsiya etilgan  
(Kafedra majlisining 33-sonli bayonnomasi)

B. Ergashev, Z.M. Xamrayev. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. - T.: 2011.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini mustahkamlash va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida bank-moliya tizimining asosi bo'lgan tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning ahamiyati beqiyosdir. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishga bag'ishlangan mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashdan asosiy maqsad ushbu sohadagi mavjud bilimlarni yanada boyitishdan iboratdir.

O'quv qo'llanma Davlat ta'lim standartining talablariga muvofiq tayyorlangan bo'lib, unda tijorat banklarida iqtisodiy tahlil o'tkazish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar o'zaro bog'langan holda bayon qilingan.

O'quv qo'llanma 5340900 - "Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, o'quv qo'llanmadan 5340700 - "Bank ishi" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Bank ishi" va "Bank auditi" fanlarini o'qitishda hamda bank xodimlari tomonidan foydalanish mumkin.

**Mas'ul muharrir:**

**O.T. Eshboyev,**

TDIU "Buxgalteriya hisobi va audit" fakulteti dekani,  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Ekspertlar:**

**Sh.I. Ilxomov,**

TDIU "Audit" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari  
nomzodi

**Taqrizchilar:**

**M.M. Tulaxodjayeva,**

O'zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar  
milliy assotsiatsiyasi kengashi raisi, iqtisod fanlari  
doktori, professor

**B.A. Dakiboyev,**

OATB "Qishloq qurilish bank" Iqtisodiy tahlil  
boshqarmasi boshlig'i

**R.X. Boynazarov,**

OATB "Qishloq qurilish bank" Kichik biznes  
sub'ektlarini kreditlash boshqarmasi boshlig'i

**M.X. Xodjayeva,**

TDIU "Audit" kafedrasida mudiri v.v.b., iqtisod fanlari  
nomzodi, dotsent

**M.S. Tulayev,**

TDIU "Audit" kafedrasida katta o'qituvchisi

Б. Эргашев, З.М. Хамраев. Экономический анализ в коммерческих банках. Учебное пособие. – Т.: 2011.

В условиях укрепления социально-ориентированной рыночной экономики и дальнейшей либерализации экономики страны значение экономического анализа в коммерческих банках, являющихся основой банковско-финансовой системы, очень велико. Основной целью настоящего учебного пособия, посвященного проведению экономического анализа в коммерческих банках, является дальнейшее обогащение существующих знаний в этой сфере.

Учебное пособие подготовлено в соответствии требованиям Государственного образовательного стандарта, в нем взаимосвязано изложены теоретические и практические знания по проведению экономического анализа в коммерческих банках.

Учебное пособие рассчитано для студентов образовательного направления 5340900– «Бухгалтерский учет и аудит». А также учебное пособие может быть использовано при обучении дисциплин «Банковское дело» и «Банковский аудит» в учебном плане образовательного направления 5340700– «Банковское дело» и сотрудниками банков.

**Ответственный редактор:**

**У.Т. Эшбоев,**

Декан факультета «Бухгалтерский учет и аудит» ТГЭУ, кандидат экономических наук, доцент

**Эксперты:**

**Ш.И. Илхомов,**

Доцент кафедры «Аудит» ТГЭУ, кандидат экономических наук

**Рецензисты:**

**М.М. Тулаходжаева,**

Председатель Совета Национальной ассоциации бухгалтеров и аудиторов Республики Узбекистан, доктор экономических наук, профессор

**Б.А. Дакибоев,**

Начальник управления Экономического анализа ОАКБ «Қишлоқ қурилиш банк»

**Р.Х. Бойназаров,**

Начальник управления Кредитования субъектов малого бизнеса ОАКБ «Қишлоқ қурилиш банк»

**М.Х. Ходжаева,**

И.О. Заведующего кафедрой «Аудит» ТГЭУ, кандидат экономических наук, доцент

**М.С. Тулаев,**

Старший преподаватель кафедры «Аудит» ТГЭУ

B. Ergashev, Z.M. Khamraev. Economic analysis in commercial banks. Manual. – T.: 2011.

In condition of strengthening the social-oriented market economies and the further liberalization of the economy of the country the importance of economic analysis in commercial banks, being the basis of bank-financial system is very great. The main aim of the manual devoted undertaking the economic analysis in commercial banks, is further enrichment existing knowledges in this sphere.

The book has been prepared in correspondence to requirements of the State educational standard, where theoretical and practical knowledge of undertaking the economic analysis in commercial banks have been described interconnectedly.

The book is written for students of the educational direction 5340900 - "Accounting and audit". As well as the book can be used in teaching of discipline "Banking" and "Bank audit" in curriculums of the educational direction 5340700 - "Banking" for employees of the banks.

**Editor in chief:**

**U.T. Eshboev,**

Dean of the faculty "Accounting and audit" TSUE,  
candidate of the economic sciences, assistant professor

**Experts:**

**Sh.I. Ilhamov,**

Assistant professor of the chair of "Audit" TSUE,  
candidate of the economic sciences

**Recenzisty:**

**M.M. Tulakhodjaeva,**

Chairman to National association accountant and auditors  
of the Republic Uzbekistan, doctor of the economic  
sciences, professor

**B.A. Dakibaev,**

Chairman of the board of the Economic analysis at OJCB  
"Qishloq qurilish bank"

**R.H. Boynazarov,**

Chairman of Credit board at small business OJCB "Qishloq  
qurilish bank"

**M.Kh. Khodjaeva,**

The acting head of the chair of "Audit" TSUE, candidate of  
the economic sciences, assistant professor

**M.S. Tulaev,**

Senior teacher of the chair of "Audit" TSUE

## KIRISH

Hozirda mamlakatimizda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz I.Karimov 2010 yil 27 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida saylov jarayonlariga baho berish bilan bir qatorda davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalashda siyosiy partiyalar, parlament, sud-huquq tizimi, fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni va roli to'g'risida batafsil to'xtalib o'tdi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining quyidagi so'zlariga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: "Sizlarning obro'ingiz – bu Qonunchilik palatasi va Senatining obro'si, respublikamiz parlamentining obro'si, mohiyat-e'tiboriga ko'ra, mamlakatimizning obro'si ekanini hech qachon unutmangizni istardim"<sup>1</sup>.

Shuningdek, mamlakatni modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilab berdi. Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifalar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o'tilgan yo'l – oldingi davrdagi erishilgan Yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim printsiplial ahamiyat kasb etadi.

2008 yilda boshlangan va 2009 yilda jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarining oldini olish turli darajalardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishda o'ziga xos izchillikni, xatti-harakatlarning har tomonlama o'ylanganligi va asoslanganligini, tub islohotlarni amalga oshirishning bosqichma-bosqichligini, reja va maqsadlarga tomon harakatdagi sobitqadamlikni taqozo etadi. Ushbu jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda barqaror o'sish sur'atlarining saqlanib qolishi tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'limiz va unga muvofiq amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatimizning nechog'liq to'g'ri ekanligini yana bir bor tasdiqlamoqda.

Prezidentimiz I.Karimov shu yilning 29 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida mamlakatni rivojlantirish, yangilash, modernizatsiya qilishning to'g'ri tanlangan strategiyasi, qabul qilingan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish borasida o'tgan yilda kuch va imkoniyatlarning safarbar qilinishi tufayli moliyaviy-iqtisodiy inqirozning oqibatlari va tahdidlariga nafaqat bardosh berishga, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning barqaror

---

<sup>1</sup> Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar

sur'atlarini, xalq bardamligi va farovonligini oshirishni ta'minlashga muvaffaq bo'linganligini qayd etib o'tdi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, 2008 yilda AQSh ipoteka kreditlash tizimida boshlanib, ko'plab rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimini ishdan chiqargan, keyinchalik iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohaga sezilarli ta'sir ko'rsatib, katta talofatlar yetkazgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi vujudga kelishining dastlabki pallasidayoq O'zbekistonda inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirish boshlab yuborilgan edi. Prezidentimizning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari» nomli asarida mazkur dasturda belgilangan quyidagi kompleks chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan edi:

1) korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

2) joriy kon'yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish;

3) qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;

4) elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish;

5) jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.<sup>2</sup>

Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda mamlakatimiz bank tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishga berilayotgan katta e'tiborga qaramasdan tijorat banklarining amaliy faoliyatida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarga alohida to'xtalib o'tar ekan, Prezidentimiz I.Karimov "... avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish kerakligini ko'rsatadi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatli qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqlaydi."<sup>3</sup> – deya ta'kidlab o'tdi.

---

<sup>1</sup> Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar

<sup>2</sup> I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 yil, 31-34-betlar.

<sup>3</sup> I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston", 2009 yil, 48-bet.

Bu esa tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni kelgusida yanada rivojlantirib borishga qaratilgan va zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu o'rinda e'tiboringizga taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanma yuqorida ta'kidlab o'tilgan dolzarb masalalarni hisobga olgan holda nashrga tayyorlangan.

Ushbu o'quv qo'llanma 6 bobdan iborat bo'lib, unda mamlakatimizda amal qilayotgan bank tizimi va tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Har bir bobning yakunida o'rganilgan mavzuga doir tayanch iboralar va nazorat uchun savollar keltirilgan hamda mavzularning muhim va amaliy qismlari jadvallar, chizmalar, diagrammalar va rasmlar ko'rinishida tasvirlangan.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda mamlakatimiz bank tizimini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlardan, xorij va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlari mahsulidan hamda mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklarining amaliy tajribasidan samarali foydalanilgan. Bu esa mazkur o'quv qo'llanmadan foydalanuvchilarga tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarni amaliy tajribalarga bog'lagan holda o'rganish imkoniyatini beradi.

Ushbu o'quv qo'llanmani yaratishdan asosiy maqsad "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning va bank mutaxassislarining tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarni egallashlarida ko'maklashishdan iboratdir.



## **I Bob. TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY TAHLIL: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA AHAMIYATI**

### **1.1. O'zbekistonda bank tizimi va tijorat banklarining ahamiyati**

Banklar qadimgi muassasalardan bo'lib, dastlab tanga pullarni saqlab beruvchi xazinachi sifatida paydo bo'lgan. Oltin tangalarni, pullarni Yevropada qadimgi cherkov muassasalari saqlab bergan. Keyinchalik bunday saqlanib turgan bo'sh pul mablag'larini unga muhtoj bo'lganlarga foiz bilan (daromad olgan holda) qaytarib olinadigan, ya'ni ssuda operatsiyalari hamda turli mamlakatlar va shaharlarning tangalarini o'zaro ayirboshlash bo'yicha ehtiyoj tug'ilgani uchun pullarni ayirboshlash operatsiyalari amalga oshira boshlangan. Shu boisdan "Bank" so'zi italyancha "Banco" so'zidan olingan bo'lib, ya'ni ayirboshlovchining oldidagi stol ma'nosini bildiradi. Asta-sekinlik bilan iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi bilan banklar ko'rsatadigan xizmat turlari (pullarni saqlash, ayirboshlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish, ssuda berish va hokazolar) ko'payib, banklar, iqtisodiyotning muhim sub'ektlariga aylanib qoldi. Hozirgi paytda barcha rivojlangan mamlakatlarda ikki pog'onali bank tizimi qabul qilingan. O'zbekistonda ham jahonda qabul qilingan ikki pog'onali bank tizimi joriy qilingan bo'lib: birinchi pog'onali bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoblanadi; ikkinchi pog'onali banklarga esa barcha tijorat banklari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki davlat banki hisoblanib, o'z faoliyatini 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonun asosida yuritadi. U yuridik shaxs sifatida iqtisodiy jihatdan mustaqil (mablag'lari davlat byudjetidan ajratilib tashkil etilgan) bo'lsada, xarajatlarini o'z faoliyatidan olgan daromadlari hisobidan qoplaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasiga binoan Markaziy bank boshqaruvi raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari:

- mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshirish;
- milliy valyutani emissiya qilish;
- barcha tijorat banklari ustidan nazorat o'rnatish va hokazolar.

Tijorat banklari o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan yuritadilar. Bu qonunning 1-moddasiga ko'ra "Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirish".

*Bank yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini depozit va omonatlarga ma'lum foiz to'lovlari to'lash sharti bilan qabul qilib, ushbu mablag'larni jamiyatning faol qatlamlariga ma'lum foiz to'lovlari olish maqsadida yo'naltiradigan va bu ikki turdagi foiz to'lovlari o'rtasidagi farq hisobiga asosiy daromadi shakllanadigan muassasadir.*

Barcha sohalarda bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqichma-bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmoqda. Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Shuning uchun mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog'liqdir.


Banklarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'z mablag'lari bilangina emas, balki omonatchilar va kreditorlar, aksiyadorlar hamda mijozlar ularga ishonib topshirgan mablag'lar bilan, y'ani keng jamoatchilik bilan ish ko'radi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi eng zarur jamoatchilik muassasalari tizimlaridan biri ekan, har qanday bankning muvaffaqiyatsizligi butun jamiyat miqyosida pul taklifi qisqarishi, to'lov tizimi buzilishi hamda hukumat yirik va kutilmagan majburiyatlarining vujudga kelishi kabi salbiy makroiqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni ko'pgina muhim iqtisodiy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida bank tizimida ham chuqur o'zgarishlarni amalga oshirilishini va iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartibga solishning bir butun mexanizmini yaratilishini taqozo etmoqda. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan 2009 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotni barqaror, muvozanatli va izchil rivojlantirishning belgilangan prognozlariga erishildi hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibliigi ta'minlandi. Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan qat'iy pul-kredit siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratildi. Hukumat tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi kompleks chora-tadbirlar dasturi respublika bank-kredit tizimida inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaram emasligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi. Shuni ta'kidlash lozimki, 2009 yilda «Asia Alliance Bank» xususiy ochiq aksiyadorlik tijorat banki tashkil etilishi bilan, respublika bo'yicha jami tijorat banklari soni 30 taga yetdi. 2010 yilning boshidanoq, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2010 yil 9 yanvardagi qaroriga muvofiq «Hi-Tech Bank» xususiy yopiq aksiyadorlik tijorat bankiga bank operatsiyalarini amalga

o'shish huquqini beruvchi litsenziya berildi va O'zbekistondagi jami tijorat banklari soni 31 taga yetdi. «Hi-Tech Bank» xususiy yopiq aktsiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 5,25 mlrd. so'mdan ko'proq miqdorda shakllantirilib, uning 51 foizi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi. Ushbu yangi bankning ochilishi mamlakatimiz Prezidentining «Xususiy aktsiyadorlik tijorat banklari tuzishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi farmoni talablari izchil amalga oshirilayotganining yana bir tasdig'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmuada bayon qilinishicha bugungi kunda mamlakatimizda 30 ta bank faolyait ko'rsatib, shundan 3 tasi davlat banklari, 13 tasi aktsiyadorlik tijorat banklari, 9 tasi xususiy banklar, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi (1-rasm)<sup>1</sup>.



*1-rasm*

Iqtisodiy rivojlanishning o'sishi bank kreditining qo'llanilish ko'lamini kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi. Bank kreditining manbai faqat vaqtincha bo'sh mablag'lar va kapital bo'lib qolmasdan, kredit asosida

<sup>1</sup> Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua - Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010 yil, 59-bet.

chek-depozit emissiyasi ham amalga oshiriladi. Bank tomonidan beriladigan kredit miqdori mavjud jamg'armalardan ko'p bo'lsa, bank chek-depozit emissiyasini amalga oshirishi mumkin. Bank tizimining muomalaga kredit pullarini chiqarishi depozitlar yaratish yo'li bilan to'laqonli pullar o'rnini bosuvchi kredit vositalarini vujudga keltiradi. Respublika bank tizimini avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida nafaqat bankning ichki ehtiyojlari uchun foydalaniladigan axborot tizimi va lokal dasturlar majmui, balki iqtisodiyotning moliyaviy faoliyatini ta'minlovchi yaxlit milliy to'lov tizimi yaratildi.

## 1.2. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning o'rni va ahamiyati

Tijorat banklarining faoliyati korxonalar faoliyatidan tubdan farq qiladi. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklar turli mulk shakliga asoslangan bo'lib, ularning aksariyati aktsiyadorlik tijorat banklari ko'rinishida tashkil etilgan. Bular jumlasiga AT "O'zsanoatqurilishbank", AT "Agro bank", AT "Savdogarbank", AT "Aloqabank", AT "Ipak yo'li bank", AT "Mikrokreditbank", AT "Turon bank" kabi banklar kiradi. Bunday banklarning oliy organi aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi. Bank boshqaruvi va uning raisi bank faoliyatini amalga oshiradi va bevosita rahbarlik qiladi.

Tijorat banklari mulkining asosiga ko'ra 4 ta turga bo'linadi (1-jadval): 1) Davlat tijorat banklari; 2) Aktsiyadorlik tijorat banklari; 3) Xususiy tijorat banklari; 4) Qo'shma tijorat banklari.

*1-jadval*

### Tijorat banklarini mulkining asosiga ko'ra guruhlanishi:

Davlat tijorat banklari	Aktsiyadorlik tijorat banklari	Xususiy tijorat banklar	Qo'shma tijorat banklar
1. O'zR TIF Milliy banki 2. O'zR Xalq banki	1. AT "O'zsanoatqurilishbank" 2. AT "Agro bank" 3. AT "Qishloq qurilish bank" 4. AT "Aloqa bank" 5. AT "Turon bank" va boshqalar	1. XOAT "O'ktambank" 2. XYAT "Hi-Tech Bank" va boshqalar	1. XT "UT-bank" 2. XT "Savdogarbank" 3. XT "Trastbank" va boshqalar

Tijorat banklari hozirgi paytda korxonalar va aholi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda muhim vositachi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatimiz tijorat banklar faoliyatini tartibga solish va rivojlantirish bo'yicha juda ko'p me'yoriy hujjatlar qabul qildilar hamda ularni amalga oshirishni nazorat qilib bormoqdalar. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1998 yil 2 oktyabr), "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi ("Xalq so'zi"

gazetasi, 2000 yil 21 mart) farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining bir qancha qarorlarini misol qilib keltirish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti dinamik ravishda rivojlanib borayotgan hamda tijorat banklari oldiga o'z faoliyatlarini xalqaro darajaga yetkazish talabi qo'yilgan hozirgi vaqtda, tijorat banklari o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni boshqaruv usullarini takomillashtirish va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hisobiga amalga oshirishlari mumkin. Boshqaruv usullarini takomillashtirish va boshqaruv bo'yicha tegishli qarorlarni qabul qilishda iqtisodiy tahlilning o'rni beqiyosdir. Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy tahlilning nazariy masalalari nafaqat banklarda, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham hozirgi paytda yetarli darajada ishlab chiqilgan deb bo'lmaydi. Ayniqsa, bu pul oqimi kontseptsiyasi, pul mablag'larining vaqtincha qiymati, daromadlilik va xavf o'rtasidagi tafovut, jalb qilingan mablag'lar bo'yicha xarajatlar, kredit va investitsiya portfelini boshqarish va boshqalarga tegishlidir.

Banklarning iqtisodiy tahlili bo'yicha mamlakatimiz mutaxassislari tomonidan ushbu sohada tadqiqotlar olib borilmoqda, ammo ko'rib chiqilayotgan muammoga kompleks yondashish ko'pgina mualliflar tomonidan amalga oshirilmagan. Masalan, O'zbekistonda bu sohada ilmiy izlanishlar, jumladan O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus Farmoni asosida tashkil qilingan Bank sohasi istiqbollarini prognozlash Instituti olimlari tomonidan olib borilmoqda. Bu sohadagi asosiy muammolardan biri to'la qonli va batafsil bo'lgan ma'lumotlarning yetishmovchiligidir.

Tijorat banklari moliyaviy holatining uslubiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi sababli bankning moliyaviy holatini kompleks tahlil qilishning zaruriy uslubiyoti ham mavjud emas. Bularning barchasi bankning joriy moliyaviy holatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar va ularning tijorat bankini boshqarishdagi o'rni iqtisodiy tahlil nazariyasini rivojlantirish va uni bank faoliyatida qo'llash nuqtai nazaridan olganda dolzarbdir. Bunday tadqiqotlarning zarurligi O'zbekistonda bank tizimi rivojlanishining tarixiy sharoitlari va rivojlanishning yangi bosqichiga kirishi bilan belgilanadi. Tijorat banklarida boshqaruv sifatini har tomonlama chuqur tahlil qilish asosida oshirish nafaqat muhim, balki mamlakatda bank tizimi rivojlanishini sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarish usullaridan biridir.

O'zbekistonda tijorat banklar iqtisodiy tahlilining predmeti milliy bank tizimi shakllanishi bilan uzviy rivojlana boshladi. Ilmiy izlanishlar albatta iqtisodiy tahlil bo'yicha mavjud bo'lgan tajribalar asosida olib borilgan bo'lib, ularda yangi iqtisodiysharoitlar hisobga olingan. Tijorat banklar iqtisodiy tahlilining asosan 2 sub'ekti va 2 yo'nalishi mavjud: ichki va tashqi sub'ektlar hamda ichki va tashqi tahlil.

Tashqi tahlil sub'ektlariga tijorat banklar faoliyatini nazorat qiluvchi davlat idoralari (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi), reyting agentliklari, ilmiy tadqiqot institutlari, auditorlik va sug'urta tashkilotlari kiradi. Ushbu tashkilotlar o'z faoliyatining yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklar faoliyatining ba'zi bir yo'nalishlarini tahlil qilib boradilar.

Ichki tahlil sub'ektlariga esa tijorat bank tarkibiga kiruvchi bo'limlar yoki tegishli bank mutaxassislari kiradi. Ular o'zlariga yuklatilgan vazifa yoki xizmat majburiyatlari asosida bank faoliyatining iqtisodiy tahlilini olib boradilar. Tijorat banklari ushbu maqsadlarda tashqi maslahatchilarni ham jalb qilishlari mumkin. Ichki tahlilning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: biznes rejani asoslanishi va amalga oshirilishining tahlili, bank marketing tizimida tahlil, bank faoliyati samaradorligining kompleks tahlili, foydaning mutloq ko'rsatkichlari tahlili, rentabellikning nisbiy ko'rsatkichlari tahlili, bozor barharorligi, likvidlik va to'lov qobiliyatining tahlili, o'z va jalb qilingan mablag'lardan samarali foydalanish tahlili va hokazo. Ichki tahlilni o'tkazishda bankning ichki axborotlaridan foydalaniladi. Bular asosan buxgalteriya axborotlari bo'lib, ichki manbalardan olinadi va bankning mulkiy va moliyaviy holatini ta'riflaydi. Axborotlarning boshqa bir qismidan, ya'ni tashqi manbalardan olingan moliya bozorlari (valyuta, fond, birja, qarz kapitali va boshqalar) haqidagi ma'lumotlardan tahlilni amalga oshirishda har doim ham foydalanilmaydi.

Tashqi tahlil o'z ichiga ichki tahlil bo'limlarining katta qismini oladi, ammo uning vazifalari qatoriga bank biznes-rejasini asoslash va amalga oshirishning tahlili, marketing tizimidagi tahlil va bank faoliyati samaradorligining kompleks tahlili kirmaydi. Tashqi tahlilning vazifalariga investitsion sarmoyalar samaradorligi tahlili, emitentlar tahlili va reyting baholash uslublari kiradi.

### **1.3. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning predmeti va ob'ektlari**

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning predmeti bo'lib, tijorat banklar faoliyati natijasida sodir bo'ladigan iqtisodiy ko'rsatkichlarning holati va o'zgarishini o'rganish hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari turli faoliyat bilan shug'ullanadigan mijozlarga xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarni amalga oshirish uchun tijorat banklari zarur moddiy, moliyaviy va mehnat resurslariga ega bo'lishlari lozim. Moddiy resurslar deganda, asosiy vositalar, ya'ni turli xil asbob-uskunalar, hozirgi zamon kompYuter texnologiyalarini tushunish lozim. Tijorat banklarida bunday asosiy vositalardan qanday foydalanilayotganligi va ularning holati muntazam tahlil qilib boriladi.

Tijorat banklari turli hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini omonat va depozitlarga qabul qiladilar, mijozlarga kreditlar beradilar, chet el valyutalari bo'yicha va bir vaqtning o'zida o'z kassasi orqali naqd pullar bo'yicha muomalalarni amalga oshiradilar. Ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan zaxira hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'lishi mumkin. Bunday mablag'larning holati, harakati hamda ulardan qanday foydalanilayotganligi tahlil qilinishi lozim. Banklarda zarur mutaxassislik bilimlarini egallagan xodimlar ishlaydi. Bank xodimlarining soni, ularning o'zgarishi va xodimlar tomonidan mehnatni tashkil etishni vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turish alohida ahamiyatga egadir.

Tijorat banklari mijozlarga xizmat qilish jarayonida turli xarajatlar qiladilar, shu bilan birga mijozlarga bergan kreditlari bo'yicha foizli daromadlar va mijozlarga ko'rsatgan boshqa xizmatlari bo'yicha ham daromadlar oladilar. Ularning daromad va

xarajatlari ham muntazam ravishda tahlil qilib borilishi lozim. Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi tijorat banklari ham bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga kirishgan holda faoliyat yuritadilar. Tijorat banklari raqobatda yengilmaslik uchun o'zining moliyaviy natijalarini va likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam ravishda tahlil qilib borishi kerak. Tijorat banklarida amalga oshirilayotgan barcha muomalalar tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ular bir vaqtning o'zida buxgalteriya hisobvaraqlarida qayd etiladi va shundan so'ng buxgalteriya balansi hamda boshqa hisobotlarda aks ettiriladi. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda buxgalteriya hujjatlari, balans va boshqa hisobotlarda ko'rsatilgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Ular o'z faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini rejalashtiradilar va iqtisodiy tahlilni o'tkazishda bu ko'rsatkichlarning haqiqiy miqdori reja yoki belgilangan me'yorlar bilan taqqoslangan holda o'rganiladi hamda sodir bo'lgan o'zgarishlarning sababi aniqlanadi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, juda ko'p tijorat banklarining joylarda viloyat mintaqaviy filiallari, filiallari va mini-banklari mavjud. Ushbu banklarning Respublika boshqarmasida viloyat mintaqaviy filiallari bo'yicha taqqoslama tahlilini amalga oshirishga katta imkoniyat mavjud. O'z o'rnida viloyat mintaqaviy filiallarida esa tuman filiallarining ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslanib, qaysi filialning ko'rsatkichlari juda yuqori, qaysi filialning ko'rsatkichlari juda past ekanligini aniqlanib, ularning sabablari va omillarning ta'siri o'rganilib, muayyan filial ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni o'z vaqtida o'tkazgan holda bank faoliyati to'g'ri xulosalar asosida boshqarilsa, bunday tijorat banklari yuqori natijalarga erishishi aniq. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlar bo'lishi lozim. Ushbu ma'lumotlar turli axborot manbalaridan olinadi. Bunda qayerdan, qanday ma'lumotlar olinishi tahlilning mavzusi, maqsadi va vazifasiga bog'liq. Umuman tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish uchun me'yoriy (belgilangan) va strategik ma'lumotlardan tashhari buxgalteriya hisobi va hisoboti, statistik hisobot, aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomalari, auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha hujjatlar va shu kabi boshqa hujjatlar ma'lumotlari zarur bo'ladi.

#### **1.4. Tahlilning turlari, usullari va bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari**

Iqtisodiy adabiyotlarda tahlilning turlari uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha guruhlab berilgan. Tahlilni turlarga ajratganda uning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Lekin, ko'pgina adabiyotlarda tahlilni mazmuni bo'yicha, tahlil qilinayotgan davri bo'yicha, qayerda o'tkazilishi (makon) bo'yicha, tarmoqlar bo'yicha, hisob tizimi va boshqaruv ob'ektiga qarab turlarga bo'lishadi.

Tahlil mazmuniga ko'ra global, lokal va tematik tahlillarga bo'linadi.

**Global tahlil** – bunda tahlil qilinayotgan sub'ekt ko'rsatkichlari to'liq va batafsil tahlil qilinadi.

**Lokal tahlil** – bunda tahlil qilinayotgan sub’ektning alohida qismi, bo’limi tahlil qilinadi.

**Tematik tahlil** – bunda sub’ektning biror jarayonlari yoki alohida mavzular bo’yicha tahlil o’tkaziladi.

Tahlil ma’kon nuqtai nazaridan bankning har bir bo’limida alohida olib borilishi lozim. Tijorat bankining rahbariyati uning barcha xodimlariga iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bo’yicha vazifalarni, ya’ni qaysi xodim, qaysi vaqtda, qanday ko’rsatkichlarni tahlil qilishi va tahlil natijalarini rahbariyatga qanaqa tartibda taqdim qilishini belgilab berishlari lozim.

Tahlil kimlar tomonidan o’tkazilishi(sub’ektlari)ga ko’ra ichki va tashqi tahlillarga bo’linadi.

Ichki tahlilning xususiyatlari:

- uni tijorat bankining xodimlari o’tkazadi;
- faoliyat ko’rsatkichlari to’liq yoki qisman tahlil qilinishi mumkin;
- bunda ayrim ko’rsatkichlar sir saqlanishi mumkin va h.k.

Tashqi tahlilning xususiyatlari:

- uni ta’rischilar, soliq idoralari va boshqa tashqi foydalanuvchilar o’tkazadilar;
- faqat moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida o’tkaziladi;
- bunda asosan tijorat bankining moliyaviy holatiga baho beriladi va h.k.

Iqtisodiy tahlil bo’yicha yozilgan adabiyotlarda keltirilgan tahlil turlarini umumlashtirgan holda, iqtisodiy tahlilning quyidagi turlarini ajratib ko’rsatish mumkin: tezkor, joriy, istiqbolli, moliya-iqtisodiy, texnik-iqtisodiy, taqqoslama, funksional-qiymat, kompleks va omilli tahlillar.

**Tezkor tahlilda** ma’lumotlar voqea-hodisalar sodir bo’layotgan vaqtda (zamonda) tahlil qilinadi. Bu qisqa muddatli tahlil bo’lib, bunda bank faoliyatida yo’l qo’yilgan chetga chiqishlar tezkorlik bilan aniqlanib, ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari ko’riladi. Tijorat bankining mutaxassislari ba’zi muomalalarni amalga oshirish paytida darhol tahlil qilib ko’rishi va tegishli xulosalar chiqarishi lozim bo’ladi. Tezkor tahlil ayniqsa, pul mablag’larining harakati bilan bog’liq muomalalarni va qimmatli qog’ozlar bo’yicha muomalalarni amalga oshirishda juda muhimdir.

**Joriy tahlil** ma’lum bir muddatdan so’ng (oylik, choraklik, yillik va shu kabilari) o’tkaziladi. Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning amaliy faoliyatida asosan joriy tahlil o’tkazish tartibi to’la ishlab chiqilgan. Joriy tahlil xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining rasmiy qabul qilingan hisobotlaridagi ma’lumotlar asosida o’tkaziladi. Tijorat banklari ular tomonidan berilgan kreditlarning qaytarilishi, bank likvidligi, bankning faoliyat natijalari va shu kabi ko’rsatkichlarini joriy tahlil qilib boradilar.

**Istiqbolli tahlil** deganda, tijorat bankining kelgusi faoliyatini oldindan o’rganish, bo’ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Har bir tijorat banki kelgusi faoliyatining biznes rejasini tuzish uchun o’z faoliyatini nima bilan yakunlashi to’g’risida aniq tushuncha va ko’rsatkichlarga ega bo’lishi kerak. Bu esa istiqbolli tahlil orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili, deb ham aytish mumkin.

**Moliya-iqtisodiy tahlilning** mohiyati umumiy qiymat ko’rsatkichlar tizimini o’rganish va tijorat banklarining moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan



ifodalanadi. Moliya-iqtisodiy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri bu tahlilning asosiy axborot manbai bo'lgan tijorat banklari tomonidan tuziladigan hisobot shakllaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, moliya-iqtisodiy tahlilning predmeti tijorat banklar faoliyatining turli tomonlari, xizmatlar ko'rsatish jarayoni va iqtisodiy ko'rsatkichlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish hisoblanadi.

Moliya-iqtisodiy tahlilning sub'ekti – bu tijorat banklari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, soliq va statistika organlarining iqtisodiy bo'linmalari hisoblanadi.

Shu bilan birga tijorat banklari tahlilning ob'ekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilotlar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, soliq va statistika organlari tomonidan o'rganiladi.

O'rganiladigan masalalarga qarab moliya-iqtisodiy tahlil to'la yoki tanlama xarakterga ega bo'lishi mumkin. Moliya-iqtisodiy tahlilni o'tkazish muddatlari kunlik, haftalik, o'n kunlik, oylik, choraklik, yillik bo'ladi. Moliya-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlillardan iborat.

**Texnik-iqtisodiy tahlil** kompleks tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo'lgan bo'lib, u 3 yo'nalishda olib boriladi:

- bankning texnik darajasini tahlil qilish;
- bank faoliyatini tashkil qilish, mehnat jarayoni va boshqaruvni tahlil qilish;
- bank xizmatlari ko'rsatilishining texnik darajasini tahlil qilish.

Bankning texnik darajasini tahlil qilishda bankning xizmatlar ko'rsatish bazasini rivojlantirish darajasi, ilg'or texnologiyalarni amalda joriy qilish, bank faoliyatini kompleks avtomatlashtirish, mehnatni to'la mexanizatsiyalash hamda zamonaviylashtirish kabi masalalar o'rganiladi va hal qilinadi.

Bank faoliyatini tashkil qilish, mehnat jarayoni va boshqaruv masalalarini tahlil qilishda qo'llanilayotgan boshqaruv shakllarining ilg'orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi masalalar hal etiladi.

Bank xizmatlari ko'rsatilishining texnik darajasini tahlil qilishda mijozlarning talablarini hisobga olgan holda, yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish jarayoni o'rganiladi va ularni bank xizmatlari ko'rsatilishining respublikamizda hamda chet ellarda joriy qilingan eng yuqori namunalari bilan taqqoslanadi.

Bank xizmatlari ko'rsatilishining texnik darajasi ularni attestatsiya qilish orqali aniqlanadi. Texnik-iqtisodiy tahlil iqtisodchilar, texniklar, muhandislar va boshqa mutaxassislardan tuzilgan kompleks brigada orqali amalga oshiriladi.

**Taqqoslama tahlilda** o'xshash faoliyatga ega bo'lgan tijorat banklarining ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslab tahlil qilinadi, natijada qaysi birining ko'rsatkichlari yaxshi ekanligi va buning sabablari aniqlanadi. Masalan, AT "Agrobank"ning bir viloyatda joylashgan filiallari misolida foyda ko'rsatkichlarining shakllanishini o'zaro taqqoslab tahlil qilish mumkin.

**Funksional-qiymat tahlili.** Bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirish, xizmatlar ko'rsatishni loyihalashtirish va ularni amalga oshirish chog'ida har tomonlama hisobga olish zarur bo'ladi. Ushbu masalani ijobiy hal qilishda funksional-qiymat tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Funksional-qiymat tahlili ob'ektni texnologik jihatdan va

mehnat jarayonlarini tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga haratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Funktsional-qiyamat tahlilining asosiy maqsadi ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari chog'ida yangi turdagi bank xizmatlarini loyihalashtirish va ularni amalga oshirishda ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, xizmatlar ko'rsatish jarayonida loyiha bo'yicha ko'zda tutilgan xarajatlar darajasidan chetga chiqmaslik hamda boshqa turdagi xarajat va yo'qotishlarni bartaraf qilishdan iboratdir.

**Kompleks tahlilda** tijorat banki barcha faoliyatlarining (masalan, kredit berish faoliyati, qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati va shu kabilar) natijalari tahlil qilinib, uning faoliyatiga umumiy baho berish uchun kompleks ko'rsatkich aniqlanadi va umumiy baho beriladi.

**Omili tahlilda** tijorat banking ma'lum bir ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar chuqur o'rganiladi va ularning ta'sir natijalari aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichga salbiy ta'sir qilgan omillar ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralar ko'rib, uni yaxshilash yo'llari belgilanadi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlil hisob tizimi va boshqaruv ob'ektiga qarab boshqaruv va moliyaviy tahlillarga bo'linadi.

**Boshqaruv tahlili** quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- mehnatning tashkil etilishi tahlili;
- moddiy resurslardan foydalanish tahlili;
- xarajatlar va shu kabi boshqa ko'rsatkichlar tahlili.

**Moliyaviy tahlil** quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- pul mablag'larining harakatini tahlili;
- moliyaviy natijalar tahlili;
- moliyaviy resurslardan foydalanish tahlili;
- moliyaviy barharorlik va shu kabi boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning mazmuni va mohiyatiga qarab juda ko'p usullar qo'llaniladi. Tahlilda qo'llaniladigan usullarini shartli ravishda ikki guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) An'anaviy usullar;
- 2) Iqtisodiy matematik usullar.

**An'anaviy usullar** qadimgi usullar hisoblanib, ular tahlil vujudga kelgan vaqtdan boshlab qo'llanib kelinmoqda. Bular: solishtirish usuli, muvozanat usuli, farqli usul, qayta hisoblash usuli, zanjirli almashtirish usuli, indeks usuli, integral usul, nisbiy ko'rsatkichli usul va boshqa bir qancha statistik usullar.

**Iqtisodiy-matematik usullar** iqtisodiy tahlilning takomillashib borishi natijasida vujudga kelgan bo'lib, bunda turli dasturiy ta'minotlar va matematik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tahlil usullarini quyidagi jadvalda yanada aniqroq aks ettirish mumkin (2-jadval):

<b>Tahlilda qo'llaniladigan usullar</b>	
<b>An'anaviy usullar</b>	<b>Iqtisodiy-matematik usullar</b>
Solishtirish	Chiziqli
Farqlash	Korrelyatsiya va regressiya
Muvozanat	Dasturlash
Zanjirli almashtirish	O'yin nazariyasi
Qayta hisoblash	Yalpi xizmat nazariyasi
Integral	Matritsalash
Indeks	va boshqalar
Nisbiy ko'rsatkichli	
va boshqalar	

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining faoliyat ko'rsatkichlari muntazam ravishda tahlil qilib borilishi zarur. Shuning uchun ham tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mijozlarga kredit berish va ularning qaytarilishini muntazam ravishda o'rganib borish;
- bank aktivlarining joylanishi va samaradorligini tahlil qilish;
- mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni tahlil qilish;
- bankning biznes-rejasi va kelgusidagi faoliyat strategiyasini ishlab chiqish uchun tegishli tahlil axborotlari bilan ta'minlash;
- bank likvidligi (to'lov qobiliyati) va moliyaviy barharorligini tahlil qilib borish;
- bank daromadlarini ko'paytirish va rentabelligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va boshqalar.

**Tayanch iboralar:** bank tizimi, ikki pog'onali bank tizimi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat tijorat banklari, aktsiyadorlik tijorat banklari, xususiy tijorat banklar, qo'shma tijorat banklar, fanning predmeti, fanning ob'ekti, tahlil turlari, global, lokal va tematik tahlillar, ichki tahlil, tashqi tahlil, tezkor, joriy, istiqbolli, moliya-iqtisodiy, texnik-iqtisodiy, taqqoslama, funksional-qiyamat, kompleks va omilli tahlillar, boshqaruv tahlili, moliyaviy tahlil, iqtisodiy tahlil usullari, an'anaviy usullar, iqtisodiy-matematik usullar, iqtisodiy tahlilning vazifalari.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O'zbekiston Respublikasida bank tizimining shakllanishi.
2. Ikki pog'onali bank tizimi va uning mohiyati.

3. “Tijorat banklarida iqtisodiy tahlil” fanining predmeti va ob’ektlari.
4. Fanning o’ziga xos xususiyatlari.
5. Tahlilning turlari va usullari.
6. Tahlilning axborot manbalari.
7. Funktsional-qiymat tahlilining mohiyati.
8. Kompleks tahlilning mohiyati.
9. Omilli tahlilning mohiyati.
10. Boshqaruv tahlilining xususiyatlari.
11. Moliyaviy tahlilning xususiyatlari.
12. Iqtisodiy tahlilda qo’llaniladigan usullar.
13. Iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullar guruhi.
14. Iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullar guruhi.
15. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari.

## **II Bob. TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY TAHLILNING AXBOROT MANBAI**

### **2.1. Bank haqidagi axborotlarning asosiy manbalari**

Tijorat banklari o’z faoliyatlari davomida nafaqat bank tizimi faoliyatiga tegishli bo’lgan axborotlarni, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli bo’lgan axborotlarni yig’ib boradi. Bankning amaliy boshqaruv faoliyatida iqtisodiy tahlil barcha iqtisodiy vazifalarni hal etishda qo’llaniladigan muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy tahlilning axborot bazasi bo’lib bank boshqaruvida foydalanilayotgan barcha ma’lumotlar tizimi hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilning axborot bazasi ichki va tashqi manbalardan olingan ma’lumotlar hisobiga shakllanishi lozim. Shakllangan axborot bazasi asosida bank faoliyat olib borayotgan biznes muhitning tahlili amalga oshiriladi. Bank boshqaruvida mamlakatdagi siyosiy ahvol to’g’risidagi axborotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralaridan olinadigan axborotlarning asosiy manbaiga quyidagilar kiradi: qonunlar, farmonlar, qarorlar, farmoyishlar va boshqa me’yoriy hujjatlar.

Ushbu hujjatlar quyidagi yo’nalishlarda bo’lishi mumkin:

- mulkchilik munosabatlarining rivojlanishi to’g’risida;
- iqtisodiy siyosatning asosiy yo’nalishlarini o’zida aks ettiradigan.

Iqtisodiy tahlilni o’tkazishda foydalaniladigan axborotlarning yana bir guruhi Markaziy bank tomonidan ishlab chiqiladigan me’yoriy hujjatlar bo’lib, bu turkumga quyidagilar kiradi: tijorat banklari faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar, ular tomonidan hisobotlar tuzish va taqdim etish tartibi, iqtisodiy me’yorlar, shuningdek moliyaviy bozorning holati haqidagi ma’lumotlar, pul muomalalari, xususiy sarmoyalar va emission muomalalarga tegishli bo’lgan axborotlar kiradi.

Hozirgi vaqtda har qanday tijorat bank faoliyatining iqtisodiy tahlilini amalga oshirishda butun mamlakat bank tizimi hamda boshqa banklar faoliyati haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lish lozim. Bu erda, shuningdek tahlil qilinayotgan bank

tomonidan jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish ko'lami, aholiga tegishli bo'lgan hisob raqamlarning soni, to'langan foizlar, bankning investitsion siyosati hamda mijoz bank va korrespondent banklarning moliyaviy holati haqidagi axborotlar ham juda muhim ahamiyatga egadir.

Boshqa moliyaviy institutlar ham bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadilar, chunki sarmoyalar va valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan muomalalar bank daromadlarining eng muhim manbalaridan biridir. Bulardan bank aktsiyalarining baholanishi, davlat qimmatli qog'ozlar bozorining joriy ko'rsatkichlari, korxonalar tomonidan majburiy ravishda sotilgan valyuta tushumlarining hajmlari haqidagi axborotlar ham tahlil uchun muhimdir.

Tashqi iqtisodiy omillarning ta'siri ikki taraflama bo'lib, ularning ahamiyati g'oyat kattadir. Bunda bankka hukumatning tashqi iqtisodiy siyosati, tashqi savdoni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishi, uni tartibga solish usullari (litsenziyalar, soliqlar va bojlar), markazlashtirilgan valyuta fondlarining shakllanishi va ulardan foydalanish tartibi, markazlashtirilgan eksport va import bo'yicha muomalalarning hajmi, milliy valyutadagi qarzlarning miqdori, mamlakatdagi oltin-valyuta zaxirasining holati va ko'pgina boshqa masalalar to'g'risida axborotlarga ega bo'lish zarur.

Kredit muassasasining moliyaviy holati bevosita uning mijozlari va ayniqsa qarzdorlarining moliyaviy holatiga bog'liqdir. Shuning uchun ham bank mijozlarining kreditga layoqatliligini aniqlashda foydalaniladigan moliyaviy hisobotlar va boshqa hisobotlar ma'lumotlari iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda muhim bo'lgan axborot manbalari tarkibiga kiradi.

Axborot-tahliliy materiallar hozirgi vaqtda bank tizimidagi ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan nashr qilinayotgan turli to'plamlar va nashrlarda mavjuddir. Ushbu nashrlarning asosiy vazifasi tijorat banklarini moliyaviy xizmatlar bozoridagi vaziyat haqida tezkor xabardor qilish va ularning o'z moliyaviy holatini baholashlarida yordam ko'rsatishdir. Bunday axborot manbalariga "Bank axborotnomasi" gazetasi, "Bozor, pul va kredit" jurnali va boshqa iqtisodiy nashrlarni kiritish mumkin. Ularda O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy jihatlari hamda tijorat banklari faoliyatining eng muhim ko'rsatkichlari to'g'risidagi axborotlar e'lon qilib boriladi.

Shuningdek respublikamizning turli-tuman ommaviy davriy nashrlarida ham iqtisodiyotdagi yangiliklar, tijorat banklarining faoliyati to'g'risida yangiliklar hamda tahliliy materiallar e'lon qilib boriladi. hozirgi vaqtda tijorat banklarining reyting tizimi keng tarhalgan. Ularni o'tkazish uchun foydalaniladigan axborotlar hamma vaqt ham yetarli darajada bo'lmasada, lekin bank tizimidagi ishlarning umumiy holati haqida mulohaza yuritishga imkon beradi.

O'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlar materiallari, xalqaro anjumanlardagi ma'ruzalarning nashrlari, mamlakatlar va mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi, xususan bank faoliyati bo'yicha mutaxassislarining tavsiyalari tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni o'tkazish uchun axborot olishning nisbatan qulay manbaini yaratadi. Ichki axborot manbalari iqtisodiy tahlil axborot bazasining asosi hisoblanadi.

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlil o'tkazish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy axborotlarning asosiy qismi tijorat banklarining rasmiy hisobotlaridan olinadi.

Banklarning hisobot shakllari, shuningdek ular tomonidan Markaziy bankka taqdim etiladigan boshqa axborotlarning ro'yxati ellikdan ortiq nomdan iborat va ular o'z ichiga bankning moliyaviy statistika, pul-kredit statistikasi, to'lov balansi statistikasi, moliyaviy bozor statistikasi, byudjet statistikasi haqidagi ma'lumotlarni oladi. hisobotlarni tuzish va taqdim etish davriyligi oylik, choraklik, yarim yillik va yillik ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Tijorat bankinging buxgalteriya balansi uning moliyaviy holatini baholash uchun foydalaniladigan asosiy hujjatdir. Rivojlangan mamlakatlar banklari tomonidan balansni shakllantirishning asosiy tamoyillaridan biri aktiv turlarini ular likvidligining kamayish darajasi bo'yicha guruhlariga ajratishdan iboratdir. Mamlakatimiz bank amaliyotida balans moddalari xuddi shunday tamoyil asosida shakllantiriladi.

Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida bank tomonidan jalb qilinayotgan va joylashtirilayotgan mablag'lar turlari bo'yicha hamda amalga oshirilayotgan muomalalarning muddatliligi bo'yicha guruhlariga ajratiladi. Bir qator muomalalar bo'yicha balansda tartibga soluvchi kontr-aktiv va kontr-passiv hisobvaraqlar mavjud, lekin yakuniy hisoblar kontr-hisobvaraqlar bo'yicha summalarni chegirib tashlash bilan chiqariladi. Shu jumladan, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qiymati ularning eskirish summasini chegirib tashlash orqali hisoblanadi. Filiallar bilan hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy natija aktivlar va passivlar bo'yicha aylanmalardan vujudga keladi. Ammo bank fondlarini shakllantirish tartibi o'zgarishsiz qolgan, ularning miqdori ta'sisчилarning valyutadagi badallarini qayta baholashda qilingan xarajatlar miqdoriga kamaytirilishi kerak. Bankning hisoblangan, ammo hali olinmagan foydasi balansda avvalgiday aktiv sifatida aks ettiriladi. Ular balans valyutasi va sof foydasini sun'iy ravishda ko'paytiradilar. Banklarda balans hisoboti boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan farqli o'laroq har bir ish kuni bo'yicha, ya'ni kunlik tartibda tuziladi. Kunlik balans hisobotlarini o'rganish va baholash operativ (tezkor) iqtisodiy tahlilni o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklar buxgalteriya hisobining mavjud tizimini shubhasiz afzalligi yig'ma va tahliliy hisobni berilgan kreditlar, jalb qilingan omonatlar va depozitlar, kreditlashtirish ob'ektlari, kreditdan foydalanish muddatlari, foiz stavkalari miqdorining hisobi bo'yicha birlashtirish imkoniyati mavjudligidadir. Shu munosabat bilan banklar shaxsiy hisobvaraqlarni raqamlash uchun 20 ta belgili tizimni qo'llaydilar.

Kreditlar hisobi bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlar quyidagicha ochilishi mumkin:

- balansdagi joylashishi bo'yicha bo'lim raqamiga bitta belgi mo'ljallangan;
- birinchi va ikkinchi tartibdagi hisobvaraqlar raqamlariga ikkitadan belgi ajratilgan;
- uchta belgi valyuta kodini bildiradi;
- bitta belgi himoya kaliti uchun ajratilgan;
- sakkizta belgi mijozning shaxsiy hisobvarag'i raqamini ko'rsatadi;
- uchta belgi hisobvaraqlar tartib raqamini ko'rsatadi.

Hisob raqamlarni belgilashning murakkablashishiga qaramasdan, dasturiy ta'minotning qo'llanilishi ma'lum qulayliklarni yaratadi va uning tahlil qilishdagi ahamiyati ortadi. Ko'pgina tijorat banklari avtomatlashtirishning zamonaviy

vositalari bilan jihozlanganligi bankning tahlil natijalarini shakllantirishning qulayligini ta'minlash, bank amaliyot kunida alohida qo'yilmalarni qabul qilish va joylashtirish, bank faoliyati asosiy yo'nalishlarining butun doirasi bo'yicha muomalalarni bajarish, hisobotlarni tuzish, katta hajmdagi ma'lumot va axborotlarni jamlashni to'liq avtomatlashtirishga imkon yaratdi. Ammo bugungi kunda nafaqat butun bank faoliyati bo'yicha, balki tahliliy vazifalarning ayrim bloklari bo'yicha kompleks tahlil o'tkazish uchun zarur bo'lgan dasturlar ishlab chiqilmagan. Buning asosiy sababi tijorat banklarini boshqarishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati yetarli darajada baholanmasligi va oqibatda ushbu masalalarni avtomatlashtirilgan ravishda yechishning uslubiy ta'minoti yo'qligidadir.

## **2.2. Bank tahlilining sub'ektlari**

Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilni tahlil maqsadlarini shakllantirmasdan, tahlil vazifalarini aniqlamasdan va ularni bajarishning amaliy usullarini belgilamasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtisodiy tahlilning to'g'ri tashkil qilinishi turli bo'limlar va ijrochilar tomonidan bir ishning takrorlanishini inkor qiladi, eng dolzarb masalalarni belgilashga ko'maklashadi hamda tahlilning butligi, zaruriyligi va ko'lamliligini ta'minlaydi. quyidagilar tahlilning asosiy tamoyillari hisoblanadi: yondoshishlarning ilmiyligi, tizimlilik, to'liqlik, xolislik, aniqlik, rejalilik va tezkorlik.

Iqtisodiy tahlilning har xil turlari ularni o'tkazishni tegishli ravishda tashkil qilishni talab qiladi. Masalan, istiqbolli tahlilni tashkil qilish joriy va tezkor tahlildan hamda kompleks tahlilni o'tkazish esa tematik tahlilni o'tkazishdan farq qiladi. Shuning bilan bir vaqtda tahlilning barcha turlarini o'tkazish o'z ichiga qoidaga ko'ra quyidagi standart tadbirlar (bosqichlar)ni oladi:

- tahlilning ob'ektlari va sub'ektlarini belgilash;
- tahlil o'tkazishning tashkiliy shakllarini tanlash;
- tahliliy ishlarni rejalashtirish;
- tahlilning ayrim sub'ektlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;
- tahliliy ishning uslubiy va axborotli ta'minoti;
- bank faoliyati haqidagi ma'lumotlarni tahliliy ishlab chiqish;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish va o'rganish;
- tahlil natijalari bo'yicha takliflarni amalga oshirish.

Tijorat banklarida tahliliy faoliyatni tashkil qilishga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir: bank tomonidan tanlangan faoliyat strategiyasi, sarmoyalar va aktivlarning miqdori, xodimlarning soni, filiallar tarmoqining mavjudligi, xodimlar, ayniqsa boshqaruv xodimlarining malakaviy darajasi. Iqtisodiy tahlil u yoki bu darajadagi bank mutaxassislari katta qismi faoliyatlarining mazmuni hisoblanadi. Kredit muassasalarida iqtisodiy tahlilni amalga oshirish tegishli tarkibiy bo'linmalar tomonidan bajariladi. Ko'pgina tijorat banklarida iqtisodiy tahlil aralash tamoyillar bo'yicha tashkil qilinadi va asosiy tarkibiy bo'limlarda vazifasi iqtisodiy tahlilni amalga oshirish bo'lgan bo'linmalar, guruhlar, sektorlar tashkil qilinadi. Bunda tahliliy ishlarni o'tkazishning yuqoriroq

darajasi, ya'ni maxsus iqtisodiy tahlil bo'linmalarining tashkil qilinishi iqtisodiy tahlilning ahamiyatini ancha ko'tarishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy tahlilni o'tkazish uchun maxsus tarkibiy bo'linmalar tashkil qilinmagan hollarda, uni o'tkazishda bankning "Moliya-iqtisod" departamenti yetakchi o'rinni egallaydi. U bankning barcha bo'limlari tahliliy ishini muvofiqlashtirishni hamda ular tomonidan o'tkazilayotgan tahlil natijalarini umumlashtirishni amalga oshiradi. Bu departament xodimlarining iqtisodiy tahlil o'tkazish uslubiyati va uni tashkil qilish sohasidagi bilimlarga ega bo'lishi va bank sohasidagi muammolarning butun majmuasini yaxshi tushunishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular bankning biznes rejasini ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar, uni amalga oshirish ustidan nazoratni olib boradilar, kredit bo'limi xodimlarini kreditlar berilguniga qadar qarzdorlarning moliyaviy holatini aniqlash, mazkur kreditlar bilan bog'liq xatar darajasi mezonlarini baholashga yo'naltiradilar hamda bankning barcha tarkibiy bo'linmalari tahlilining natijalarini umumlashtiradilar.

Yirik banklarda ushbu departament tarkibida maxsus yig'ma-tahliliy boshqarmalar mavjud bo'ladi. Ular tarkibiga o'z navbatida bank faoliyati samaradorligining tahlili, umum iqtisodiy tahlil, yig'ma rejalashtirish va bank xizmatlarini rivojlantirish bo'limlari kirishi mumkin.

Umumiqtisodiy tahlil bo'limi bank tahliliy faoliyatining umumslubiy nazoratini amalga oshirishi, uning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini (bankning shaxsiy sarmoyasi, aktivlari, passivlari, amalga oshirilayotgan muomalalar miqdori va mijozlar sonidagi o'zgarishlar, filiallarning miqdori va h.k.) o'rganishi hamda bankning salohiyati va zahiralarini baholashi lozim.

Bank faoliyati samaradorligining tahlili bo'limi vazifasiga bankning moliyaviy natijalarini, birinchi navbatda sarmoyaga (o'z va jalb qilingan) foydaning me'yorlari, daromadning me'yorlari, foizli daromadlar, aktivlarning daromadliligi, berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik darajasi, bank xarajatlari umumiy summasidagi boshqaruv xarajatlarining ulushi, rentabellik darajasi va boshqa ko'rsatkichlarning tahlilini o'tkazish hamda bank faoliyatining eng foydali yo'nalishlarini aniqlash kiradi.

Bank faoliyati samaradorligini baholash hamda kredit muassasasining aktivlari va passivlari hamda likvidligi bo'yicha umumiy standartlar va tadbirlarni tahlil qilish lozim. Aktivlarni boshqarish sifatining tahlili bank bo'limining eng malakali mutaxassislar guruhi tomonidan amalga oshirilishi kerak, chunki bank muassasasi ishining barqarorligi to'g'ridan-to'g'ri aktivlarni boshqarish usulini to'g'ri tanlash va uni izchil amalga oshirishga bog'liqdir. Iqtisodiy tahlilni o'tkazishning muntazamligiga ajratilayotgan kredit mablag'larining hajmi va muddatlari ham ta'sir ko'rsatadi.

Berilayotgan kreditlar hajmidagi ko'zda tutilgan o'zgarishlar miqdorini aniqlashni ko'rgazmali ko'rinishda chizmalar va tahliliy jadvallar yordamida, moliya xizmatlari bozorining rivojlanishi hamda Markaziy bank pul-kredit siyosatining umumiy tendentsiyalaridan kelib chiqqan holda mintaqaviy, mavsumiy va boshqa omillarni hisobga olish orqali amalga oshirish mumkin.



Likvidlikning joriy ko'rsatkichlarini Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yorlar bilan muntazam ravishda qiyoslab borish aktivlar va passivlarni hamda likvidlikni boshqarishda tahlilning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Investitsion loyihalar va kreditlashtirish” departamenti tomonidan amalga oshiriladigan tahliliy faoliyat bank xatarlarini iloji boricha pasaytirishga haratilishi lozim. Bunda tahlilning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- bank kredit portfelini tashkil qiluvchi qarzlarni baholash mezonlarini tanlash;
- ushbu mezonlar asosida qarzlarni baholash tizimlarini ishlab chiqish;
- kredit portfelini qarzdorlar doirasida o'rganish va har bir ko'rsatilgan guruhlar bo'yicha foizli xatarlarning miqdorini baholash;
- qarzlar bo'yicha ehtimoliy bo'lgan yo'qotishlarga zahiralarning yetarliligini aniqlash;
- kredit portfelining sifatini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish va yetarli darajada zaxiralarni tashkil qilish.

Iqtisodiy tahlil kreditlashtirishning quyidagi har bir bosqichida zarurdir: kredit shartnomalarini tuzish, kreditlar berish, ulardan maqsadli foydalanish ustidan monitoring o'rnatish, foizlar to'lash va kreditlarni so'ndirishda. Ayniqsa, iqtisodiy tahlil bankning qarzdorlar bilan kredit shartnomalarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki keyingi jarayonlar va kreditlashtirishning natijalari xuddi shunga bog'liqdir.

Iqtisodiy tahlil “qimmatli qog'ozlar” departamentining qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar tahlilini o'tkazishning shunday davriyligini belgilashi lozimki, u bankning moliya bozorida sodir bo'layotgan o'zgarishlarga tezkor ravishda moslashishga imkon yaratsin.

Ushbu departament tomonidan amalga oshirilayotgan tahliliy ishlarni tashkil qilish quyidagi asosiy savollarning qo'yilishi va o'rganilishini ko'zda tutadi:

- bankda amal qilayotgan qimmatli qog'ozlarning tuzilishi va turlari qanday;
- bankning qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchisi sifatidagi holati qanday;
- bank qanaqa qimmatli qog'ozlarni chiqaradi, qandaylarini xarid qiladi;
- bankning davlat qimmatli qog'ozlari portfelidagi ulushi qanday va ular bilan ishlash texnikasi qanaqa;
- moliyaviy xatarlarning ko'lami, portfelli boshqarish hamda emissiyani o'tkazishga tayyorlanishda ularni hisobga olish va pasaytirishning foydalaniladigan usullari qanday;
- qimmatli qog'ozlarning bo'lg'usi qiymatini bashorat qilishda foydalaniladigan usullar.

Qimmatli qog'ozlar bilan muomalalar bo'yicha zaruriy axborotlarni yig'ish, ularni o'rganish va tahlil qilish, fond bozorida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni bashorat qilish hamda yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olish bilan investitsiyalar bo'yicha takliflarni tayyorlash “qimmatli qog'ozlar” departamentining asosiy tahliliy vazifalari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlarni baholash jarayonida bankning to'lov qobiliyati va likvidligini yuqori darajada tartibga solish imkonini beruvchi usulni tanlash muhimdir.

“Axborotlashtirish” departamenti tomonidan amalga oshiriladigan tahlil yangi texnologiyalarini bank faoliyatiga tadbiq etish bo'yicha ishning muhim tarkibiy qismi

hisoblanadi. Avtomatlashtirish masalalari bo'yicha chuqur mulohazali qarorlarni avtomatlashtirishning boshqa avzalliklari va kamchiliklarini o'zaro solishtirmasdan turib qabul qilish mumkin emas.

Tijorat banklari dasturiy ta'minotlarni sotib olayotgan paytda quyidagi masalalarga alohida ahamiyat qaratishi zarur:

- dasturiy ta'minotning tarmoqli versiyasi mavjudmi va uning qiymati qanaqa;
- tarmoqli ish joylari sonining kengayishida va tizimning bank filiallariga o'rnatilishida dasturlarning qiymati o'zgaradimi;
- bank bilan tanlab olingan dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida doimiy hamkorlikning mavjudligi;
- dasturiy ta'minot kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydimi, zarur bo'lganda uni yanada kengaytirish uchun tizimli modullarni tanlash imkoniyatining mavjudligi.

Agar tijorat banki o'z faoliyatini avtomatlashtirish dasturlarini mustaqil ravishda ishlab chiqish yo'lidan borayotgan bo'lsa, u holda mazkur bank dasturchilarning katta xarajatlarni tashkil qiluvchi shtatini ushlab turish bo'yicha o'z imkoniyatlarini baholashi va o'z xodimlarini ko'proq qisqartirishga ehtiyoj vujudga kelishi ehtimolini hisobga olishi zarur.

Tijorat banklarining moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish iqtisodiy tahlilni avtomatlashtirish bo'limida bank moliyaviy hisobotining shakllari va turlari, ularni tegishli davlat idoralariga taqdim etish muddatlari haqidagi zaruriy axborotlar asosida dasturchilar va tahlilchilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Bunda hisobot tarkibiga kiruvchi va uni shakllantiruvchi axborot oqimlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari ushbu departamentda tahliliy faoliyatni tashkil qilish shunday avtomatlashtirilgan tizimning shakllanishiga ko'maklashishi kerakki, u bank boshqaruvi butun tizimining o'zagi sifatida bankning nafaqat hozirgi, balki istiqboldagi holatining tahlilini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Bunda ichki tahlilni o'tkazish va ushbu tizimga zarur bo'lganda turli-tuman jadvallar, diagrammalar, turli hujjatlar va hisob registrlarining bir xil ko'rinishga keltirilgan shakllarini kiritish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.

Tijorat banklarida "Buxgalteriya hisobi va hisoboti" departamenti o'z vazifasiga ko'ra bank moliyaviy faoliyati tahlilining muntazam ravishda o'tkazib borilishini ta'minlaydi. Bundan tashqari ushbu departament boshqa tarkibiy bo'linmalarda tahlil o'tkazish uchun axborot bazasini tayyorlaydi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, bank daromadlari va xarajatlari hamda foyda summasini tezkor aniqlash asosida bank balansi muvofiqlashtiriladi.

Yig'ma hisobotlar bo'limida yakuniy moliyaviy natija shakllanadi hamda bank foydasi qonunchilik va ta'sis hujjatlariga muvofiq ravishda taqsimlanadi. Shuning uchun hisobot yilining tugashi bo'yicha hisobvaraqlarning to'g'ri yopilishi, soliq qonunchiligida belgilangan me'yorlardan ortiqcha bo'lgan xarajatlarni soliq bazasiga qaytadan kiritish, foydani iqtisodiy rag'batlantirish fondlarini shakllantirish uchun taqsimlash masalalari tahlil qilinishi va baholanishi kerak.

Umuman olganda bankning ko'rib chiqilayotgan bo'limlari tomonidan o'tkaziladigan tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mablag'larni moliyaviy aktivlarning bir turidan boshqasiga tezkor ko'chirish bo'yicha muomalalarini o'tkazish uchun banklararo axborot tizimlarini tanlash va baholash;

- valyutalarni xarid qilish yoki sotish haqidagi harorlarni qabul qilish uchun valyuta kursi o'zgarishini baholash usullarini aniqlash;

- bitimlarni amalga oshirish imkoniyatlarini qonuniy ta'minlash uchun bitimlarni tasdiqlash, garov va sug'urtaning mavjud mexanizmlarini baholash hamda tahlil qilish;

- bank xizmatlari, fond va valyuta bozorlarida muomalalarni o'tkazishning samaradorligini taqqoslash hamda ularning har biri bo'yicha xatarli omillarni baholash;

- bank xodimlarining malakaviy darajasini baholash.

Tijorat banklari yirik moliya va valyuta sarmoyalari va tijorat axborotlarining jamlanish joyi bo'lganligi sababli unda ichki xavfsizlik xizmatining tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bank xavfsizlik xizmati xodimlari o'z faoliyatlari davomida, birinchi navbatta bank va uning atrofidagi tezkor vaziyatni baholash, ichki va tashqi xavflarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga asosiy e'tiborlarini haratishlari lozim.

Himoya qilish turlari va shakllarini tanlashda bugungi kunda mavjud bo'lgan texnik vositalarni ularning qiymati, ishonchliligi va ehtimoliy bo'lgan havf-xatarlarni bartaraf eta olish imkoniyatlari, bank xodimlari va mijozlarining hayoti hamda sog'ligini muhofaza qilishni ta'minlash nuqtai nazaridan ustivorligi tamoyillariga asoslanib ish tutiladi.

"Axborotlashtirish" departamentida tijorat banki tomonidan foydalanilayotgan, uzatilayotgan va ishlab chiqarilayotgan axborotlarning avtomatlashtirilgan himoyasini ta'minlash usullari va texnologiyalari, banklararo elektron to'lovlar, kredit kartochkalari va elektron cheklar tizimi hamda bank umumiy elektron alohalarning xavfsizligi tahlil qilinishi zarur.

"Xalqaro hisob-kitoblar" departamentida iqtisodiy tahlilni o'tkazmasdan turib valyuta muomalalari sohasida bank xizmatlarining yangi turlarini qidirib topish va amalda tadbiiq etish, mijozlarning xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadida xorijiy banklar bilan hamkorlikni rivojlantirish va bank amaliyotiga ilg'or zamonaviy yutuqlarini tadbiiq etish muammolarini yechish mumkin emas.

Ushbu departament tomonidan o'tkaziladigan iqtisodiy tahlil dasturlarida quyidagi masalalar ko'zda tutiladi:

- bank qonunchiligida belgilangan valyuta muomalalari bo'yicha me'yorlarni aniqlash va baholash;

- bank sarmoyalari joylashtirilgan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy muammolarni tahlil qilish;

- xorijiy davlatlarning sherik banklaridagi valyuta hisob-kitoblarining o'ziga xosligini aniqlash;

- valyuta xatarlari va ularni sug'urtalash usullarini tahlil qilish;

- xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank balansining xususiyatlarini aniqlash;

- valyuta muomalalarini olib borishdan olinadigan foydani soliqqa tortishni tahlil qilish.

Tijorat bankining filiallari uning tarkibiy bo'linmalari auditini amalga oshirish jarayonida iqtisodiy tahlilning ob'ektlari bo'lib hisoblanadi. Bunda iqtisodiy tahlilning tashkil qilinishi o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvining maqsadi va vazifalariga bog'liqdir. Tijorat banki va uning tarkibiy bo'linmalarida iqtisodiy tahlilni muntazam ravishda o'tkazishga kelsak, u boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga haraganda tez-tez o'tkazib turilishi lozim. Chunki banklarda mehnat buyumlari sifatida bo'luvchi pul mablag'lari jadallashtirilgan aylanishni amalga oshiradilar, bunda axborotlarning kelib tushishi va ulardan foydalanish tezkor ravishda amalga oshiriladi.

### **2.3. Bank hisobotlarining asosiy shakllari. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning mohiyati**

Tijorat banklarini boshqarishning tarkibiy qismi hisoblangan aktivlar va majburiyatlarni boshqarishdan maqsad, bir vaqtning o'zida omonatchilar va kreditorlar tomonidan bankka joylashtirilgan mablag'larning likvidligini ta'minlash va tartibga soluvchi idoralar tomonidan belgilangan me'yorlarni bajarishdan iboratdir. Demak, bank aktivlari va majburiyatlarini boshqarishni ta'riflovchi ko'rsatkichlarni uchta guruhga bo'lish mumkin: foydalilik ko'rsatkichlari, likvidlilik ko'rsatkichlari va tartibga soluvchi idoralar me'yorlarining bajarilishini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Markaziy bank yo'riqnomalariga muvofiq tijorat bankining ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish uchun tayyorlagan umumiy moliyaviy hisoboti o'z ichiga quyidagi hisobotlarni oladi:

- Buxgalteriya balansi;
- Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot;
- Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot.

Tartibga soluvchi idoralar tijorat banklarining faoliyatini nazorat qilish hamda ularning moliyaviy natijalari bilan tanishish imkoniyatini ta'minlash uchun taqdim etiladigan Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning har xil shakllarini belgilashlari mumkin. Masalan, tijorat banklarining Markaziy bankka taqdim etadigan yillik hisoboti tarkibidagi **0204IS shakldagi hisobotda** bank daromadlari va xarajatlarining batafsil tasnifi aks ettiriladi.

**Mazkur hisobotda tijorat banklari o'z daromadlarini quyidagicha tasniflaydilar:**

- Markaziy bank va boshqa banklardan olinadigan daromadlar;
- qimmatli qog'ozlar va fond bozoridagi operatsiyalar bo'yicha daromadlar;
- mijozlardan olingan komission to'lovlar va boshqa to'lovlar;
- mijozlar va banklarga berilgan ssudalar bo'yicha olingan daromadlar;
- valyuta va boshqa tijorat muomalalaridan olingan daromadlar;
- boshqa foizli va foizsiz daromadlar.

**Olingan daromadlar quyidagicha tasniflanadi (0206IS shakldagi hisobot):**

- Markaziy bankka, boshqa tijorat banklariga hamda mijozlarga berilgan ssuda va lizing muomalalari bo'yicha olingan daromadlar;
- korrespondentlik hisob raqamidan olingan daromadlar;
- qimmatliqog'ozlar bo'yicha muomalalardan olingan daromadlar;
- investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar;
- boshqa foizli va foizsiz daromadlar.

**Bank xarajatlari esa quyidagicha tasniflanadi:**

- bank faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan operatsion xarajatlar;
- depozitlarning turlari bo'yicha to'lanadigan foizlar;
- Markaziy bank va boshqa banklardan olingan qarz mablag'lari bo'yicha to'lanadigan foizlar;
- olingan ssudalar bo'yicha to'lanadigan foizlar;
- qimmatliqog'ozlar, valyuta bozoridagi muomalalar va investitsiya faoliyati bo'yicha ko'rilgan zararlar;
- boshqa foizli va foizsiz xarajatlar.

**Bank faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan operatsion xarajatlarga quyidagilar kiradi:**

- moddiy boyliklar va bank hujjatlarini tashish bo'yicha xarajatlar;
- mijozlarning muomalalari bo'yicha pochta va telegraf xarajatlari;
- asosiy fondlar bo'yicha hisoblanadigan eskirish summaları;
- to'langan jarimalar va penyalari.

Tijorat banklarining boshqaruv xarajatlari mehnatga haq to'lash xarajatlari, xizmat safarlariga ajratiladigan xarajatlar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

**Tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foizlar:**

- har bir depozit turi bo'yicha mijozlarga to'lanadigan foizlar;
- bankning boshqa turli majburiyatlari bo'yicha to'lanadigan foizlar.

Tijorat banklarida foizlarni hisoblash ikki usulda olib boriladi: oddiy va murakkab foizlarni hisoblash usullari.

**Oddiy foiz** hisoblash usulida bank jalb etgan mablag'ga o'tgan davr uchun hisoblangan foizlar asosiy qarzdand alohida tarzda yiqilib boradi va mijozga kelishilgan muddatda to'lanadi.

**Murakkab foiz** hisoblash usulida esa o'tgan davrlarda hisoblangan foizlar asosiy qarz summasini ko'paytiradi va keyingi davrda shu ko'paygan summa bo'yicha foiz hisoblanadi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning oxirida hisobot yili bo'yicha olingan foyda va zararlarining yakuniy summasi keltiriladi. Shunday qilib Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdagi ma'lumotlar yetarlicha batafsil bo'lsada, ammo u tijorat bankining foyda olish jarayoni haqida aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini bermaydi.

Tijorat banklarining Foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

**Daromadlar:**

1. Foizli daromadlar;
2. Foizsiz daromadlar;

Jami daromadlar.

**Xarajatlar:**

1. Foizli xarajatlar;
  2. Foizsiz xarajatlar;
  3. Operatsion xarajatlar;
- Jami xarajatlar.

Tijorat banklarining matbuotda e'lon qilinadigan, tashqi audit tasdig'idan o'tgan Foyda va zararlar to'g'risidagi hisoboti quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

**Foizli daromadlar:**

1. Markaziy bank va boshqa banklarga berilgan qarz mablag'lari bo'yicha foizli daromadlar;
2. Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar;
3. Qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha foizli daromadlar;
4. Investitsiya faoliyati bo'yicha foizli daromadlar;
5. Boshqa foizli daromadlar.

Jami foizli daromadlar.

**Foizli xarajatlar:**

1. Depozitlarning turlari bo'yicha foizli xarajatlar;
2. Boshqa banklardan olingan qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar;
3. Olingan boshqa qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar;
4. Boshqa foizli xarajatlar.

Jami foizli xarajatlar.

**Jami foizsiz daromadlar.**

**Jami foizsiz xarajatlar.**

**Jami operatsion xarajatlar.**

**Soliqlar va boshqa to'lovlarga qadar hisoblangan daromad.**

**Tuzatishlarni kiritishga qadar bo'lgan daromad.**

**Berilgan qarzar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlarni qoplash uchun shakllantirilgan zahiralarning o'zgarishi.**

Tijorat banklari o'z faoliyatlarini samarali boshqarish uchun o'zlarining Foyda va zararlar to'g'risidagi ichki hisobotlarini shakllantirishlari va ulardan foydalanishni yo'lga qo'yishlari maqsadga muvofiqdir. Bu hisobotlardagi ma'lumotlarning shakli va mazmuni bank faoliyatining aniq vazifalari asosida belgilanishi kerak va ular rasmiy taqdim etiladigan hisobotlardagi ma'lumotlardan farq qilishi mumkin. Ammo barcha tijorat banklari ham bunga ahamiyat beravermaydi. Rasmiy taqdim etiladigan hisobotlarni tayyorlash bank xodimlarining katta vaqtini egallaydi. Tijorat banklari rasmiy taqdim etiladigan hisobotlarida turli usullar bilan o'z ko'rsatkichlarini ijobiy qilib ko'rsatishga harakat qilishlari mumkin. Shuning bilan bir vaqtda tijorat banklar faoliyatining ichki tahlilini amalga oshirish hamda asoslangan moliyaviy harorlar qabul qilish uchun bank daromadlari va xarajatlarining haqiqiy holatini bilish zarur bo'ladi.

Tijorat banklarining Foyda va zararlar to'g'risidagi ichki hisoboti ularning har qanday ichki moliyaviy hisobotlari kabi turli ustivorliklarni, jumladan bank rahbariyatining turli talablarini, daromadlar va xarajatlar manbalarining taqsimlanishini, bank faoliyatidagi tegishli muomalalarning ahamiyatini, tijorat bankining rasmiy moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan ko'proq foydalanish imkoniyatini va marketing faoliyatining xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi lozim.

Tijorat banklari o'zida joriy qilingan turli omonat va depozitlarga jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'larini hamda qarz majburiyatlari sifatida boshqa banklar va kreditorlarning mablag'larini jalb qilishlari mumkin. Banklar jalb qilingan mablag'lardan foydalanganliklari uchun omonat va depozit egalariga hamda kreditorlarga shartnomada belgilangan yillik foiz stavkalari bo'yicha foiz to'lovlarini amalga oshiradilar. Shunday qilib, jalb qilingan mablag'lardan foydalanganlik uchun bank tomonidan to'langan barcha xarajatlar o'zining moliyaviy mohiyatiga ko'ra foizli xarajatlar hisoblanadi. Demak, tijorat bankining Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotida ma'lum hisobot davri davomida jalb qilingan mablag'lardan foydalanganlik uchun to'langan barcha foiz summasi "Foizli xarajatlar" moddasida umumlashsa, undan oldin keladigan "Foizli daromadlar" moddasida esa bank tomonidan qarzga berilgan mablag'lardan qarzdorlarning foydalanganligi uchun olingan barcha daromadlar yig'indisi o'z aksini topadi. Foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'rtasidagi farq ijobiy bo'lsa, ushbu farq **sof foizli daromad** deb ataladi. Boshqacha aytganda, bankning o'zi tomonidan jalb qilingan barcha mablag'larni aktiv muomalalarga joylashtirish bilan bog'liq operatsion faoliyatdan olingan moliyaviy natijasi **sof foizli foyda** yoki **sof foizli zarar** deb ataladi.

Tijorat banklarining faoliyati mobaynida hosil bo'ladigan daromadlarning hammasini ham "Foizli daromadlar" tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Shuning uchun ham tijorat bankining hisobot davrida hosil bo'lgan "Foizli daromadlar"i va "Foizli xarajatlar"ining farqi har doim ham ushbu bank faoliyatining natijasi to'g'risida to'la tasavvurni bermaydi.

Bank hisobotining tuzilishi bank daromadlari va xarajatlari hamda sof foydasini ham mutloq ham nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi. Shu bilan bir qatorda olingan ma'lumotlarni hisobot davri boshlanishiga qadar bo'lgan ma'lumotlar bilan taqqoslash, bank ko'rsatkichlarining bir qancha hisobot davrlari davomidagi o'zgarishlarini tahlil qilish, bank faoliyatini baholash va tegishli moliyaviy qarorlar qabul qilishga imkon beradi (3-jadval).

**“X” tijorat banki daromadlarining tarkibi va ularning salmog’i**

Daromad moddalari	Asosiy muomalalardan olingan daromadga nisbatan, %		Aktivlarga nisbatan, %	
	O’tgan yili	Hisobot yili	O’tgan yili	Hisobot yili
Asosiy muomalalardan daromad	100	100	14,2	13,7
Foizli daromadlar	78,3	58,9	11,1	8,4
Foizsiz daromadlar	21,7	41,1	3,1	5,3
Sof foyda (zarar)	14,6	12,2	3,2	2,4

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, o’tgan yil mobaynida “X” bank o’zining aktiv muomalalar salmog’ini foizli daromad keltirmaydigan boshqa bank muomalalari hisobiga kamaytirgan. Foizsiz daromadlar 89,4% ga o’sgan holda, foizli daromadlar hisobot yili natijasiga ko’ra 24,8% ga kamaygan. Natijada jalb qilingan mablag’larni unumli joylashtira olmaganligi sababli bankning sof foydasi hisobot yilida o’tgan yilga qaraganda 16,4% ga kamaydi. “X” bank sof foydasining kamayganligi va aktivlar summasining hisobot yilida o’sganligi sababli, sof foydaning aktivlarga nisbatan salmog’i ham kamaygan.

**Tayanch iboralar:** iqtisodiy tahlil, axborot manbalari, mulkchilik munosabatlari, iqtisodiy siyosat, statistik axborot, buxgalteriya axboroti, kiruvchi axborot, chiquvchi axborot, pul muomalalari, xususiy sarmoyalar, emission muomalalar, axborot-tahliliy materiallar, tahlilning ob’ektlari va sub’ektlari, tahliliy ishlar, rejalashtirish, tahlil natijalari, rasmiylashtirish, aktivlarning miqdori, xodimlarning soni, filiallar tarmog’i, hujjatlar, hisob registrlari, foizlarni hisoblash, oddiy foiz, murakkab foiz, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to’g’risidagi hisobot, pul mablag’larining harakati to’g’risidagi hisobot, jalb qilingan mablag’lar, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar, operatsion xarajatlar, asosiy muomalalardan olingan daromad, sof foyda (zarar).

**Nazorat uchun savollar**

1. Bank haqidagi axborotlarning asosiy manbalari.
2. Davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralardan olinadigan axborotlar.



3. Tashqi iqtisodiy omillar ta'sirining ahamiyati.
4. Kreditlar hisobi bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlar qanaqa tartibda ochiladi?
5. Tahlilning asosiy tamoyillariga nimalar kiradi?
6. Tahlil o'tkazish jarayonida qanaqa standart tadbirlar (bosqichlar) amalga oshiriladi?
7. Tijorat banklari dasturiy ta'minotlarni sotib olayotganda nimalarga ahamiyat berishlari zarur?
8. Tijorat banklarining umumiy moliyaviy hisoboti o'z ichiga qaysi hisobotlarni oladi?
9. Bankning asosiy muomalalaridan olingan daromadi tahlili.
10. Bank daromadlarining tarkibi.
11. Oddiy va murakkab foizlarni hisoblash tartibi.
12. Foizli va foizsiz xarajatlar tahlili.
13. Foizli daromadlar tarkibi va tahlili.
14. Foizsiz daromadlar tarkibi va tahlili.
15. Bank asosiy muomalalaridan olingan sof foyda tahlili.

### **III Bob. BANKLARNING O'Z VA JALB QILINGAN MABLAG'LARI HOLATINING TAHLILI**

#### **3.1. Bank mablag'lari, ularning tuzilishi va tashkil topish manbalari**

Bozor munosabatlari sharoitida banklarning mablag'larini uzluksiz tahlil qilib borish zarur bo'ladi. Chunki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar kabi banklar ham bozor munosabatlari sharoitida o'zaro raqobat muhitida faoliyat yuritadilar. Banklarning bunday raqobat muhitida ishonchli va barqaror faoliyat yuritishlari uchun ular yetarli darajada mablag'lar bilan ta'minlangan bo'lishlari lozim.

Bank mablag'lari 2 turga bo'linadi:

1. O'z mablag'lari;
2. Jalb qilingan mablag'lar.

Bankning o'z mablag'lari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ustav kapitali, zaxira kapitali, turli maqsadlar uchun tashkil qilingan fondlar (jamg'armalar) va bankning taqsimlanmagan foydasi.

Bankning jalb qilingan mablag'lari esa quyidagi mablag'lar hisobiga shakllanadi:

- jismoniy shaxslardan bank omonatlariga qabul qilingan mablag'lar;
- yuridik shaxslardan bank depozitlariga qabul qilingan mablag'lar;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olingan ssudalar;
- boshqa banklardan olingan kreditlar;
- boshqa tashkilotlardan olingan qarz mablag'lari;
- bank tomonidan qaytarib berish sharti bilan qabul qilingan boshqa qarz mablag'lari.

Bankning o'z va jalb qilingan mablag'larini joylashtirish hamda mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni amalga oshirishdan olgan

daromadlari uning har bir turdagi operatsiyalardan olgan daromadlarining yig'indisi sifatida qaraladi. Ya'ni, bank tomonidan olingan daromad qaysi turdagi operatsiyalardan olinganligiga qarab guruhlanadi, so'ngra ular summasini qo'shish orqali bankning hisobot davrida olgan umumiy daromadi aniqlanadi. Har bir bank o'zi amalga oshirayotgan operatsiyalarning yanada aniqlashtirilgan tasnifini ishlab chiqishi mumkin. Hisobotga qaysi operatsiyalarni qo'shish yoki qo'shmaslik bank faoliyatining xususiyatlari, yo'nalishlari hamda tahlil vazifalaridan kelib chiqadi. Masalan, bankning kredit va lizing operatsiyalari, investitsiya va banklararo pul bozorida faoliyati aktiv operatsiyalar sifatida qaraladi. Ularning ma'nosi ma'lum bir foiz asosida qarzga pul berish, fond va banklararo pul bozorida turli operatsiyalarni amalga oshirishdir. Boshqacha aytganda, bank mijozlarga ularning hisob raqamlarini boshqarish, valyuta operatsiyalari va boshqa foizga qarz berish bilan bog'liq bo'lmagan xizmatlarni ham ko'rsatishi mumkin. Bankning balansida, "Foyda va zararlar to'g'risidagi" hisobotida, shuningdek moliya sohasidagi nashrlarda beriladigan tahliliy materiallarda bank daromadi guruhlariga bo'lingan holda, har biri alohida satrlarda ko'rsatiladi. O'z mohiyatiga ko'ra aniq bir guruhlariga kirmagan daromadlar esa "Boshqa daromadlar" nomli satrda aks ettiriladi. Shunday qilib, bank daromadlarining umumlashgan tahlilini daromad tarkibini aniqlash va daromad guruhlarini bir-biri bilan yoki boshqa banklarning daromad guruhlarini bilan taqqoslash orqali amalga oshirish mumkin. Quyidagi jadvalda bank daromadlarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan (4-jadval):

4-jadval

### Bank daromadlarining tarkibi

Banklar	Daromadlar tarkibi			
	Foizli daromadlar	Qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalardan olingan daromadlar	Valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar	Boshqa daromadlar
"A" bank	45,5	14,2	27,7	12,6
"B" bank	47,6	25,3	18,5	8,6
"S" bank	75,2	5,7	6,8	12,3

Bank daromadlari tarkibini chuqurroq o'rganish orqali ushbu daromadlarning shakllanish manbalarini aniqlash mumkin. Quyidagi jadvalda shartli ravishda bankning foizli daromadlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy bank operatsiyalari va bu operatsiyalar orqali olingan daromadlarning jami daromad tarkibidagi salmog'i ko'rsatilgan (5-jadval):

**Foizli daromadlar tarkibi**

Olingan foizli daromadlar	Summa, mln. so'm	Jami foizli daromaddagi ulushi, %
Banklardagi mablag'lar bo'yicha	15400	24,96
Berilgan ssudalar va lizinglar bo'yicha	22600	36,63
Qimmatli qog'ozlar bo'yicha	12500	20,26
Boshqa manbalar bo'yicha	11200	18,15
Foizli daromadlarning jami	61700	100

Tahlil maqsadlaridan kelib chiqqan holda bankning foizli daromadlari tahlilini boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. Masalan, kredit olgan qarzdorlar guruhlar bo'yicha berilgan kreditlarning muddatiga qarab, qimmatli qog'ozlarning turiga qarab, boshqa bankka mablag' joylashtirish shartlariga qarab va hokazolar. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bunday tahlilni nafaqat bankning foizli daromadlarini tahlil qilishda, balki bank tomonidan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalarning mohiyati va samaradorligini tahlil qilishda ham qo'llasa bo'ladi.

Belgilangan tahlil o'tkazilgandan so'ng bankning jami operatsiyalardan olingan daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni va bu omillarning salmog'ini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir moliyaviy operatsiyadan olingan daromadni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$E = R * g$$

Bu erda, E – moliyaviy operatsiyadan olingan daromad; P – moliyaviy operatsiyaga joylashtirilgan mablag' summasi; r – moliyaviy operatsiyaning daromadlilik me'yori.

Ushbu formula asosida shuni aytish mumkinki, agarda ba'zi bir operatsiyalar yoki operatsiyalar guruhidan olingan daromad boshqa operatsiyalar yoki operatsiyalar guruhidan olingan daromaddan ko'proq bo'lsa, u holda bu operatsiyalarga joylashtirilgan mablag'lar summasining kattaligini yoki bu operatsiyalarning Yuqori daromad keltirishini ko'rsatadi. Moliyaviy operatsiyaga joylashtirilgan mablag'ning miqdori, moliyaviy operatsiyaning daromadlilik me'yori va muddati ma'lum bo'lsa, u holda ushbu moliyaviy operatsiyadan olinadigan daromadni yuqorida ko'rsatilgan formula, ya'ni oddiy foiz hisoblash formulasi yordamida hisoblab topish mumkin. Bank operatsiyalarining daromadligini ularning turlari va guruhlar bo'yicha qiyosiy tahlil qilishda ba'zi bir operatsiyalardan olingan daromadlarning yig'indisini ham aniqlashga to'g'ri keladi. Lekin buning uchun ushbu operatsiyalarga joylashtirilgan mablag'larning summasi ma'lum bo'lishi lozim.

Moliyaviy operatsiyalarga joylashtirilgan mablag'lar hisobot davrida takroriy ishlatilishi ehtimoli hisobga olinmasligi sababli moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlarning yuqorida ko'rsatilgan formula yordamida hisoblab topilgan summalari yig'indisida ma'lum bir farq hosil bo'lishi mumkin.

Moliyaviy operatsiyalar majmuasi daromadligini aniqlashning yana bir usulida olinadigan daromad ushbu majmuaning o'rtacha miqdorining o'rtacha daromadligi ko'rinishida aniqlanadi. Bunda salmoqli koeffitsentlar sifatida odatda operatsiyalarning har biri (operatsiyalar guruhlari) bo'yicha mablag'lar summasi yoki boshqacha aytganda, ularning kiritilgan mablag'lar umumiy summasidagi nisbiy ulushi olinadi. Shunday qilib, moliyaviy operatsiyalar majmuasining umumiy o'rtacha daromadligi ularni tashkil etuvchi har bir moliyaviy operatsiya bo'yicha alohida olingan daromadlarning yig'indisiga teng bo'lishi uchun har bir moliyaviy operatsiyaga joylashtirilgan mablag'lar hisobot davrida faqat bir marta aylanishi lozim degan shart bajarilishi zarur. Bu shartlarni moliyaviy operatsiyalar yig'indisining daromadligini ta'riflovchi ko'rsatkichlarni tanlash va hisoblashda nazarda tutish kerak. Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan o'rtacha hisoblangan daromadlilikniig mohiyatidan kelib chiqqan holda, ushbu ko'rsatkichlardan faqat moliyaviy operatsiyalarning har xil yig'indisini qiyosiy ta'riflashda foydalanish mumkin. Bunda ko'rib chiqilayotgan moliyaviy operatsiyalar majmuasiga tegishli bo'lgan har bir operatsiya bo'yicha unga joylashtirilgan mablag' va olingan daromad ma'lum bo'lsa, butun majmuaning hisobot davridagi daromadligini oddiy foiz hisoblash formulasi yordamida aniqlash mumkin.

Agarda har bir moliyaviy operatsiyalar bo'yicha kiritilgan mablag'larning summasi va uning yillik foiz stavkasi ko'rinishidagi daromadlilikni ma'lum bo'lsa, ushbu operatsiyalar majmuasining o'rtacha daromadlilikini bir xil daromadga ega bo'lgan operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlarni qo'shib aniqlash mumkin. Moliyaviy operatsiyalar majmuasining o'rtacha daromadligini bilgan holda ularning umumiy o'rtacha daromadlilikini ham aniqlash mumkin.

Bankning daromad keltiruvchi operatsiyalarga joylashtirilgan mablag'larining summasi va bu operatsiyalarning daromadlilikni qanchalik katta bo'lsa, uning asosiy operatsiyalardan oladigan daromadi ham shunchalik katta bo'ladi. Demak, bankning asosiy operatsiyalari daromadlilikini oshirish uchun ko'proq daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalar ulushini ko'paytirish va shunga ko'ra kamroq daromad keltiruvchi operatsiyalar ulushini kamaytirish zarurdir. Bunaqa qarorlarni qabul qilish uchun aktiv operatsiyalar tizimi tahlilini ularning daromadligi tahlili bilan bir vaqtda uzviy ravishda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Nazariy jihatdan qaralganda, bank kattaroq daromad olish uchun o'z mablag'larini iloji boricha eng katta daromadlilikka ega operatsiyalarga joylashtirishi zarur. Amalda esa, bank aktivlari tarkibini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qator cheklanishlarni hisobga olish lozim.

Birinchidan, bank tomonidan jalb qilingan barcha mablag'larni yuqori daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarga joylashtirishning iloji yo'q. Chunki bu mablag'larning bir qismi bank tomonidan o'zining joriy majburiyatlarini bajarish uchun bank g'aznasiga va korrepondentlik hisob varag'iga joylashtirilishi kerak, yana bir qismi esa tartibga soluvchi idoralarning talablariga muvofiq O'zbekiston

Respublikasi Markaziy bankidagi zaxira hisob varag'ida saqlanishi kerak. Bankka daromad keltirmaydigan bunday mablag'larning umumiy summasi tijorat banking umumiy moliyaviy hisoboti tarkibiga kiruvchi balans hisobotida hamda ular tomonidan nashr qilinadigan bilansning "Markaziy bankdan olinishi" moddasida beriladi. Bundan tashqari, bank o'z mablag'larining bir qismidan asosiy vositalar xarid qilish uchun foydalanadi yoki boshqacha aytganda daromad keltirmaydigan aktivlarga kiritiladi. Demak, bank aktivlari daromad keltiradigan va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.

Ikkinchidan, daromad keltiradigan aktivlarni boshqarishda shuni hisobga olish kerakki, tartibga soluvchi idoralar tijorat banklari faoliyati bo'yicha ularning aktiv operatsiyalari tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qator me'yorlarni - bank sarmoyasi va uning xatarli aktivlarga nisbatini hamda kreditlar berish va likvidlikni ta'minlash bilan bog'liq boshqa me'yorlarni belgilash mumkin.

Nihoyat, aktivlarni foyda olish uchun joylashtirishda har qanday moliyaviy operatsiya foyda yoki zarar keltirishi mumkinligini hisobga olish lozim. Bundan tashqari qoidaga ko'ra operatsiyalar foydaliligining kutilgan me'yori qanchalik katta bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xatar ham shunchalik katta bo'ladi. Shuning uchun ham aktivlar tarkibi hamma vaqt ham foyda olish istagi va moliyaviy operatsiyalar xatarini kamaytirishga harakat qilish o'rtasidagi ba'zi bir kelishuvlardan iborat bo'ladi.

Daromad keltirmaydigan aktivlarning ulushi ham bank rahbariyatiga bog'liq bo'lgan ichki va tartibga soluvchi idoralarning bankning jalb qilingan mablag'lari bir qismini majburiy zaxiralarga joylashtirish talablari bilan asoslangan tashqi omillar orqali belgilanadi. Majburiy zaxiralarning bank daromadliligiga ta'sirini quyidagicha izohlash mumkin (6-jadval):

6-jadval

### Bank aktivlarining asosiy moddalari

Tijorat banklari	Bank aktivlari								Jami aktivlar, %
	Daromad keltiradigan aktivlar, %					Daromad keltirmaydigan aktivlar, %			
	Boshqa banklardagi mablag'lar	Qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'lar	Kredit operatsiyalariga joylashtirilgan mablag'lar	Boshqa aktivlar	Jami daromad keltiradigan aktivlar	O'z R Markaziy bankida saqlanayotgan mablag'lar	Asosiy vositalarga sarflangan mablag'lar	Jami daromad keltirmaydigan aktivlar	
"A" bank	25	5	35	28	93	4,5	2,5	7	100
"B" bank	18	12	26	30	86	11	3	14	100
"S" bank	34	2	44	10,5	90,5	7,3	2,2	9,5	100

Bankning ko'rib chiqilayotgan davr uchun daromad keltiradigan aktivlarning o'rtacha daromadligi aniqlangandan keyin uni o'tgai davrlar uchun ma'lumotlar hamda faoliyatining xususiyati va ko'lami bo'yicha yaqin bo'lgan boshqa

banklarning daromad keltiradigan aktivlarining o'rtacha daromadligi bilan solishtirish zarur. Kerakli ma'lumotlarni banklarning nashr qilingan hisobotlaridan olish mumkin. Jadvalda bunday tahlil uchun banklarning nashr qilingan hisobotlari bo'yicha yil boshidagi ma'lumotlari keltirilgan. Bunda daromad keltiradigan aktivlardan olinadigan daromad foizli daromadlar, qimmatli qog'ozlar bo'o'yicha olingan va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlarning summasi sifatida belgilanadi. Aktivlarning o'rtacha summasi yil davomida "Boshqa banklardan olishga", "Ssudalar va lizing oieratsiyalari" va "Boshqa aktivlar" moddalari bo'yicha yilning boshidagi va oxiridagi o'rtacha miqdoriga teng holda olinadi.

Keyingi bosqichda bankning daromad keltiradigan aktivlarining tahlilini ularning daromadlilikini hisobga olgan holda o'tkazish zarur. Bunda yuqorida bayon qilinganidek, ushbu operatsiyalarning tarkibi barcha operatsiyalar majmuasiga joylashtirilgan jami mablag'lar ichida turli operatsiyalar, ularning guruhlari va turlaridagi mablag'larning iisbiy ulushi sifatida aniqlanadi. Ko'rib chiqilayotgan davr davomida bankning u yoki bu operatsiyalarga joylashtirilgan mablag'lar summasi haqidagi ma'lumotlar sintetik va analitik hisobning tegishli hujjatlari bo'yicha aniqlanishi mumkin. Operatsiyalarning guruhlari va turlari bo'yicha daromadlilik yuqorida keltirilgan uslub bo'yicha hisoblanishi mumkin (7-jadval).

7-jadval

### **Banklarning daromad keltiradigan va keltirmaydigan aktivlari hajmi**

Banklar	Daromad keltiradigan aktivlarning o'rtacha summasi, mln. so'm	Daromad keltiradigan aktivlardan olinadigan daromad, mln. so'm	O'rtacha yillik daromadlilik, %
"A" bank	1525600	445700	29
"B" bank	860900	215500	25

Bunday tahlilni o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni tegishli jadvallar ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Jadvalda misol tariqasida banklarning ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan "Foyda va zararlar to'g'risidagi" hisobotida ko'rsatilishi mumkin bo'lgan moliyaviy operatsiyalarning tarkibi va daromadlilik to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

### **3.2. Banklarning o'z mablag'lari holatining tahlili**

Bankning jami mablag'lari tarkibida o'z mablag'larining ulushi qancha yuqori bo'lsa, bunday bank shuncha ishonchli va moliyaviy barqaror hisoblanadi. Mijozlar va investorlar bunday banklar bilan hamkorlik qilishga intiladilar. Tijorat banklarining o'z mablag'lari tarkibida ustav kapitali salmoqli o'rinni egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimizda turli mulkchilik shakllariga asoslangan tijorat banklari tashkil topdi. Mazkur tijorat banklarining aksariyati aktsiyadorlik tijorat banklari bo'lib, ularning ustav kapitali ta'sischi qo'shgan mablag'lar

hisobidan shakllangan. Davlat tijorat banklari ustav kapitalining asosiy qismini davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar, xususiy tijorat banklar ustav kapitalining asosiy qismini esa ushbu bankni tashkil qilgan xususiy shaxs mablag'lari tashkil etadi.

Banklarning ustav kapitali ularning ustavida ko'rsatiladi hamda bank faoliyatini boshlashning dastlabki mablag'i hisoblanadi. Tijorat banklarining ustav kapitali summasi me'yoriy hujjatlar bilan chegaralanmagan, lekin bank faoliyatini barqaror ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12 iyuldagi 670-sonli «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2007 yil 7 noyabrdagi 726-sonli «Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlariga muvofiq banklarning minimal ustav kapitallari miqdoriga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu qarorlarga muvofiq yangi tashkil etilayotgan tijorat banklarining minimal ustav kapitali 2008 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagicha miqdorda belgilab qo'yildi:

- tijorat banklari uchun so'm ekvivalentida 5 mln. yevro miqdorida;
- xususiy banklar uchun so'm ekvivalentida 2,5 mln. yevro miqdorida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi PQ-1317-sonli «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq banklarning minimal ustav kapitallari miqdoriga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining 2011 yil 1 yanvardan boshlab yangitdan tashkil etilayotgan banklar ustav kapitalining eng kam miqdorlarini quyidagicha belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilindi:

- tijorat banklari uchun – so'm ekvivalentida 10 mln. yevrogacha;
- xususiy banklar uchun – so'm ekvivalentida 5 mln. yevrogacha.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat banklari bilan birgalikda 2010 yilda tijorat va xususiy banklarning ustav kapitallarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 6 apreldagi PQ-1317-sonli «Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori talablariga muvofiq holga keltirish bo'yicha chora-tadbirlar o'z vaqtida ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta'minlash vazifalari belgilab qo'yildi.

Tijorat banklarining ustav kapitali o'z mablag'larining asosiy qismini tashkil etadi va uning summasi bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarori asosida oshirilishi mumkin.

Tijorat banklarining zaxira kapitali foydadan ajratib boriladigan ajratmalar hisobiga tashkil etilib, ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining pasayishi natijasida vujudga keladigan yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallanadi.

Tijorat banklari o'z mablag'larining tarkibiga ustav kapitali va zaxira kapitalidan tashqari turli maqsadlar uchun tashkil qilingan fondlar (jamg'armalar) va taqsimlanmagan foyda kiradi.

Tijorat banklari mijozlarga ajratgan kreditlar hisobidan foizli daromadlar, qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari va boshqa turli moliyaviy operatsiyalari hisobidan boshqa ko'rinishdagi daromadlarni oladilar. Bank faoliyatidan olingan barcha daromadlardan faoliyat xarajatlari va tuzilgan zaxiralarga ajratmalar chegirib tashlansa bankning soliq to'langunga qadar foydasi qoladi. Ushbu summadan daromad (foyda) solig'ini chegirib tashlab bankning hisobot yilidagi sof foydasi aniqlanadi. Bankning sof foydasidan aktsiyadorlarga dividendlar ajratiladi va qolgan qismi bankning taqsimlanmagan foydasi hisoblanadi. Bankning taqsimlanmagan foydasi bankning yillik balansida aks ettiriladi.

Tijorat banklarining o'z mablag'larini tahlil qilishda uning shakllanishi va yetarliligiga e'tibor berish lozim. Bunda o'z mablag'larining tarkibi va uning hisobot yilida qanday o'zgarganligini o'rganish muhimdir. Tahlil uchun asosiy manba bo'lib, tijorat banklarining yillik buxgalteriya balansi hisoblanadi. Buxgalteriya balansining 3- "Kapital" bo'limida alohida satrlar bo'yicha bank o'z mablag'larini tashkil etuvchi moddalarning summalari balans tuzilgan sanaga aks ettiriladi. Ushbu summalar balans tuzilgan sanaga bankning oddiy va imtiyozli aktsiyalar bo'yicha aktsiyadorlardan olingan mablag'lari, tashkil etilgan zaxiralardagi mablag'lari va bankning taqsimlanmagan foydasi qancha ekanligini ko'rsatadi. Tahlil qilishda birinchi navbatda 3-"Kapital" bo'limining hisobot yili boshi va oxiri bo'yicha umumiy summalari taqqoslanib, uning hisobot yili davomidagi o'zgarishi aniqlanadi. Shundan so'ng ularning tarkibi o'rganilib, o'zgarish qaysi moddalar hisobiga sodir bo'lganligi va buning sabablari aniqlanadi.

Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bular natijasida tijorat banklarining kapitali yildan-yilga ko'payib bormoqda va ularning moliyaviy barqarorligi yanada mustahkamlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Matbuot xizmatining ma'lumotlariga qaraganda, banklarning yalpi kapitali 2002 yil 1 yanvarida 502 milliard so'm bo'lgan bo'lsa, 2004 yil 1 yanvar holatiga 791 milliard so'mni tashkil etgan, ya'ni ushbu davr mobaynida 289 milliard so'mga yoki 57,6 % ga ko'paygan.

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida aktsiyadorlik tijorat banki o'z mablag'larini tahlil qilib, uning kelgusidagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ladi (8-jadval):

8-jadval

### Aktsiyadorlik tijorat banki o'z mablag'larining tahlili

O'z mablag'lari	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+; -)	
	mln. so'm	%	mln. so'm	%	mln. so'm	%
A	1	2	3	4	5=3-1	6=4-2
1. Oddiy aktsiyalar	2855,8	68,1	2860,3	66,9	+4,5	-1,2
2. Imtiyozli aktsiyalar	34,3	0,8	5,0	0,1	-29,3	-0,7
3. Aktsiyadorlik kapitali	2890,1	68,9	2865,3	67,0	-24,8	-1,9
4. Qayta baholashga oid zaxiralar	227,7	5,4	158,4	3,7	-69,3	-1,7
5. Taqsimlanmagan foyda	1076,9	25,7	1253,1	29,3	+176,2	+3,6
O'z mablag'larining jami	4194,7	100	4276,8	100	+82,1	-



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aktsiyadorlik tijorat bankining o'z mablag'lari tarkibida hisobot yili davomida turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ushbu davrda bank aktsiyadorlik kapitalining summasi o'zi chiqargan 29,3 mln. so'mlik imtiyozli aktsiyalarni qayta sotib olish natijasida kamaygan. Buning sababini bankning filiallari bo'yicha alohida ko'rib chiqish mumkin. Bankning qayta baholashga oid zaxiralari summasi ham ushbu davrda 69,3 mln. so'mga kamaygan. Faqat taqsimlanmagan foyda summasining yil oxirida yil boshiga nisbatan 176,2 mln. so'mga ko'payganligi bankning o'z mablag'lari summasini 82,1 mln. so'mga ko'paytirgan. Yil oxirida bankning taqsimlanmagan foydasi yil boshiga nisbatan 3,6 foizga ko'paygan. Bankning o'z mablag'lari tarkibidagi bunday o'zgarishni ijobiy deb baholasa bo'ladi. Agar ushbu davrda aktsiyadorlik tijorat bankining imtiyozli aktsiyalari summasi 29,3 mln. so'mga va qayta baholashga oid zaxiralari summasi 69,3 mln. so'mga kamaymaganda, bank o'z mablag'larining jami summasi yil oxirida 4375,4 mln. so'm bo'lardi va uning moliyaviy barqarorligi yanada mustahkamlanar edi. Shunga alohida ahamiyat berish lozimki, bankning o'z mablag'lari tarkibida eng katta ulushni, ya'ni uning 67 foizini aktsiyadorlik kapitali tashkil etayapti. Ushbu holat boshqa tijorat banklarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

### **3.3. Banklarning jalb qilingan mablag'lari holatining tahlili**

Joylashtirilgan mablag'lar daromadliligining tahlilini har bir turdagi operatsiyalarni, ularni turli darajada detallashtirilgan guruhlariga ajratib davom ettirish lozim. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida bank operatsiyalarini turlarga va guruhlariga ajratish orqali moliya bozoridagi ahvol, bank faoliyat ko'rsatayotgan mintaqadagi iqtisodiyotning umumiy ahvoli, raqobatchilik kabi tashqi omillarni bashorat qilgan holda bank aktivlarining tarkibini o'zgartirish bo'yicha qarorlar qabul qilish mumkin. Bunday tadqiqotni o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborotlar istalgan paytda, istalgan darajadagi detallashtirishlar uchun "Bank operatsion kuni" va boshqa bank axborotlarini qayta ishlashga mo'ljallangan tegishli dasturiy ta'minotlar bilan umumlashtirilgan moliyaviy tahlilning maxsus avtomatlashtirilgan tizimi orqali hisoblab topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmuada ma'lum qilinishicha keyingi yillarda tijorat banklari faoliyatining kengayib borishi o'z navbatida ular tomonidan berilayotgan kreditlar, banklardagi depozitlar va umumiy kapital hajmiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (9-jadval)<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua - Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010 yil, 59-60 betlar.

## O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlari, depozitlari va umumiy kapitali, mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009
Kreditlar	3876,0	4104,2	4777,6	6374,4	8558,2
Depozitlar	1688,7	2544,5	3829,2	5771,6	8703,1
Shu jumladan:					
- yuridik shaxslar depozitlari	1239,2	1866,2	2834,6	4127,6	5953,2
- jismoniy shaxslar depozitlari	449,5	678,3	994,6	1644,0	2749,9
Umumiy kapital	930,9	1070,1	1502,6	2104,3	3010,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2005-2009 yillar mobaynida tijorat banklari kreditlari hajmi 2,2 marta, depozitlari hajmi 5,2 marta, umumiy kapitali 3,2 marta oshgan.

Umuman olganda tijorat banklarining jalb qilingan mablag'larini ikki turkumga ajratish mumkin:

- turli hisob varaqlardagi mablag'larni o'z ichiga oluvchi depozitlar hamda depozit sertifikatlar;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, boshqa banklar va kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar ko'rinishidagi hamda qarz majburiyatlari ko'rinishidagi qarzlarni.

Birinchi holda bank taklif etayotgan turli depozitlarga vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini joylashtirishda bank mijozlari tashabbus ko'rsatsalar, ikkinchi holda esa pul mablag'larini jalb etishda banklar tashabbus ko'rsatadilar.

Bank o'z mablag'larining bir qismi odatda bank tashkil etilayotganda asosiy vositalarga va nomoddiy aktivlarga sarflanadi. Ya'ni, bank o'z faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan imorat, kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlar va boshqa kerakli jihozlarga sarflaydi. Bank aksiyalaridan kelib tushgan mablag'lar hajmi vaqt o'tishi bilan ishlab topilgan taqsimlanmagan foyda, zahira va qo'shimcha kapital hisobidan oshib boradi.

Tijorat banklarining faoliyati asosan jalb qilingan mablag'lardan o'zlarining ma'lum tijorat maqsadlarida samarali foydalanishdan iboratdir. Banklarning jalb qilingan mablag'lari xususiyatlariga ko'ra quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Huquqiy mavqeiga ko'ra:

- yuridik shaxslardan;
- jismoniy shaxslardan.

2. Jalb etish ob'ektlariga ko'ra:

- bank omonatlari;
- bank depozit sertifikatlari;
- banklararo qarzlarni;
- boshqa tashkilotlardan olingan qarzlarni;
- bank veksellari.

Banklar uchun yuridik shaxslardan ko'ra jismoniy shaxslardan mablag' jalb qilish afzalroqdir. Buning sababi shundan iboratki, jismoniy shaxslar son jihatidan ko'p, ularning mablag'lari yuridik shaxslar mablag'lari oldida ancha kam bo'lsa ham

jismoniy shaxslardan jalb qilingan mablag'lar ancha ishonchlidir. Ular o'z mablag'larini odatda kam ishlatishadi va uzoq muddatga omonatga qo'yishadi. Yuridik shaxslarni mablag'lar aylanmasi katta va tez bo'ladi. Shuning uchun ham odatda banklar aholidan jalb qilinadigan mablag'larga yuridik shaxslarga qaraganda kattaroq foiz belgilaydilar. yuridik shaxslar bilan ishlaydigan banklarni korporativ biznes banklar deb ham atashadi. Jismoniy shaxslar bilan ishlaydigan banklar esa chakana biznes banklar deb ham yuritiladi. Banklarning jalb qiladigan mablag'lari ob'ekti turlicha bo'lishi mumkin. Jalb qilingan mablag'larning eng ko'p tarqalgan turi bank omonatlaridir.

**Bank omonatlari** o'z mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- talab qilib olinguncha bo'lgan omonatlar;
- muddatli omonatlar;
- jamg'armali omonatlar.

**Talab qilib olinguncha bo'lgan omonatlar.** Bunda omonatchi o'z mablag'ini qaytarib olish muddatini ko'rsatmasdan bankka topshiradi. Omonatchi istalgan vaqtda omonatini qaytarib olishi mumkin. Bunday turdagi omonat uchun bank ma'lum miqdorda zahira shakllantiradi, sababi omonatchi o'z mablag'ini istalgan vaqtda, kutilmagan holda qaytarib olishi mumkin. Bunday turdagi omonatlar odatda joriy hisob varag'i sifatida ochiladi va ishlatiladi. Talab qilib olinguncha bo'lgan omonatlarga boshqa omonatlarga qaraganda foiz kam hisoblanadi.


**Muddatli omonatlar** bu mijoz tomonidan bankka belgilangan ma'lum bir muddatga qo'yiladigan omonat turidir. Banklar bunday omonatlar bo'yicha omonat egalariga foiz to'laydilar. Ushbu omonatlar bo'yicha foiz stavkalari omonatning miqdori, muddati va bankning moliyaviy holatiga bog'liq ravishda hisoblanadi. Tijorat banklari uchun muddatli omonatlar eng qulay omonatlar bo'lib, ularning muddati kelguncha banklar bu mablag'lardan mijozlarga kredit ajratish uchun foydalanishlari mumkin.

**Jamg'armali omonatlar.** Bunda omonatchi o'z mablag'larini bankda jamg'arib boradi. Bu turdagi omonatga misol uchun bola 18 yoshga to'lguncha ochiladigan omonatlarni kiritishimiz mumkin va hokazolar.

Bankning omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini aniqlashda foiz stavkasi va pulning qadrsizlanishiga olib keluvchi inflyatsiya darajasining nisbati muhim omil hisoblanadi. Agar inflyatsiyaning o'sishi bank omonatlari bo'yicha belgilanadigan foiz stavkalari asosida hisoblanadigan daromadlarning o'sishidan yuqori bo'lsa, u holda omonatchilar o'zlarining vaqtincha bo'sh pul mablag'lari uchun investitsiyaning boshqa daromadliroq manbasini tanlashlari lozim. Hozirgi sharoitda inflyatsiyaning o'sish indikatori bo'lib AQSh dollarining milliy valyutaga bo'lgan nisbati hisoblanadi. Umumiy holda esa miqdoriy baholashda inflyatsiya darajasi va indeksidan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-

uslubiy majmuada keltirilishicha faqat o'tgan yilning o'zida aholi omonatlari miqdori 1,7 barobar oshgan (2-rasm)<sup>1</sup>.



2-rasm

Rasmdan ko'rinadiki, 2003-2010 yillar mobaynida aholi daromadlari hajmi 16 barobardan ko'proq oshgan.

**Bankning depozit sertifikatlari.** Depozit sertifikati bankning mijoz tomonidan pul qo'yilganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz bo'lib, u belgilangan muddat o'tgandan so'ng egasiga qo'yilma summasi va kelishilgan foiz to'lovini olish huquqini beradi. O'zbekiston banklarining depozit sertifikatlari egalari tomonidan daromad olish usullariga ko'ra ikki turga bo'linadi: foizli va diskontli depozit sertifikatlari. Foizli depozit sertifikatlar bo'yicha foizlar xuddi oddiy foizlarni hisoblash kabi hisoblanadi.

**Banklararo qarzlilar.** Tijorat banklari likvidlik darajasini ushlab turishlari uchun banklararo pul bozoridan qo'shimcha mablag'lar jalb etishadi. Ushbu mablag'lar bo'yicha foizlar mablag'ning hajmi va olish muddatiga ko'ra turlicha bo'ladi. Banklararo pul bozoridan jalb etiladigan mablag'larning narxi O'zbekiston banklari Assotsiatsiyasining Banklararo Maslahat Xizmati tomonidan tashkil etilgan elektron birja savdolarida aniqlanadi. Elektron birja savdolarida belgilangan foizlar bozordagi o'rtacha foiz stavkasini o'zida aks ettiradi va banklar tomonidan tavsiya sifatida qabul qilinadi.

**Boshqa tashkilotlardan olingan qarzlilar.** Tijorat banklari bank bo'lmagan boshqa Yuridik shaxslardan ham pul mablag'larini qarz sifatida jalb qilishlari mumkin. Ushbu mablag'lar ma'lum bir muddatga, belgilangan shartlar asosida qabul qilinadi.

**Bank veksellari** bankning o'z zimmasiga olgan moliyaviy majburiyatlarining bir turi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining

<sup>1</sup> Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua - Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010 yil, 60-61 betlar.

amaldagi qonunchiligiga asosan veksel bu - veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lash yuzasidan qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida veksel muomalalarini amalga oshirish to'xtatilgan.

Jalb qilingan mablag'lardan foydalanganlik uchun bank mablag' egalariga bank uchun foizli xarajat hisoblanadigan foiz ko'rinishidagi to'lovlarni to'laydi. Bankning ushbu xarajatlari «Foyda va zararlar to'g'risidagi» hisobotning tegishli moddalarida aks ettiriladi. Bankning jalb qilingan mablag'lardan foydalanish orqali oladigan daromadlari va foizli xarajatlari o'rtasidagi farq bankning sof foizli daromadini tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkichni korxonalarining asosiy faoliyatidan oladigan daromadiga qiyoslash mumkin. Bu erda shuni ham hisobga olish lozimki, asosiy operatsiyalarda bankning o'z mablag'lari ham ishtirok etishi mumkin va bu mablag'lar ishlatilganda foizli xarajatlari bo'lmaydi, boshqacha aytganda ushbu mablag'lar bank uchun tekin hisoblanadi.

**Olingan foizlar** deganda mablag'larni turli shakllarda qarzga berish (depozit hisobvaraqlarini ochish, kreditlar berish, obligatsiyalarni xarid qilish va boshqalar)dan olingan daromadlar nazarda tutiladi. Olingan foizlar summasi berilgan qarz summasi, uni to'lashning muddati va foiz hisoblashning intensivligini ifodalovchi foiz stavkasiga bog'liqdir. Foizlar hisoblab chiqilishi bo'yicha to'lanishi yoki asosiy qarzning summasiga qo'shib borilishi mumkin. Hisoblab chiqilgan foiz hisobiga asosiy qarz summasining ko'payishi **dastlabki summaning o'sishi** deb ataladi.

Shu o'rinda quyidagi ma'lumotlarga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:

“Keyingi yillarda banklarning kredit portfeli tarkibi tubdan o'zgarib bormoqda. Agar 2000 yilda kredit portfelining qariyb 54 foizi tashqi qarzlar evaziga shakllangan bo'lsa, 2009 yilda banklarimiz jami kredit portfelining 84 foizi ichki manbalar hisobidan shakllantirilgan.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma'lum sanaga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

Bugungi sharoitda esa bunday ijobiy o'zgarish iqtisodiyotimizning istiqboldagi taraqqiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Aytish kerakki, tashqi qarzlar aksariyat hollarda uzoq muddatga, faqat iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha investitsiya loyihalarini moliyalash uchun jalb qilinmoqda.

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasida e'tiborli jihatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 10 noyabrdagi 4051-sonli «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik

tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 18 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 200 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrokreditlar bo'yicha maksimal stavkani yillik 5 foizdan 3 foizga;

- kichik biznes sub'ektlari faoliyatini kengaytirish va aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 24 oygacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 500 barobari miqdoridagi mikrokreditlar bo'yicha – Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkasining 100 foizidan 50 foiziga;

- kichik biznes sub'ektlari uchun 3 yilgacha muddatga beriladigan eng kam ish haqining 2000 barobari miqdoridagi imtiyozli mikrolizing xizmatlari bo'yicha maksimal stavkani yillik 7 foizdan 5 foizga tushirildi.

Kreditlashda bunday ahamiyatli imtiyozlarning belgilanishi mazkur soha vakillari tomonidan kreditga bo'lgan talabning va ayni paytda ularga berilayotgan kredit hajmining yildan-yilga oshib borishiga olib kelmoqda (10-jadval).


*10-jadval*

**O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlarning dinamikasi, mlrd. so'm**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2005</b>	<b>2006</b>	<b>2007</b>	<b>2008</b>	<b>2009</b>
Banklar tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar-jami	419,9	547,4	743,7	1250,7	1851,7
Shu jumladan:					
Kichik biznes sub'ektlariga banklar tomonidan berilgan mikrokreditlar	45,4	64,9	110,0	202,5	322,1

Jadvaldan ko'rinadiki, 2005-2009 yillar davomida tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga berilgan jami kreditlar miqdori 4,4 barobar, mikrokreditlar miqdori esa 7,1 barobar oshgan.

Shu o'rinda tijorat banklari kreditlari to'g'risida so'z borganda ularning maqsad yo'nalishlari jihatidan tarkibi ham takomillashib borayotganligini ta'kidlash lozim (3-rasm).



3-rasm

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Banklarning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi qariyb 70 foizni tashkil etdi, iqtisodiyotimizning real sektoriga yq'naltirilgan kreditlarining umumiy hajmi esa 2009 yilda 2000 yilga nisbatan 14 barobar oshdi.

So'nggi o'n yilda iqtisodiyotning real sektorlarini kreditlashga yo'naltirilgan ichki manbalar 25 barobardan ziyodroq ko'paydi. -rasmdan ko'rinadiki, 2009 yilda jami bank kreditlari tarkibida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 78,3 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizdagi bank-moliya sohasining tobora mustahkamlanib borishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar moliyaviy ta'minotining kuchayishiga, iqtisodiyot real sektorining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishiga hamda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining ta'minlanishiga zamin yaratmoqda<sup>1</sup>.

Dunyoning turli mamlakatlari bank amaliyotida foizlarni hisoblab chiqishda oydagi va yildagi kunlarning hisoblangan soni turlicha aniqlanadi. Germaniya bank amaliyotida kunlar sonini hisoblashda yilning uzunligi 360 kunga va oyning uzunligi esa 30 kunga teng, deb olingan. Fransiya bank

<sup>1</sup> Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua - Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010 yil, 61-63 betlar.

amaliyotida yilning uzunligi 360 kunga teng, oydagi kunlarning soni esa ularning haqiqiy kalendar muddatiga (28 yoki 29, 30 yoki 31 kun) teng, deb qabul qilingan. Angliya bank amaliyotida yilning uzunligi 365 kunga teng va oylarning kalendar bo'yicha tegishli aniq uzunligi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida foizlarni hisoblashda yilning uzunligi 365 kunga teng va oylarning kalendar bo'yicha tegishli aniq uzunligi qabul qilingan.

**Tayanch iboralar:** bank mablag'lari, mablag'larning tuzilishi, tashkil topish manbalari, o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar, jismoniy shaxslar, Yuridik shaxslar, bank omonatlari, bank depozitlari, olingan kreditlar, qarz mablag'lari, bank daromadlarining tarkibi, foizli daromadlar, qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari, boshqa daromadlar, berilgan ssudalar, lizinglar, bank aktivlari, daromad keltiradigan aktivlar, daromad keltirmaydigan aktivlar, jami aktivlar, o'rtacha yillik daromadlilik, ustav kapitali, zaxira kapitali, tashkil qilingan fondlar, taqsimlanmagan foyda, yirik banklar, o'rta banklar, kichik banklar, bank operatsiyalari, moliya bozori, bank amaliyot kuni, depozit sertifikatlar, banklararo qarzlar, bank veksellari, talab qilib olinguncha bo'lgan omonatlar, muddatli omonatlar, jamg'armali omonatlar, olingan foizlar, dastlabki summaning o'sishi.

### Nazorat uchun savollar

1. Bank mablag'larining tuzilishi va tashkil topish manbalari.
2. Bankning o'z mablag'lari tarkibi.
3. Bankning jalb qilingan mablag'lari tarkibi.
4. Bank daromadlarining tarkibini aniqlash.
5. Foizli daromadlar tarkibini aniqlash.
6. Banklarning moliyaviy operatsiyalardan olingan daromadlarini aniqlash.
7. Bank aktivlarining asosiy moddalari.
8. Bankning daromad keltiradigan aktivlari.
9. Bankning daromad keltirmaydigan aktivlari.
10. Bank o'z mablag'lari holatining tahlili.
11. Tijorat banklarini ustav kapitalining hajmiga ko'ra guruhlanishi.
12. Tijorat banklarining jalb qilingan mablag'larini turkumlanishi.
13. Jalb qilingan mablag'larning huquqiy mavqeiga ko'ra turlari.
14. Jalb qilingan mablag'larning jalb etish ob'ektiga ko'ra turlari.
15. Bank omonatlarining turlari.
16. Bankning depozit sertifikatlari.
17. Banklararo qarzlar deganda nimani tushunasiz?
18. Boshqa tashkilotlardan olingan qarzlarni tushuntiring.



19. Bank vekseli deganda nimani tushunasiz?
20. Olingan foizlar deganda nimani tushunasiz?

## **IV Bob. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA OPERATSIYALARI TAHLILI**

### **4.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi roli va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasida banklar faoliyati, jumladan ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi hamda 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunlariga muvofiq tashkil etiladi va tartibga solinadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, bank - bu tijorat tashkiloti bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni qabul qilish, olingan mablag'lardan o'z xatari ostida kreditlash yoki investitsiyalash, shuningdek to'lovlarni amalga oshirish uchun foydalanadigan yuridik shaxsdir. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan, ya'ni 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi va 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonunlarga asosan mamlakatimiz hududida tijorat banklari turli mulkchilik shaklida ya'ni davlat, aktsiyadorlik-tijorat, xususiy hamda xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil etilishi mumkin.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish davrida tijorat banklari boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat ko'rsatish uchun eng qulay shart-sharoitlarga ega bo'ldi va hozir ham ana shunday imkoniyatlarga egadir. Ushbu shart-sharoitlar quyidalardan iborat:

- birinchidan, tijorat banklarida fond bozorining mohiyati to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar faoliyat ko'rsatadi;

- ikkinchidan, tijorat banklari to'g'risidagi amal qilayotgan qonunchilikning o'zi tijorat banki faoliyatini aktsiyadorlik jamiyati, ya'ni muomalaga turli qimmatli qog'ozlarni va eng avvalo aktsiyalarni chiqarib turuvchi emitent sifatida tartibga solib turadi. Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda birinchi yirik emitentlar bo'lib aynan shu aktsiyadorlik tijorat banklari hisoblanadi;

- uchinchidan odatda boshqa sub'ektlar bilan taqqoslab ko'rilganda, tijorat banklari katta miqdorda o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larni to'plaganlar, ular o'z navbatida mamlakatimizning fond bozorida yirik sarmoyador (investor) sifatida qatnashish uchun kerakli darajada shart-sharoitlar yaratadi;

- to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi olib boradigan faoliyatini biron-bir tarzda (masalan AQSh dagi Glas-Stigal qonuniga asosan) cheklamagan va ayni vaqtda tijorat banklari o'z mijozlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida eng kerakli ma'lumotlarga egadirlar, bu esa ularga bunday ma'lumotlarni olishga huquqi cheklangan odatdagi sarmoyadorlarga qaraganda katta imtiyozlar beradi.

Tijorat banklarining mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida tutgan alohida mavqei shundan iboratki, ular boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan farqli ravishda, ushbu bozorning malakali ishtirokchisi sifatida bir vaqtning o'zida bir necha xildagi vazifalarni bajarishi mumkin. Bu vazifalar quyidagilardan iborat:

- qimmatli qog'ozlarning aktsiyalar, depozit sertifikatlari va bank veksellari kabi turlarini muomalaga chiqaruvchi emitentlar sifatida;

- o'z mijozlariga qimmatli qog'ozlar bozoriga doir maslahatlar, ular uchun reestr yurituvchi va depozitar operatsiyalarni bajaruvchi sifatida;

- iqtisodiyotning boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va davlatning qimmatli qog'ozlarini sotib oluvchi sarmoyadorlar sifatida;

- o'z mijozlariga qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilish uchun ularga berilgan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larini boshqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan investitsiya instituti sifatida qatnashishi mumkin.

Bir vaqtning o'zida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorining umumiy infratuzilmasining tarkibiy qismidir va ushbu vazifada ularning roli nihoyatda katta, chunki amaliyotda qimmatli qog'ozlar bozorining har bir ishtirokchisi tijorat bankining xizmatisiz ish olib bora olmaydi, chunki tijorat banki ularning joriy hisob-kitob raqami va boshqa hisob raqamlarini ochadi, ularda pul mablag'larini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq mablag'larni saqlaydi.

Dunyoning turli mamlakatlarida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida tutgan o'rni va ahamiyati turlichadir. Masalan, AQShda tijorat banklarining mamlakat qimmatli qog'ozlar bozorida bevosita operatsiyalarni amalga oshirishi hamda fond birjalariga rasman a'zo bo'lishi qonunan ta'qiqlangan. 1933 yilda qabul qilingan «Glas-Stigal» Qonuniga muvofiq tijorat banklari sanoat va savdo kompaniyalarining aktsiyalari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etishida ishtirok eta olmaydi. Tijorat banklari o'z mablag'larini sanoat va savdo kompaniyalarining aktsiyalariga investitsiya qilishi man etilgan bo'lib, qarz oluvchi - mijozning to'lovga noqobilligi bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarning oldini olish maqsadida sarf qilinadigan investitsiyalar bundan mustasnodir, ammo ushbu ta'qiq tijorat banklari tomonidan katta hajmdagi trast operatsiyalarini bajarish (qimmatli qog'ozlarni mijozlarning topshiriqlari bo'yicha boshqarish) bilan qoplanadi, mazkur amerikacha o'ziga xoslik tijorat banklarini sanoat kompaniyalari aktsiyalariga amalga egalik qilishni ko'zda tutadi. Amaldagi qonun tijorat banklariga davlat qimmatli qog'ozlari, mahalliy obligatsiyalarni muomalaga chiqarish, turli milliy va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan qarz majburiyatlarini tashkil etish, shuningdek mijozlar hisobidan va ularning topshirig'iga asosan fond bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib olish hamda sotish bo'yicha ayrim vositachilik vazifalarini bajarish uchun ruxsat beradi.

Dunyoning bir qator rivojlangan davlatlari (Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Yaponiya va boshqalar)ning qonunchiligida esa so'nggi vaqtlargacha tijorat banklariga fond birjalari faoliyatida bevosita qatnashish man etilgan edi. Lekin hozirgi vaqtda ushbu davlatlarning qonunchiligida tijorat banklarining fond birjalarida bevosita ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish bo'yicha jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Germaniyada esa buning aksi, bu mamlakatda fond bozorlarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarda tijorat banklarining bevosita faol qatnashishiga hamda qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq barcha turdagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun faqat tijorat banklariga ruxsat berilgan. Germaniyada qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya institutlari tomonidan amalga oshiriladigan barcha faoliyatni tijorat banklari olib boradi. U erda boshqa mamlakatlardagi kabi sof ko'rinishdagi brokerlik faoliyati bilan shug'ullanadigan investitsiya institutlari mavjud emas, chunki tijorat banklari muomalaga eng ko'p miqdorda turli obligatsiyalar chiqaradi, ular eng yirik sarmoyadorlar hisoblanadi va bundan tashqari fond bozorida davlat qimmatli qog'ozlarining anderrayterlari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklari, shuningdek o'z mijozlarining hisobidan va ularning topshirig'iga asosan hamda o'z hisobidan va o'z nomidan bitimlarni amalga oshirar ekan ular fond bozorida vositachilik operatsiyalarini ham bajaradi. Germaniyada asosan tijorat banklari fond birjalari a'zolarining umumiy tarkibini shakllantiradi.

Ko'plab tijorat banklari o'zlarining maxsus tadqiqot bo'linmalariga ega bo'lib, ular o'z mijozlarining topshirig'iga asosan qimmatli qog'ozlar bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qiladi, birja va birjadan tashqari bozorlar kon'Yukturasini o'rganib chiqadi. Bunda siyosiy, iqtisodiy huquqiy va boshqa ma'lumotlardan keng miqyosda foydalaniladi. Ushbu tadqiqotlar asosida fond bozorida investitsiya bo'yicha strategik va taktik maslahatlarga ehtiyoji mavjud bo'lgan ko'plab mijozlarga konsalting operatsiyalari amalga oshiriladi va shu asosda ulardan ma'lum daromadlar olinadi. Mijozlarning fond bozorida qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishi bo'yicha tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ularga katta daromad keltiradi. Mijozlarning topshirig'iga asosan ularning pul mablag'lari xavfli yoki nisbatan ishonchli yuqori daromad keltiruvchi qimmatli qog'ozlarga joylashtiriladi. Bunda tijorat banklari o'zaro kuchli raqobatni o'z boshlaridan kechirishlariga to'g'ri keladi. Chunki mijozlar bir vaqtning o'zida bir necha tijorat banklariga bunday operatsiyalarni bajarishni topshirish, keyinchalik esa, mablag'lari eng ko'p daromad beradigan bitta tijorat bankini tanlab olishlari mumkin. Fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish vaqtida ularni saqlash va ularga bo'lgan huquq hisobini yuritish maqsadida tijorat banklari o'z tarkibida maxsus depozitariyni tashkil etadi. Ushbu depozitariylar bevosita tijorat banklarida (odatda, erosti xonalarida, mijozlarning boyliklari saqlanadigan maxsus seyflar turadigan omborlarda) joylashtiriladi. Tijorat banklarining depozitariylari qimmatli qog'ozlarni naqd va naqd bo'lmagan shakllarda, kompyuter tizimlarida elektron shakldagi yozuvlar vositasida saqlaydi. Tijorat banklari, shuningdek qimmatli qog'ozlar uchun hisoblashishlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan investitsiya institutlari vazifasini bajarishi ham mumkin. Tijorat banklari tomonidan investitsiya muassasalarining ta'sis etilishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular orqali qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida bir necha faoliyat amalga oshiriladi.

Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlaridagi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida ma'lum cheklovlar mavjud. Masalan Rossiya Federatsiyasida tijorat banklari xususiylashtirilayotgan korxonalarining aktsiyalarini sotib oluvchi sifatida qatnashish xuquqiga ega emas, aktsiyadorlik jamiyatlari muomalaga

chiqargan aktsiyalarida o'z sof aktivlarining 5 foizidan ortig'ini sarmoya qila olmaydi. O'z mulkida biron-bir aktsiyadorlik jamiyati aktsiyalarining 10 foizidan ortiq qismiga ega bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida fond bozorining shakllana borishi bilan bu fond bozorining «Evropacha» aralash modeli mavjud bo'lib, bunda tijorat banklari ham boshqa nobank tashkilotlar ham (investitsiya muassasalari) teng xuquqlarda faoliyat ko'rsatishi qonuniy belgilab qo'yilgan. Tijorat banklari amalda investitsiya institutlarining ma'lum vazifalarini bajarishi mumkin, ammo ular ham boshqa investitsiya institutlari kabi, qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatning har bir turini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaga ega bo'lishi shart. Mamlakatimizda ushbu faoliyatni litsenziyalash qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solib turish uchun mas'ul bo'lgan davlatning vakolatli organi O'zbekiston Respublikasi Davlat Mulki Qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi markaz tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekistonda tijorat banklari amaldagi qonunchilikka asosan fond bozorida qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarning ma'lum turlari bilan mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatish xuquqiga ega bo'lishiga qaramasdan, ular buni o'zlarining shu'balari, ya'ni bu faoliyatni olib borishga ixtisoslashtirilgan maxsus ta'xis etilgan investitsiya institutlari orqali amalga oshirmoqdalar.

Tijorat banklari o'z aktsiyalarini muomalaga asosan aktsiyadorlik jamiyati sifatida chiqaradilar. Qonunchilikka asosan tijorat banklari muomalaga qimmatli qog'ozlarning boshqa turlari obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va veksellarni chiqarishi bilan ular mamlakatimizdagi pul aylanmasini jadallashgiradi hamda Yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etib, keyinchalik ularni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga investitsiya qiladilar. Bundan tashqari, tijorat banklari veksel muomalasiga xizmat ko'rsatib, mamlakatda xo'jalik sub'ektlarining o'zaro xisoblashishlarini tezlashtirish va shu asosda to'lov intizomini mustahkamlash hamda o'zaro debetorlik va kreditorlik qarzdorliklarini kamaytirishi mumkin.

Tijorat banklari o'z faoliyatida turli toifadagi sarmoyadorlar uchun keng miqyosda maslahat berish xizmatlarini ko'rsatish, mijozlarning investitsion siyosatini shakllantirish, loyihaviy moliyalashtirishni tashkil etishdan boshlab, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish va dividendlarni olishgacha bo'lgan yordamni ko'rsatishi mumkin. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida turli kreditorlar va sug'urtachilar, depozitar va kliring hisob-kitob markazlarining tashkilotchilari sifatida ishtirok etishlari mumkin. Xususan, tijorat banklari qarz oluvchilarga qisqa muddatli kreditlar berish, ularning ta'minlanganlik garovi sifatida qimmatli qog'ozlarni qabul qilishlari mumkin. So'nggi yillarda mamlakatimizda yirik aktsiyadorlik jamiyatlarining muomalaga chiqargan aktsiyalarini boshqarish uchun kerakli hujjatlar olish, investitsiya va xususiylashtirish jamg'armalari bilan ishlash kabi investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlari tijorat banklarning diqqat markazida turgan ob'ektlar bo'lib qoldi. Masalan, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining joylardagi bo'linmalari orqali xususiylashtirish investitsiya fondlarining aktsiyalarini sotish amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat

banklarining milliy fond bozorida ishtirok etishining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bank faoliyatining asosiy turlarini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etish, ya'ni o'z passivlarini shakllantirish;

- turli qimmatli qog'ozlarga o'z mablag'larini investitsiyalashdan tushadigan daromadni olish, aktiv operatsiyalarni amalga oshirish;

- fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlardan daromad olish, ya'ni brokerlik va depozitariy xizmatini ko'rsatish;

- fond bozorida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish asosida o'z nufuzini oshirish va yangi mijozlarni o'zlariga jalb qilish;

- emitent muomalaga chiqargan aktsiyalarning nazorat paketini sotib olish yo'li bilan turli tijorat banklari va boshqa aktsiyadorlik jamiyatlarining faoliyatini olib borishni boshqarish va nazorat etish xuquqini olish;

- fond bozorida mijozlar, raqobatchilar, bozor kon'yukturasi (qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklifniig holati), narxlar kotirovkasi to'g'risida to'liq, haqqoniy va tezkor ma'lumotlar olish.

O'zining ulkan moliyaviy salohiyati, shu jumladan iqtisodiyoni rivojlantirishning hozirgi bosqichida qimmatli qog'ozlar bozorida u yoki bu tarzda ishtirok etmasdan, bevosita bank vazifalarini bajarish imkoniyati bo'lmaganligidan foydalanib, tijorat banklari fond bozorida, uning bevosita malakali shntirokchisi sifatida hamda umuman qimmatli qog'ozlar bilan savdoni rivojlantirish uchun etarli qulay shart-sharoitlarni shakllantiradigan bozor umumiy infratuzilmasining muhim yordamchi muassasasi sifatida tobora ko'proq muhim o'rinni egallab bormoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda tijorat banklari o'zlarining mamlakatimiz fond bozorida olib borayotgan faoliyatini ancha faollashtirdi. Tijorat banklari fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida maxsus ixtisoslashtirilgan turli shu'ba kompaniyalarini tuzdilar, o'z tarkibida milliy fond bozorini tadqiq etuvchi va unda amaliy ish olib boruvchi maxsus bo'linmalarni shakllantirdilar, ularni maxsus shahodatnomaga ega malakali xodimlar bilan to'ldirdilar xamda ular turli xil sindikatlar va xolding kompaniyalarida ishtirok etib kelmoqdalar. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarini kengaytirishga bo'lgan intilishi har xil sabablarga bog'liq bo'lib, ularning tarkibida bevosita bank kreditlaridan foydalanish sohasining nisbatan qisqarib borayotganligi, qimmatli qog'ozlar bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalardan olinadigan daromadlarning ortib borayotganligi hamda davlat qisqa muddatli obligatsiyalaridan keladigan daromadning soliqlardan ozod etilganligi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilayotgan operatsiyalarining keng miqyosda diversifikatsiyasi axborotlarning tez uzatilishi, ularning qayta ishlanishi, fond bozorida iqtisodiy vaziyat va uning istiqboli tahlil qilinishini ta'minlaydigan axborotlashtirish hamda telekommunikatsiyaning zamonaviy texnika vositalarini joriy etish asosida amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faqatgina o'ziga xos noyob

muassasalar hisoblanib, hozirda ular amaliyotda milliy fond bozorining barcha vositalarini: aktsiyalar, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, davlat o'rta muddatli xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, depozit jamg'arma sertifikatlari bilan faoliyat olib borishni o'zlashtirib olib, hozirgi vaqtda ular qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida ham emitent, ham sarmoyadorlar va investitsiya institutlari sifatida chiqmoqdalar. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, bundan keyin ham mamlakatimizning milliy fond bozori yanada rivojlanishi bilan tijorat banklarining bu sohadagi faoliyati tobora kuchayib boraveradi. Shuni ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining mamlakat milliy fond bozorining shakllantirilishida ortib borayotgan e'tibori, milliy iqtisodiyotning investitsiyalarga bo'lgan hamda tobora o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqdir, chunki ularsiz ijtimoiy ishlab chiqarishni chuqur qayta qurish, mamlakatning eksport salohiyatini o'stirish va aholining turmush darajasini oshirish mumkin emas.

Mamlakatimizda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari faollashuvining muhim omili - ularning ustav va aylanma fondlariga o'z qimmatli qog'ozlari emissiyasi asosida qo'shimcha mablag'larni jalb etishga ehtiyojning yanada kuchayib borayotganligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy fond bozorida tijorat banklari faoliyatining faollashuviga sabab bo'lgan eng muhim omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilik tijorat banklariga fond bozorida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq har qanday turdagi operatsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etishiga qonuniy yo'l qo'yiladi;

- tijorat banklarining nisbatan barqaror moliyaviy holati va bank operatsiyalarining yuqori daromadliligi ularga ko'rsatiladigan bank xizmatlarining yangi turlarini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning amalga oshiriladigan ko'p turlarini o'zlashtirishga katta moliyaviy mablag'larni ajratish uchun etarlicha imkoniyat yaratib beradi;

- tijorat banklarida mavjud bo'lgan hozirgi zamon darajasidagi texnikaviy, axborot va xodimlarning salohiyati, shu'ba banklarining juda keng tarmog'i va mijozlar ma'lumotlarining bazasi ularni qimmatli qog'ozlar bozorining eng yuqori qobiliyatli qatnashchilariga aylantirgan;

- tijorat banklari bilan boshqa moliyaviy-iqtisodiy muassasalar o'rtasidagi kuchayib borayotgan o'zaro raqobat, amaliyotdagi ko'pgina an'anaviy bank xizmatlari hisoblanadigan (kreditlash, valyuta, moliyaviy va agentlik operatsiyalari) xizmatlarini ko'rsatishdan keladigan foydaning kamayib ketishi, tijorat banklari o'z faoliyatining asosiy diqqat markazini milliy qimmatli qog'ozlar bozori sohasiga qaratishiga majbur qilmoqda.

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillarning mavjudligi mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyat ko'lamini yanada kengaytirish va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotining ushbu ustuvor sohasidagi faoliyatini yanada faollashtirish uchun katta imoniyatlar ochib beradi.

## 4.2. Qimmatli qog'ozlar fundamental tahlilining mohiyati

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko'pgina davlatlarda qimmatli qog'ozlar bozorini tahlil qilish mustaqil ilmiy fan hisoblanadi. Fond instrumentlarining investitsion jozibadorligini baholashda ikki yo'nalishdan foydalanish mumkin:

- birinchidan, qimmatli qog'ozlar bozorining kon'yunkturasi nuqtai nazaridan, ya'ni qimmatli qog'ozlarning bahosini o'rganish orqali ish olib borish;

- ikkinchidan, har bir qimmatli qog'ozga investitsion tasnif berishlik, ya'ni emitentning moliyaviy-iqtisodiy holatini o'rganish, u qaysi tarmoqqa tegishli ekanligini, uni hozirgi bozor sharoitida faolligini o'rganish orqali baholash mumkin.

Ushbu tahlil bo'yicha turlicha yondashuvni qo'llaydigan, ya'ni birinchi yo'nalish texnik tahlil maktabi va ikkinchi yo'nalish esa fundamental tahlil maktabi hisoblanadi. Fundamental tahlil maktabining tarafdorlari o'z tadqiqotlarini qimmatli qog'ozlar bozorining emitentlari tomonidan olib boriladigan buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotlarni sinchiklab o'rganishga asoslangan holda olib boradilar. Tijorat bank ish faoliyatining daromad, aktivlar, passivlar, rentabellik, menejment kabi ko'rsatkichlarini, shuningdek, mazkur bank qaror topishga intilayotgan bozorlarning holatini bir vaqtning o'zida batafsil o'rganish asosida bank aktsiyalarining narxi ularning ichki yoki haqiqiy qiymatiga solishtirilganda oshirib yoki pasaytirib yuborilganligi haqida umumiy xulosa chiqariladi. Fundamental tahlil davomida bankning boshqaruv amaliyoti, boshqaruv organining tarkibi ham chuqur o'rganib chiqiladi. Bunday tahlil qilishdan maqsad bozorda qiymati etarli darajada baholanmagan qimmatli qog'ozlarni aniqlashdir. Ushbu xulosalar asosida sarmoyadorlar u yoki bu qimmatli qog'ozlarni sotib olish, sotish yoki vaqtincha ushlab turish haqida qaror qabul qilishlari mumkin.

Fundamental tahlil maktabining natijalari fond bozorida tovarga aylanadi. Izlanish natijalari turli byulletenlar shaklida chop etilib, ular qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga sotiladi. Fundamental tahlilning asosiy yo'nalishlarini tavsiflasak, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Umumiqtisodiy yoki makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning holati quyidagi omillarni hisobga olgan holda baholanadi: yalpi milliy mahsulot, bandlik, inflyatsiya, kreditlarning foiz stavkasi, valyuta kursi va boshqalar. Bu erda har bir mamlakat hukumati olib borayotgan fiskal va monetar siyosat hamda bu eiyosatni fond bozoriga ta'siri ham tahlil etiladi. Shu asosda ijtimoiy-siyosiy va investitsiya faoliyatidagi iqtisodiy holat aniqlanadi.

2. Industrial tahlil davomida iqtisodiyotdagi faollik jarayoni, uning indikatorlari, tarmoqlarning rivojlanish darajasi bo'yicha turkumlanishi hamda har bir tarmoqning rivojlanish holati sifat jihatdan tahlil etiladi.

3. Aniq olingan sub'ektning tahlili natijasida uning faoliyatini baholash quyidagilarni o'z ichiga oladi: menejmentning holati va uning rivojlanish istiqbolini tahlili, faoliyatda tashkiliy va tijorat ishlari holatining tahlili, sub'ektning moliyaviy ahvolini tahlili, to'lovga layoqatliligi koeffitsientini baholash, moliyaviy barqarorligini baholash va shular asosida uning bahosini aniqlash amalga oshiriladi.

4. Qimmatli qog'ozlarning bahosini modellashtirish uchun bozor iqtisodiyotida makroiqtisodiy tahlil bu talab va taklif qonunlari asosida yashayotgan bozorni

o'rganishdir. Fond bozorida baho eng avvalo qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinayotgan kapitalning yig'indisi va ularga sotish maqsadida taklif etayotgan qimmatli qog'ozlarning miqdoriga bog'liqdir. Chunki ular o'rtasidagi nisbat fond bozorining kon'yunkturasini belgilaydi, yuqori kon'yunktura davrida fond bozoriga yo'naltirilgan pul massasining ortishi kuzatiladi va bu esa qimmatli qog'ozlar kursining ortishiga olib keladi. Tashqi talabning ortishi fond bozorining bir maromda faoliyat ko'rsatishiga va undagi kurslarning oshishiga sabab bo'ladi. Quyi kon'yunktura davrida, talab maqsadida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning hajmi to'lovga qobiliyatli talab hajmidan ortiq bo'lsa, u holda fond bozoridagi kapitalning qaytib oqib chiqishi va qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi kuzatiladi. Xalqaro amaliyotda bunday fond bozori «og'ir bozor» deb ataladi. Shuni ta'kidlash lozimki, pul mablag'larining asosiy qismi fond bozoriga kelib tushmasligi va ular iste'molga sarflanishi mumkin. Fond bozoridagi investitsiyalarning asosiy qismini mamlakat aholisi etkazib beradi. Bu holat aholi daromadining iste'moldan ortiqchiligi bilan izohlanadi. Bandlikning ortishi, ish haqining ko'payishi, soliqlarning miqdori va foizlarining kamayishi fond bozoriga kapital oqimini ko'payishiga olib keladi, lekin ko'p holatlarda mamlakatdagi inflyatsiya darajasining yuqoriligi natijasida aholining barcha mablag'lari iste'molni qondirishga sarflanadi.

Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini aniqlashda tarmoq yoki industrial tahlilning ham ahamiyati katta. Ma'lumki ko'plab aktsiyalarning bahosi asosan bozor jarayoni (eng avvalo bozor kon'yunkturasi) asosida o'zgarib turadi, chunki fond bozorida narxning tushishi ta'sirida eng avvalo moliyaviy holati kuchsiz banklar aktsiyalarining narxi tushib ketadi. Shuni ta'kidlash lozimki, fond bozorida turli vaqtlarda rivojlanish ayrim tarmoqlar yoki bir guruh tarmoqlarda yuz beradi. Masalan, fond bozorida oziq-ovqat sanoati, engil sanoat yoki og'ir sanoat korxonalarining qimmatli qog'ozlari ko'plab sotiladi.

Fundamental tahlilning keyingi bosqichida aniq bir olingan sub'ekt yoki bankning moliyaviy holatini baholash va uning bozorda egallagan mavqei tahlil etiladi. Ushbu tahlilda asosan quyidagi asosiy savollarga javob beriladi:

- tanlagan sub'ekt qanday faoliyat turi bilan shug'ullanadi;
- sub'ektning aktsiyalari qancha miqdorda daromad keltiradi;
- sub'ekt aktsiyalar (oddiy va imtiyozli) bo'yicha qanday miqdorda va qaysi muddatda dividend to'laydi;
- sub'ekt aktsiyalarining joriy bozor narxi qanday, o'tgan davrlarga nisbatan eng yuqori va eng quyi kotirovkalarining o'rtasidagi nisbat qanday holatdaligi o'rganiladi;
- sub'ektning qanday imkoniyatlari mavjud;
- sub'ektning bozordagi hozirgi va kelajakdagi holati qanday;
- sub'ektni kimlar boshqaradi, ya'ni kompaniya rahbariyatining ishonch darajasi (menedjmentning sifati) qanday darajada.

Yuqoridagi savollarning tahlili fundamental tahlil maktabi vakillari qiziqishlarining asosini tashkil etadi. Ushbu maktabning vakillari yuqoridagi savollarni tahlil etgandan so'ng qimmatli qog'ozlarning bahosini tahlil qiladilar. Bu erda imkoniyatlarning hajmi, moliyaviy operatsiyalar, ushbu qimmatli qog'ozlar bozorining tarkibi va shu asosda aktsiyaning daromadlilikligi aniqlanadi. Qimmatli



qog'ozlarning bahosini modellashtirishda bu bozorning tarkibi katta ahamiyatga egadir.

«Tor» bozor - har kuni kam miqdordagi qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi qilinadigan va ular miqdorining o'zgarishi bahoga ta'sir ko'rsatadigan hamda boshqarilib turiladigan bozor. Bu bozor bir necha bitimni amalga oshirish natijasida bahoning tushib ketishi yoki ko'tarilib ketishiga olib keladi.

Qimmatli qog'ozlarning keng bozorida har kuni yirik bitimlar tuziladi va narx-navoning tebranishi bir maromda ushlab turiladi. Qimmatli qog'ozlar bozorining eng asosiy elementi bu qimmatli qog'ozlarning daromadlilik, ya'ni uning tezda foyda keltirishi hisoblanadi. Fundamental tahlil maktabi instrumentlaridan biri koeffitsientlar usulidan foydalanish hisoblanadi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, koeffitsientlar usulidan faqatgina biz ta'kidlab o'tgan bosqichlardan so'ng, ularni to'ldirish uchun foydalaniladi.

Xalqaro amaliyotda fundamental tahlilda asosan quyidagi koeffitsientlardan foydalaniladi:

- PE ZATIO koeffitsienti, bunda aktsiyaning kurs qiymati har bir oddiy aktsiyaga kelgai sof foydaga nisbati bilan aniqlanadi;

- DP ZATIO koeffitsienti, ushbu koeffitsientda oddiy aktsiya bo'yicha hisoblangan dividendni uning kurs qiymatiga nisbati olinadi;

- beta koeffitsient, ushbu koeffitsient qimmatli qog'ozlar bozorida umumiy holatning har bir qimmatli qog'ozga ta'sirini bildiradi. Agarda beta koeffitsienti ijobiy holatda bo'lsa, har bir qimmatli qog'ozning bozordagi samaradorligi ijobiy bo'ladi. Agarda beta koeffitsienti salbiy holatda bo'lsa, qimmatli qog'ozlarning samaradorligi pasayadi;

- R kvadrat ( $R^2$ ). Ushbu koeffitsient aniq bir qimmatli qog'ozda bo'lgan qaltislikning bu qog'ozlarga bo'lgan umumiy qaltislikdagi ulushini ifodalaydi. Agarda  $R^2$  - kvadrat ko'rsatkichi nolga yaqin bo'lsa, u holda bu qimmatli qog'ozning umumiy bozordagi mustaqilligi ortadi.

Yuqorida qayd etilgan moliyaviy koeffitsientlarning natijasi standartlarni aniqlashda katta ahamiyatga egadir. Masalan, PE ZATIO koeffitsientining yuqori darajada bo'lishi, investorlarning kompaniya daromadini ortishiga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham qimmatli qog'ozlarning tahlilchilari sifatida ko'pincha fundamental tahlil elementlaridan foydalaniladi. Uni o'tkazish maqsadi ham juda xilma-xildir. Bu sub'ekt moliyaviy ahvolini yaxshilashga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish, kelgusi davrda aktivlarni boshqarish bo'yicha yangi strategiyani tuzish, u yoki bu emitentlarning aktsiyalari yoki qimmatli qog'ozlariga qo'yilmalarning jalb etilishini aniqlashdan iborat. Bunday tadqiqotlar nafaqat investitsiya maslahatchilari, balki sub'ektlarning iqtisodchilari, hisobchilari, auditorlari va shu kabilar tomonidan olib boriladi. Sub'ektning moliyaviy holatini tahlil qilish jarayonida to'lovga qobiliyatlilik darajasining o'sib borishi, likvidlilik, ishbilarmonlilik va bozordagi faolligi o'rganiladi. Sub'ektlar tomonidan har chorakda va har yili soliq inspeksiyasiga topshiriladigan moliyaviy hisobot hujjatlari tadqiqot o'tkazish uchun olinadigan asosiy materiallar bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bularga buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-

shakl), debetorlik va kreditorlik qarzdorliklari to'g'risidagi ma'lumotnoma (2a-shakl) va unga tushuntirish xati, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl), xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl), statistik hisobot shakllari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2 (yillik) va 1 (choraklik) hisobot shakllari bo'lib, ular qimmatli qog'ozlar bozorining ish faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qiluvchi markazga taqdim etiladi.

### 4.3. Qimmatli qog'ozlar texnik tahlilining mohiyati

Qimmatli qog'ozlarning texnik tahlil maktabi o'z tadqiqotlarini keyinchalik emitent banklar hisobotida beriladigan barcha ma'lumotlarni, birja kurslarini o'zida aks etirilganligi va ular mohiyatiga ko'ra, fundamental tahlil o'g'kazishda o'zining ahamiyatini yo'qotgan ob'ekt bo'lib qolishi nuqtai nazaridan olib boradi. Mazkur maktab tarafdorlari o'rganadigan asosiy ob'ekt qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklifni tahlil etish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozorini shundayligicha, ya'ni unga ta'sir etadigan iqtisodiy, siyosiy va psixologik omillardan ajratilgan holda o'rganishdir. Bunda qimmatli qog'ozlar baholar harakatining maxsus modellari yaratiladi. Shu tarzda muayyan bank qimmatli qog'ozlarining qimmatliligi emas, balki bozordagi umumiy yo'nalishlar belgilanadi, shundan kelib chiqqan holda u yoki bu qarorni qabul qilish tavsiya etiladi. Texnik tahlil tarafdorlari aksiyalar qiymatining oshishida bank daromadligining ko'tarilishi va tadbirkorlikdagi xatarning ta'sirini tan olishmaydi. Ular qo'llaydigan uslublar rivojlangan fond bozorida keng qo'llaniladi. Chunki ushbu maktab tarafdorlari o'z uslublarining quyidagi avzallik tomonlarini ko'rsatishadi:

- texnik jihatdan soddaligi;
- tahlil olib borishining tezkorligi;
- fundamental tahlilga nisbatan ko'p aksiyalarda qo'llanilishi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, texnik tahlil tarafdorlari fond bozoridagi narxlar o'zgarishining uzoq muddat davomidagi holatini aniq bila olishmaydi. SHuning uchun ushbu holatda nafaqat texnik tahlil ma'lumotlaridan, balki fundamental tahlil ma'lumotlaridan ham keng foydalanish lozim bo'ladi. Shunga qaramasdan, ko'p aksiyalar bo'yicha fundamental tahlil o'tkazish xarajatlarining yuqoriligi sababli ko'p holatlarda texnik tahlildan foydalaniladi.

Texnik tahlil tarafdorlari qimmatli qog'ozlarni tahlil qilishda quyidagi uch asosiy tamoyillarga asoslanadilar:

- aks etishlik;
- trend;
- qaytarishlilik.

**Aks etishlik** tamoyili jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik hodisalarning pirovard natijasi qimmatli qog'ozlarning bahosida aks etadi. Boshqacha aytganda, qimmatli qog'ozlarning narx-navosi insoniyat hayotida miqdoriy hisoblanadigan, ya'ni matematik hisob-kitoblar olib borishning imkoniyati yo'q holatlar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Shuning uchun texnik tahlil tarafdorlari aks etishlik tamoyili asosida yaxshi xabar paydo bo'lganda sotish darkor degan qoidani amalga oshiradilar. Haqiqatda amaliyotda ko'plab holatlarda fond bozorida yaxshi

xabar tarqalganda qimmatli qog'ozlarning bahosi ko'tariladi.

**Trend** tamoyili qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talab va taklifning nisbati asosida narxlarning o'zgarishini bildiradi. Ushbu holatda qimmatli qog'ozlarning narxi talab va taklif nisbatiniig bir tomonlama o'zgarishini hisobga oladi. Bu erda trend talabning eng yuqori nisbatini hisobga olib, talab pasayishi holatida yangi qimmatli qog'ozga nisbatan trend boshlanadi. Har bir trend holatida ma'lum miqdorda daromad topish imkoniyati mavjud bo'ladi.

**Qaytarishlilik** tamoyilida fond bozorida ma'lum holatlarning vaqt o'tishi bilan qaytarilishini asoslaydi. Bu tamoyilda insoniyat o'z tajribasidan kelib chiqqan holda qaytarilayotgan holatdan foydalanishi mumkin. Shuning uchun texnik tahlil tarafdorlari fond bozorida qaytarilish holati yuzaga chiqadigan yo'nalishni o'z vaqtida aniqlay bilishi lozim. Shuning asosida, ya'ni aks etishlik, trend va qaytarilishlilik tamoyillari asosida texnik tahlil to'g'risida tushuncha berish mumkin.

Qimmatli qog'ozlarning texnik tahlili bu ba'zi qimmatli qog'ozlar bozoridagi talab va taklifning doimiy o'zgarishini tahlil qilish usullarining yig'indisidir. Amaliyotda texnik tahlil qimmatli qog'ozlar bozoridagi baho va miqdoriy ko'rsatkichlarning o'zgarishini doimo kuzatib borish zarurligini asoslaydi. Texnik tahlilda har bir bo'lajak sarmoyador qimmatli qog'ozlar bozorida mustaqil, lekin o'z xatari asosida faoliyat ko'rsatishini anglaydi.

#### **4.4. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha passiv operatsiyalari tahlili**

Tijorat banklari o'z faoliyatini yuritish uchun yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb etadi. Jalb etishning yo'llaridan biri muomalaga qimmatli qog'ozlardan biri hisoblangan depozit sertifikatlarini chiqarishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, muomalaga kiritish va ularni so'ndirish O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 1994 yil 24 dekabrda tasdiqlangan "Banklarning depozit sertifikatlarini chiqarish, ro'yhatga olish va muomalada bo'lish qoidalari" asosida amalga oshiriladi.

Depozit sertifikati - bu emitent bankning pul mablag'larini omonatga qo'yilganligi haqidagi guvohnomasi bo'lib, u omonatchi yoki uning huquqiy vorisining depozit summasi va u bo'yicha foizlarni belgilangan muddat tugagandan so'ng olish huquqini tasdiqlaydi.

Depozit sertifikatlari ikki xil shaklda muomalaga chiqarilishi mumkin:

- yuridik shaxslar uchun - "depozit sertifikatlari". Depozit sertifikatlari bir yilgacha (sertifikatni berish sanasidan to sertifikat egasi sertifikat bo'yicha omonatni talab qilib olish huquqini olgan sanagacha) muddatga;

- jismoniy shaxslar uchun - "depozit (omonat) sertifikatlari". Ushbu sertifikat 3 yil muddatgacha chiqarilishi mumkin.

Depozit sertifikati uchun omonatlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi - so'mda qo'yiladi. Sertifikat qimmatli qog'oz hisoblanadi. Depozit sertifikati bir martalik tartibda va turkumlar bilan chiqarilishi mumkin.

Depozit sertifikatini bo'yicha talab qilib olish huquqi faqat yuridik shaxsga berilishi mumkin. Depozit (omonat) sertifikatini bo'yicha talab qilib olish huquqi faqat jismoniy shaxsga berilishi mumkin.

Depozit sertifikatlari shaxs nomiga (egasi yozilgan) va uni taqdim etuvchiga yozib beriladigan shaklda muomalaga chiqarilishi mumkin. Depozit sertifikatini sotilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish yoki to'lov vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Depozit sertifikatlari muomalaga quyidagicha chiqarilishi mumkin:

- naqd (blankali) ko'rinishda;

- naqdsiz shaklda ("depo" hisobvaraqlaridagi elektron yozuvlar ko'rinishida).

Muomalaga chiqariladigan naqdsiz shakldagi depozit sertifikatlari bo'yicha operatsiyalar hisobi emitent banklarning depozitariy bo'limida yuritiladi. Emitent bank depozitariysi va mijozning o'zaro munosabatlari tegishli shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Depozit sertifikatini boshqa shaxsga berilishi mumkin. Naqdsiz shakldagi depozit sertifikatlari bo'yicha berish huquqi mijozning topshiriqnomasi asosida depozitariyning "depo" hisobvarag'iga tegishli yozuvlarni qayd etish bilan rasmiylashtiriladi.

Taqdim etuvchiga beriladigan blankali depozit sertifikatini bo'yicha talab qilib olish huquqini berish bu depozit sertifikatni oddiygina topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Nomi yoziladigan blankali depozit sertifikatini (tessiya) bo'yicha talab qilib olish huquqini berish bunda o'z huquqini berayotgan (tsedent) hamda bu huquqni sotib olayotgan shaxs (tessonariy)ning ikki tomonlama bitimi asosida rasmiylashtiriladi. Depozit sertifikatini bo'yicha talab qilib olish huquqini berish haqidagi bitimga bunday bitimlarni amalga oshirish uchun tegishli yuridik shaxs tomonidan vakil qilingan ikki shaxs imzo chekadi hamda yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi. Berish haqidagi har bir shartnoma tsedent tomonidan raqamlanadi. Depozit (omonat) sertifikatini bo'yicha talab qilib olish huquqini berish to'g'risidagi shartnomaga har ikki tomon shaxsan imzo chekadi.

Depozit sertifikatini bo'yicha muddatidan oldin to'lov taqdim etish imkoniyatini ko'zda tutish mumkin. Bunda tijorat banki shunday depozit sertifikat egasi ushbu sertifikatni berayotganda bank tomonidan belgilanadigan depozit sertifikat summasi va pasaytirilgan stavka bo'yicha foizlarni to'laydi. Emitent bank depozit sertifikatini chiqarish va muomalaga kiritish shartlarida dastlab belgilangan hamda depozit sertifikatning muomalada bo'lishi muddatlari tugagandan so'ng uning egasiga tegishli bo'ladigan stavka foizlarini ushbu depozit sertifikat sotib olingan vaqtdan qat'iy nazar to'laydi. Agar depozit sertifikat bo'yicha depozitni yoki omonatni olish muddati o'tib ketgan bo'lsa, bunday depozit sertifikat talab qilib olinadigan hujjat hisoblanadi va emitent bank ushbu hujjat bo'yicha hujjat egasining birinchi talabi bilanoq unda yozilgan summani zudlik bilan to'lash majburiyatini oladi. Amaldagi qonunchilikka asosan depozit sertifikatlari blankalarini faqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarish uchun maxsus litsenziya olgan poligrafiya korxonalarini tayyorlaydi.

Yuridik shaxslar uchun depozit sertifikatini omonatchi bilan emitent bank o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Bank hisobvarag'iga

mablag'lar o'tkazilayotganida omonatchiga tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq rasmiylashtirilgan depozit sertifikatini beradi. Omonatchining vakili depozit sertifikatini mulki bilan birgalikda saqlanadigan depozit sertifikatini olish uchun ishonch xatiga ega bo'lishi lozim. Yuridik shaxslar uchun depozit sertifikatlarini sotish va sotib olish bo'yicha pul hisob-kitoblari hamda ular yuzasidan summalarni to'lash faqat naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarga depozit (omonat) sertifikatlarini rasmiylashtirish ariza asosida amalga oshiriladi. Omonatchi shaxs ushbu arizada depozit (omonat) sertifikatini to'ldirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni (rekvizitlarni) ko'rsatadi. Depozit (omonat) sertifikatini to'lash uchun omonatchi emitent bankka sertifikat summasi miqdorida chek taqdim etishi, naqd pul bilan mablag' kiritishi yoki omonat summasini emitentga o'tkazish haqida o'z bankiga topshiriq berishi mumkin.

Depozit sertifikati yo'qotilgani aniqlangan taqdirda uning egasi bu holat haqida emitent bankka ma'lum qilishi shart. Ariza maxsus tutilgan daftarda qayd qilinadi, ushbu daftar raqamlanadi, tikiladi va gerbli surg'uch muhr izi bilan mahkamlanadi. Ariza depozit sertifikat bilan birga saqlanadi. Yo'qolgan depozit sertifikatlar bo'yicha to'lovlar emitent bank boshqaruvi tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan ariza va boshqa zarur hujjatlar ko'rib chiqilgach amalga oshiriladi. Arizada depozit sertifikatini rasmiylashtirish sanasi, sertifikat raqami, sertifikat qaysi bank bo'limi tomonidan, kimning nomiga (yuridik shaxsning nomlanishi yoki jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi), qancha miqdorda berilganligi ko'rsatiladi.

Depozit yoki omonatni talab qilib olish vaqti kelganda bank depozit sertifikatni taqdim etishga qarshi to'lovni amalga oshiradi va kerakli mablag'lar o'tkazilishi lozim bo'lgan hisobvaraqqi ko'rsatib ariza yozadi. Omonatchi jismoniy shaxslar uchun to'lovlar summasini hisobvaraqqa o'tkazish yo'li bilan ham naqd pul to'lash yo'li bilan ham amalga oshirish mumkin.

Emitent bank talab qilib olish huquqini boshqa shaxsga berishning bir qator shartnomalari izchilligini, shuningdek, nomi yozilgan depozit sertifikatida sertifikat egasi vakil qilgan shaxslarning nomi, muhri va imzolarini tekshiradi. Pul mablag'larini o'tkazish haqidagi arizada xuddi shunday imzolarni tekshiradi. Depozit sertifikatiga imzo qo'ygan shaxslar bo'lganda, arizaga vakolatli shaxslar imzo chekishi hamda tegishli ishonchnomalar qo'shib qo'yilishi mumkin.

Muomalaga depozit sertifikatlarini chiqarish to'g'risidagi qarorni amaldagi qonunchilikka va bankning ustav hujjatlariga muvofiq bunga vakolatli bo'lgan bankning rahbariyati qabul qiladi. Depozit sertifikatlar chiqarish haqidagi qaror qabul qilinishi bilan uni chiqarishga doir shart-sharoitlar, tartiblar hamda tadbirlar muddati tasdiqlanishi lozim. Bunday tadbir quyidagilardan iborat:

- depozit sertifikatlarining tarqatilishi ko'zda tutilayotganligi, ularni chiqarish va muomalaga kiritish shartlari to'g'risidagi axborotni chop etish;
- depozit sertifikatlarini tarqatishni tashkil etish.

Depozit sertifikatlarini chiqarish va muomalaga kiritish shartlarida sertifikatlarini chiqarish, muomalaga kiritish va qiymatini to'lashning to'la tartibi, chiqarish haqidagi ma'lumotlar, sertifikatning tashqi ko'rinishini tasvirlash va sertifikat

namunasi bo'lmog'i lozim. Depozit sertifikatlarini chiqarish va muomalaga kiritishning emitent bank tasdiqlagan shartlari sertifikatlarini chiqarishni ro'yhatga olish tadbirini o'tkazish uchun berilgan ariza bilan birgalikda o'n kunlik muddat ichida mazkur shartlar tasdiqlanganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga taqdim etiladi. Emitent bankning depozit sertifikatlarini chiqarishni ro'yhatga olish tadbirini o'tkazish uchun bergan arizasi erkin shaklda yoziladi va bankning mansabdor shaxslari tomonidan imzo chekiladi. Ushbu arizada bank depozit sertifikatlarining blankalarini ishlab chiqaruvchi tashkilot va buyurtma hajmi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki buyurtmachi bank taqdim etgan barcha hujjatlarni ikki xafta davomida ko'rib chiqadi. Emitent bankka hech qanday e'tirozlar bo'lmagan taqdirda Markaziy bank depozit sertifikatlarini chiqarishni ro'yhatga olish tadbirini o'tkazadi, ularga ro'yhatga olingan raqamlarni qo'yadi hamda tegishli xat bilan emitent bankni xabardor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining qimmatli qog'ozlar departamenti depozit sertifikatlarining chiqarilishini alohida jurnalda qayd etadi, ularni muomalaga chiqargan emitent bank nomini, depozit sertifikatlarini chiqarish haqida qabul qilingan qaror sanasini, hujjatlarning qimmatli qog'ozlar departamentiga taqdim etilgan sanasi, depozit sertifikatining chiqarilishi ro'yhatga olingan raqamni ko'rsatadi, shuningdek, chiqarilish haqidagi boshqa ma'lumotlarni yozib qo'yadi.

Ma'lumki, tijorat banklari o'z faoliyatini yuritishlari uchun ustav kapitaliga ega bo'lishi lozim. Ustav kapitalini shakllantirish esa muomalaga aksiyalar chiqarish orqali amalga oshiriladi. Amaldagi qonunchilikka asosan aksiyalar emissiyasi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1. Aktsiyadorlik jamiyati ta'sis etilib, aksiyalar uning muassislari o'rtasida tarqatilgan holda;

2. Aktsiyadorlik jamiyatlari ustav fondining dastlabki miqdori aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirilgan holda.

Aktsiyadorlik jamiyati bo'lgan tijorat banki aksiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yoki bunday holat bank ustavida va qonunchilik tomonidan nazarda tutilgan bo'lsa, bank kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Vakolatli organ muomalaga chiqariladigan qimmatli qog'ozlar emissiyasi risolasini tasdiqlaydi. Aktsiyalar emissiyasi risolasi tijorat bank to'g'risida, chiqariladigan aksiyalarning hajmi, nominal qiymati, chiqarilish shakli, turi, soni, chiqarish shartlari hamda ushbu aksiyalarni sotib olish yoki sotishdan voz kechish to'g'risidagi qarorga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni o'z ichiga olgan hujjatdir.

Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish tijorat banki ustavida belgilangan holda qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilgan bank organi tomonidan belgilangan holda ochiq yoki yopiq obuna yo'li bilan amalga oshiriladi. Aktsiyalar ochiq obuna yo'li bilan joylashtirilganda davlat ro'yhatiga olish emissiya risolasini ro'yhatga olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agarda aksiyalar yopiq obuna yo'li bilan joylashtirilganda esa davlat ro'yhatiga olish chiqarilish so'rovnomasini ro'yhatga olish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati bank ustav kapitalining 20 foizidan

oshmasligi lozim. Tijorat banki tomonidan e'lon qilingan aksiyalar - bu soni va nominal qiymati bank ustav kapitali bilan belgilangan va joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha ravishda bankning ustavida belgilangan tartib va shartlarda joylashtirish huquqiga ega bo'lgan aksiyalar.

Amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqariladigan aksiyalar faqat egasi yozilgan aksiyalar bo'lishi lozim. Tijorat banklarining muomalaga chiqaradigan naqd aksiyalari davlat tili hisoblangan lotin alifbosiga asoslangan tilda yoziladigan rekvizitlarga ega bo'lgan holda quyidagi talablarga javob berishi shart:

- tijorat bankining nomlanishi va uning yuridik manzili;
- qimmatli qog'ozning nomi - «Aksiya»;
- aksiya blankasining tartib raqami va seriyasi;
- aksiya turi (egasi yozilgan);
- aksiya xillari (oddiy yoki imtiyozli);
- aksiyaning nominal qiymati;
- aksiyaning chiqarilishi ro'yhatga olingan sana va davlat identifikatsiya raqami;
- aksiyalarni chiqarish kuniga qadar ro'yhatga olingan bank aksiyalari chiqarilishlarining nominal qiymatidagi umumiy summasi;
- muomalaga chiqariladigan aksiyalarning soni (jami, turlari va xillari bo'yicha);
- imtiyozli aksiyalar uchun to'lanadigan dividendlarning foizlardagi miqdori;
- tijorat bankining boshqaruv raisi va bosh buxgalteri imzolari;
- aksiya egalari bo'lgan Yuridik shaxsning rasmiy nomlanishi yoki jismoniy shaxslarning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- aksiyalar beradigan huquqlar.

Tijorat banki tomonidan aksiyalarning muomalaga yangi chiqarilishi bankning avvalgi muomalaga chiqargan aksiyalarining barchasi (birlamchi bozorda) to'liq to'langanidan keyin amalga oshirilishi mumkin. Muomalaga chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish qimmatli qog'ozlar emissiya risolasida (prospektida) belgilangan muddatlarda, lekin bir yildan ortiq bo'lmagan muddatda hamda quyidagi shartlarda amalga oshiriladi:

a) aksiyalar ta'sischi o'rtasida joylashtirish uchun birinchi marta chiqarilgan holda tijorat banki davlat ro'yhatiga olingan sanadan boshlab;

b) aksiyalar ikkinchi va kelgusida chiqarilgan hollarda qimmatli qog'ozlar chiqarilishi vakolatli davlat organi tomonidan ro'yhatga olingan sanadan boshlab.

Amaldagi qonunchilikka asosan tijorat banklari avvalgi chiqargan barcha aksiyalari to'liq to'langanidan keyingi ustav kapitalining shakllantirilgan miqdorida ko'p bo'lmagan miqdorda obligatsiyalar chiqarish huquqiga ega. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishining davlat ro'yhatiga olinishi quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

- muomalaga chiqarilish amalga oshmagan deb rasmiy tan olinganda;
- bank tugatilganda yoki qayta tashkil qilinganda;
- sudning tegishli qarori mavjud bo'lganda.

Tijorat banklari qayta tashkil etilayotganda faqat qayta tashkil etilayotgan va o'z faoliyatini tugatayotgan banklar qimmatli qog'ozlari chiqarilishining davlat

ro'yhati bekor qilinadi. Tijorat banki o'z faoliyatini bekor qilish uchun asos paydo bo'lgan kundan boshlab ikki oy muddat mobaynida ro'yhatga oluvchi vakolatli davlat organiga tegishli sabablarini ko'rsatgan va zarur hujjatlarni ilova qilgan holda qimmatli qog'ozlar chiqarilishini bekor qilishga yozma ariza berishi shart. Investorlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni qaytarish bilan bog'liq barcha xarajatlarni qoplash, shuningdek qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha ular kiritgan pul mablag'larini qaytarish emitent bank hisobidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining aktsiyalari bilan bog'liq holat quyidagi ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Mamlakat qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga aktsiyalar chiqarish yo'nalishida AT «Agro bank», AT «O'zsanoatqurilishbank», AT «Aloqa bank», ATB «Trastbank» va AT «Ipak yo'li» banklari oldingi o'rinlarni egallab turibdi. Ushbu banklar hozirga qadar o'z aktsiyalarning o'ninchi emissiyasini muomalaga chiqardilar. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalaridan eng asosiylari bu davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va davlat o'rta muddatli obligatsiyalari bilan bog'liq operatsiyalar hisoblanadi.

#### **4.5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha aktiv operatsiyalari tahlili**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining birlamchi va ikkilamchi bozorida dilerlik vazifalarini bajarishga doir shartnomani tuzish uchun nomzodlar O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1998 yil 30 noyabrda davlat ro'yhatidan o'tgan, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan «Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari chiqarilishining muomalada bo'lishi va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi» Nizomga asosan olib boriladi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bozorida dilerlik nomzodiga talabgor yuridik shaxs - bu O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lishi, kerakli hujjatlarni taqdim etgunga qadar eng kamida uch oy investitsiya vositachisi sifatida malakali faoliyatni amalga oshirish xuquqini beruvchi maxsus litsenziyaga ega (bank bo'lmagan tashkilotlar uchun) yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining litsenziyasiga ega (banklar uchun) bo'lishi lozim. Amaldagi qonunchilikka asosan sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlari davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bozorida diler bo'lish huquqiga ega emaslar.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida dilerlik maqomiga nomzodlar quyidagi talablarga javob berishlari shart:

- tijorat banklari uchun eng kamida 1250000 AQSh dollari ekvivalentida va xususiy banklar uchun eng kamida 300000 AQSh dollari ekvivalentida (nomzodlik uchun ariza berilgan oyning 1-sanasiidagi kurs bo'yicha) so'mda;

- tijorat banklari uchun majburiy zahira talablarini o'z muddatida va to'liq hajmda bajarishni amalga oshirishi;

- davlat va mahalliy byudjetlarga to'lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar oldida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yo'qligi to'g'risidagi vakolatli soliq organlarining rasmiy ma'lumotnomasiga ega bo'lishligi;



- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va me'yoriy xujjatlarda belgilangan va eng kam miqdordan kam bo'lmagan hajmda to'langan ustav kapitaliga ega bo'lishlik;

- vakolatli davlat organlaridan maxsus shahodatnomaga ega bo'lgan malakali mutaxassislar shtatlariga ega bo'lishlik.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida dilerlikka nomzodning hisobvarag'ida mavjud bo'lgan pul mablag'lari hisobga olinishi mumkin emas va hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatilmagan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq agarda dilerlikka nomzodlarga nisbatan quyidagi holatlar qo'llanilgan bo'lsa, ushbu nomzodlarning arizalari ko'rib chiqilmaydi:

- bajariladigan operatsiyalar doirasini cheklash to'g'risida e'tiroz xati berilgan bo'lsa;

- vaqtinchalik ma'lumuriyat tayinlash to'g'risida buyruq chiqarilgan bo'lsa;

- to'lovga layoqatsizlik (bankrotlik) to'g'risida rasmiy qaror qabul qilingan bo'lsa;

- yuridik shaxsni rasman tugatish to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan bo'lsa.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bozorida dilerlik vazifasiga nomzod shartnoma tuzish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qimmatli qog'ozlar departamentiga quyidagi tegishli hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- dilerlikka nomzod bankning arizasi;

- tijorat bankining nomzodlik anketasi;

- o'tgan yildagi moliyaviy holati to'g'risida tegishli ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lgan auditorlik firmasining rasmiy xulosasi;

- tijorat banki uchun soliq to'lovchi byudjet va byudjetdan tashqari fondlar oldidagi majburiyatlarini bajarganligi to'g'risidagi soliq idoralarining rasmiy ma'lumotnomasi.

Sanab o'tilgan hujjatlarni to'liq taqdim etmagan dilerlikka nomzodning hujjatlari ko'rib chiqilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Qimmatli qog'ozlar departamenti davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bozorida dilerlik maqomini olish uchun nomzodning hujjatlarini 30 kundan kechiktirmay ko'rib chiqadi va nomzodga dilerlik shartnomasini tuzish uchun qaror qabul qiladi hamda yozma ravishda rasmiy javob yuboradi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bilan oldi-sotdi jarayoni quyidagilardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining muomalaga davlat qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarish to'g'risidagi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi depozitariysida kerakli summada «depo» hisobvarag'i ochadi. Investor uchun depozitariyda «depo» hisobvarag'i va u bilan xizmat ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan dilerning «depo» topshiriqnomasi asosida ochiladi. Investor bitta dilerda «depo» topshiriqnomasi bo'yicha ochilgan faqat bitta «depo» hisobvarag'iga ega bo'lishi mumkin.

Diler va investorning «depo» hisobvarag'ida quyidagi bo'limlar ochiladi va operatsiyalar amalga oshiriladi:

1. «Asosiy» bo'lim;
2. «To'siq qo'yilgan» bo'lim.

O'z navbatida «To'siq qo'yilgan» bo'lim o'z ichiga quyidagi bo'linmalarni oladi:

- «Garov olinib to'siq qo'yilgan» bo'linma;
- «Repo bitimi bo'yicha to'siq qo'yilgan» bo'linma;
- «Xatlash bo'yicha to'siq qo'yilgan» bo'linma.

Bundan tashqari «Garovga olinib to'siq qo'yilgan» bo'linma garovga qo'yilgan obligatsiyalarni joylashtirish uchun «sotish uchun to'siq qo'yilgan» subhisobvarag'i ochiladi.

«Asosiy» bo'lim depo hisobvarag'ining davlat qisqa muddatli obligatsiyalar bo'yicha o'tkazishlarining amalga oshirishni hech qanday cheklashlar belgilanmagan bo'limi hisoblanadi.

«To'siq qo'yilgan» bo'lim - amaldagi qonunchilik va shartnoma asosida davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga xususiy cheklashlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan «depo» hisobvarag'ining bo'limi hisoblanadi.

«Garov olinib to'siq qo'yilgan» bo'linma - depo hisobvarag'ining davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining huquqlariga garov majburiyatlari bo'yicha qo'yiladigan cheklashlarni hisobga olish uchun garovga oluvchining «depo» hisobvarag'ida ochiladigan bo'linmadir. Bu bo'linmada garov to'g'risidagi shartnomada quyidagi shartlar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak:

- garovga qo'yilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalar garovga oluvchiga o'tkazib berilishi;

- garovga qo'yilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning ularni to'sig'i bekor qilingan sanadan va garovga beruvchining hisobvarag'iga qaytarilgan sana kelgandan keyin 10 (o'n) kalendar kunidan kam bo'lmagan muddat o'tgach so'ndirish muddati kelishi kerak.

Shuni ta'kidlash lozimki, davlat qisqa muddatli obligatsiyalarga har xil shartnomalar garovi asosida paydo bo'lgan qiyinlashgan garov huquqlarining ushbu bo'linma bo'yicha hisobi har bir shartnoma bo'yicha alohida-alohida yurgiziladi.

«Repo bitimi bo'yicha to'siq qo'yilgan» bo'linma qayta sotib olinishi bilan davlat qisqa muddatli obligatsiyalar oldi-sotdi bitimi to'g'risidagi kelishuvning birinchi qismi bo'yicha davlat qisqa muddatli obligatsiyalar xaridorining «depo» hisobvarag'ida ochiladigan «depo» hisobvarag'i bo'linmasi hisoblanadi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning ushbu bo'linma bo'yicha hisobi davlat qisqa muddatli obligatsiyalarni qayta sotib olish sharti bilan oldi-sotdi bitimi har bir kelishuv to'g'risida alohida yuritiladi.

«Xatlash bo'yicha to'siq qo'yilgan» bo'linma - «depo» hisobvarag'ining quyidagi cheklashlarni xarakterlovchi bo'linma hisoblanadi:

- ushbu bo'linmadan diler yoki investorning roziligisiz qonunga asoslangan vakolatli organning ko'rsatmasi bo'yicha faqat depozitariyning o'zi tomonidan tuzilgan «depo» topshiriqnomasi asosida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari shu bo'linmaga o'tkazilishi mumkin;

- davlat qisqa muddatli obligatsiyalari ushbu bo'linmadan tegishli organlar ruxsati bo'lgan taqdirda, shuningdek davlat qisqa muddatli obligatsiyalari so'ndirilganda o'tkazilishi mumkin;

- ushbu bo'linmaga davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini o'tkazish va ularni «xatlash» uchun asos bo'ladigan kerakli hujjatlar olingan kunda amalga oshirilgan bo'lishi kerak.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining auksion oldi-sotdisi maxsus hisob-kitob tizimi - bu hisob-kitob operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki bilan tuzilgan shartnoma asosida pulli hisob-kitoblarni ta'minlashga vakil qilingan O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi hisoblanadi. Tijorat banklari ushbu hisob-kitob tizimida vakillik hisobvaraqlarini ochadi. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining birlamchi yoki ikkilamchi bozorda savdolar boshlangunga qadar tijorat banki o'zlari sotib olishni rejalashtirgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini to'lash uchun kerakli mablag'ni O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi hisobvaraqa o'tkazishlari shart, birja esa ushbu mablag'larni tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlarida zaxiralashtiradi. Ushbu ma'lumotlar har bir diler hisoblangan tijorat banki pul pozitsiyasining boshlang'ich qiymatlari hisoblanadi.

Oldi-sotdi bitimlarni tuzish dilerlarning davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini sotishga yoki sotib olishga bergan raqobatli va raqobatsiz buyurtmalari asosida amalga oshadi. Bu holatda raqobatli buyurtmalar ikki xilda bo'lishi mumkin:

- kotirovkada hisobga olinuvchi raqobatli buyurtma;

- kotirovkada hisobga olinmaydigan raqobatli buyurtma.

Raqobatsiz buyurtmalar kotirovkada hisobga olinmaydigan buyurtmalar hisoblanadi va ular asosida garovga olingan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish bo'yicha bitimlar amalga oshadi.

Tijorat banklari davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini sotib olish (yoki ularni sotish)ga raqobatli buyurtmalarni, bitimning yo'nalishi davlat qisqa muddatli obligatsiyalari miqdori, ularning narxi va sotib oluvchi (yoki sotuvchi)ning maxsus kodini ko'rsatgan holda savdo tizimiga kiritadi. Raqobatsiz buyurtmalar uchun narx bo'lib, buyurtma berilgan vaqtdagi savdo tizimi tomonidan avtomatik tartibda hisobga olinadigan savdolar narxining o'rtacha baholangan narxi hisoblanadi. Buyurtma berilgan paytda uning vaqti savdo tizimida qayd etiladi.

Garovdagi davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining sotilishi dilerning «depo» hisobvarag'idagi «garov olinib to'siq qo'yilgan bo'linmasi»ga mos keluvchi «sotish uchun to'siq qo'yilgan bo'limi»ga subhisobvarag'idan amalga oshiriladi.

Tijorat bankidan davlat qisqa muddatli obligatsiyasi sotib olishga buyurtma tushganda savdo tizimi pul pozitsiyasining qiymatini berilgan buyurtma qiymatini to'liq qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan pul summasi mablag'lariga (vositachilik to'lovi hajm summasini qo'shib hisoblangan holda) kamaytiradi. Agar olingan natija O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ushbu tijorat banki uchun belgilangan limitdan kam bo'lsa, mazkur buyurtma ijroga qabul qilinmaydi. Tijorat bankidan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini sotishga buyurtma tushganda savdo tizimi «depo» pozitsiyasi qiymatini berilgan buyurtmani to'la qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari soniga kamaytiradi. Agar olingan

natija salbiy bo'lsa, bo'lgan buyurtma ijroga qabul qilinmaydi. Agar katirovka hisobdagi vaqtga mos kelmasligi sababli qanoatlantirilmasa, unda buyurtma navbatga qo'yiladi. Agar kotirovkada hisobga olinmaydigan raqobatli buyurtma, shuningdek, garovga olingan obligatsiyalarni sotish uchun berilgan raqobatsiz buyurtma bilan bitim tuzishning, ular berilgan paytdagi narxlar shartlarning mos kelmasligi sababli iloji bo'lmasa, unda ushbu buyurtma savdo tizimidan olib tashlanadi.

Buyurtmalar quyidagi shartlarga rioya qilgan holatda amalga oshiriladi:

- buyurtma hajmining ustunligiga ta'sir qilmaydigan holatda;
- berilgan vaqtdan qat'iy nazar, afzalroq narxga ega bo'lgan buyurtma, afzalligi kamroq bo'lgan narxdagi buyurtmaga nisbatan oldinroq qanoatlantiriladi;
- bitim hamisha navbatda birinchi turgan buyurtmaning narxi bo'yicha tuziladi;
- agar buyurtma bitim tuzish paytida faqat qisman qanoatlantirilishi mumkin bo'lsa, unda uning qanoatlantirilmagan qismi alohida buyurtma sifatida qarab chiqiladi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari oldi-sotdisi bo'yicha ijro etilgan bitim natijalari bo'yicha dilerlarning buyurtmasi (to'liq yoki qisman) qanoatlantirilgan taqdirda, ushbu dilerlarning buyurtmalari ta'minoti vositasi bo'lib xizmat qiladigan pul mablag'lari pozitsiyasi va «depo» pozitsiyasi qayta hisoblanishi amalga oshiriladi.

Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari savdolar tugagandan so'ng, savdo tizimi hamma qanoatlantirilmagan buyurtmalarni chiqaradi va barcha dilerlarning barcha pozitsiyalari yakuniy qiymatlarini hisoblab chiqadi. Savdo tizimi har bir dilerlarning hisob-kitob tizimidagi vakillik hisobvarag'idan o'tkazilish (yoki hisobvarag'iga o'tkazilishi) kerak bo'lgan pul mablag'larining sof saldosi, shuningdek, har bir dilerlarning (sarmoyadorning) depozitariydagi «depo» hisobvarag'idan o'tkazilishi yoki «depo» hisobvarag'iga kiritib qo'yilishi kerak bo'lgan obligatsiyalarning sof saldosi aniqlaydi va O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi depozitariysi hisob-kitoblarga asos bo'ladigan hujjatlar asosida barcha yakuniy operatsiyalarni amalga oshiradi.

Biz quyidagi jadvalda davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini joylashtirish yuzasidan o'tkaziladigan kimoshdi savdolarining o'tkazilish tartibini ko'rib chiqamiz (11-jadval):

*11-jadval*

### **Davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini joylashtirish tartibi**

T/r	Ko'rsatkichlar	24064UMFS	24064UMFS
1	Kimoshdi savdosi o'tkazilgan sana	07.04.05	21.04.05
2	Qoplanish sanasi	06.04.06	20.04.06
3	Emissiya miqyosi (mln. so'm)	2300,0	700,0
4	Eng yuqori baho (nominal- belgilangan narxiga nisbatan foizlarda)	88,92	88,91
5	Eng past baho (nominal-belgilangan narxga nisbatan foizlarda)	88,92	75,00
6	Ajratish bahosi (nominal narxga	88,92	88,91

	nisbatan foizlarda)		
7	Qoniqtirilgan hamma talabnomalarning o'rtacha chamalangan bahosi (nominal narxiga nisbatan foizda)	88,92	88,91
8	O'rtacha chamalangan bahoda qoplashga daromadliligi (murakkab yillik foizda)	12,50	12,51
9	Nominal narxi bo'yicha tushgan talabnomalar (mln. so'm)	1506,46	922,47
10	Nominal narxi bo'yicha qondirilgan talabnomalar (mln. so'm)	1506,46	422,47
11	Haqiqatda jalb etilgan mablag' (mln. So'm)	1339,54	375,62
12	Ilgari chiqarilgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalarning qoplanishi	2800,0	700,0

Manba: РЫНОК ЦЕННЫХ БУМАГ. 2004. №6.

Quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$i_n = \frac{N - P}{P} * \frac{365}{d}$$

Bu erda:

N - davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining nominal qiymati;

P - xarid qilish bahosi;

d - so'ndirilishgacha qolgan davr (kun hisobida).

Samarali daromadlilik, shuningdek, davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining qolgan davrdagi daromadliligini ham belgilab beradi, lekin bu holatda yillik stavka murakkab foiz bo'yicha hisob-kitob qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, davlat qisqa muddatli obligatsiyalaridan olinadigan daromad amaldagi qonunchilikka ko'ra soliqqa tortilmaydi va bu holat respublikamizdagi tijorat banklarining ushbu bozordagi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2004 yil davomida davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bo'yicha 23 dona auktsion o'tkazildi. Joriy yil davomida muddati 12 oygacha bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari salmog'i ortgan va uning ulushi 60,87 foizni tashkil etgan. Biz quyidagi jadvalda davlat qisqa muddatli obligatsiyalarini muddatlari bo'yicha ko'rib chiqamiz (12-jadval):

**Umumiy bozorda davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining muddatlari bo'yicha ma'lumot**

T/r	Yillar	Muddati 3 oylik DQMO	Muddati 6 oylik DQMO	Muddati 9 oylik DQMO	Muddati 12 oylik DQMO
1	2	3	4	5	6
1	1996 yil	100,0	-	-	-
2	1997 yil	32,5	67,5	-	-
3	1998 yil	18,1	62,6	19,3	-
4	1999 yil	-	39,5	38,7	21,8
5	2000 yil	-	38,8	30,7	30,5
6	2001 yil	-	43,6	30,8	25,6
7	2002 yil	-	45,0	30,0	25,0
8	2003 yil	-	23,7	28,9	47,4
9	2004 yil	-	13,04	26,09	60,87

Manba: Bank axborotnomasi. 2005 yil. №9.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, muddati 3 oylik davlat qisqa muddatli obligatsiyalari muomalaga 1999 yildan chiqarilmagan. Umumiy bozorda asosan muddati 6 oylik va 12 oylik bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari salmog'i katta o'rinni egallab turibdi.

2005 yil 1 yanvar holatiga davlat qisqa muddatli obligatsiyalarining eng yirik bank-dilerlari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Xalq banki, AT «Agro bank», «ABN AMRO» qo'shma banki, AT «O'zsanoatqurilishbank»i va O'zR TIF Milliy banki hisoblanadi.

#### **4.6. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya faoliyati va investitsiya portfelini shakllantirish usullari**

Amalda tijorat banklarining investitsiyalari bank aktivini so'ndirilish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qimmatli qog'ozlarga qo'shimcha daromad olish uchun yo'naltirilishi hisoblanadi. Agar tijorat banki turli emitentlarning muomalaga chiqargan turli qimmatli qog'ozlarini turli miqdorda xarid eta olsa, bu qo'yilmalarni diversifikatsiya qilishda ushbu bankning investitsiya portfelini haqida gapirish mumkin. Tijorat banklarining investitsiya portfelini boshqarish mohiyati esa boshqa investorlar investitsiya portfelini boshqarishidan asosan farq qilmaydi. Bu erda boshqa investorlar deyilganda turli investitsiya institutlari, yirik korxonalar turli xolding kompaniyalari to'g'risida fikr yuritilmoqda. Investitsiya portfelini boshqarish o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- portfelni rejalashtirish;
- portfel tarkibini tahlil etish va uni tartibga solib turish;
- portfelni shakllantirish va uni saqlab turish uchun kerakli likvidlik darajasiga amal qilish;

- portfelni boshqaruvi faoliyatidagi harakatlarni kamaytirish va boshqalar.

Tijorat banklari o'zlarining bo'lajak investitsiya siyosatini ishlab chiqishda va investitsiya portfelining hajmi hamda uning tarkibini aniqlashda, ular avvalo qimmatli qog'ozlarning quyidagi o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadilar:

- foydalilik;
- likvidlik (samaradorlik);
- kapitalni oshirish manbai;
- ishonchlilik darajasi;
- xatar (risk).

Tijorat banklari o'z mablag'larini qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishda o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi: foiz ko'rinishida qo'shimcha daromad olish, kapitalni saqlash va uning asosidagi qimmatli qog'ozlarning kurs qiymatini ortishi hisobiga kapitalni oshirish hamda qimmatli qog'ozlar bo'yicha xatarni pasaytirish. Tijorat banklarining investitsiya siyosati strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda har bir mamlakatdagi banklar faoliyati bo'yicha qonunchilik katta ta'sir ko'rsatadi. Bu holat turli mamlakatlarda turlichadir. Angliya va Italiyada amaldagi qonunchilik banklarga ularning investitsiya portfeli tarkibida mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlarning kurs qiymatining o'sishi hisobiga turli shakldagi bekitilgan zaxiralarni shakllantirishini ta'qiqlaydi. Bu mamlakatlar banklari o'z balans ma'lumotlarida investitsiya portfelidagi aktivlarni ularning qiymatini qayta baholash asosida ko'rsatishlari majburiydir. Boshqa mamlakatlarda, masalan AQSh va Yaponiyada amaldagi qonunchilikka asosan banklarning investitsiya portfelidagi aktiv balansda sotib olish yoki ularning nominal qiymati bo'yicha ko'rsatilishi tufayli kurs o'sishi natijasida banklarda yirik miqdordagi bekitilgan zaxira foizlarni shakllantirishiga olib keladi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlarida amaldagi bank faoliyati qonunchiligi tijorat banklarning investitsiya portfeli tarkibidagi qimmatli qog'ozlarga ularning sifati bo'yicha aniq talablar o'rnatadi. Bu qo'yiladigan talablar asosan banklar investitsiya portfeli tarkibidagi qimmatli qog'ozlar likvidli bo'lishiga qaratilgan. Bunday qimmatli qog'ozlar bozorda erkin muomalada bo'lishi yoki mamlakat Markaziy Bankidan kredit olishda garov sifatida qabul qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikka asosan tijorat banklari investitsiya portfeli tarkibini muomaladagi davlat qisqa muddatli obligatsiyalari va boshqa korporativ qimmatli qog'ozlar tashkil qilishi mumkin.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining investitsiya faoliyati jarayonida ikki xil strategiyadan foydalaniladi:

- passiv strategiya;
- aktiv strategiya.

Tijorat banki investitsiya faoliyati olib borishning passiv strategiyasida asosan kutish, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha bir maromda va doimiy ravishda daromad

olishda ularning bozordagi o'rtacha daromadga yaqin darajasidan foydalanadi. Passiv strategiyani olib borishda banklar ikki xil usuldan foydalanishlari mumkin:

- «zinapoya» usuli;
- «shtanga» usuli.

Tijorat banki birinchi usuldan foydalanganda, o'zi tomonidan aniqlangan investitsiya muddati asosida qimmatli qog'ozlarni turli muddati bo'yicha sotib oladi va ularni investitsiya portfeli tarkibida bir tekis joylashtiradi. Passiv strategiyaning «shtanga» usulida tijorat banki investitsiyaga yo'naltirilayotgan mablag'larning asosiy qismini investitsiya portfelining likvidligini ta'minlaydigan juda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga va ma'lum qismini yuqori foyda beradigan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga sarflaydi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar investitsiya portfelini shakllantirish va uni boshqarishda passiv strategiyaning ikki usulidan ham foydalanadilar. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan asosan qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati olib borilmoqda.

Tijorat banklarning qimmatli qog'ozlar bilan agressiv siyosati asosida qimmatli qog'ozlarning foiz bozorida kursi va foiz stavkasini tebranishidan imkoni boricha ko'p daromad olish yotadi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, bunday agressiv siyosatni faqatgina katta miqdordagi investitsiya portfeliga ega bo'lgan moliyaviy barqaror yirik banklar olib borishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bilan agressiv siyosatni oqilona va muvaffaqiyatli olib borish uchun esa bank tegishli tahliliy imkoniyatga ega bo'lishi lozim. Bunda fond bozorining hozirgi va kelajakdagi holatiga xolisona baho berish, baholar o'zgarishini to'g'ri taxmin qilish shart.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan banklar investitsiya qilishining asosiy ob'ekti bo'lib banklarga kafolatli, qat'iy va bir maromda daromad keltirayotgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari hisoblanadi. Tijorat banklari o'zlarining vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini asosan davlat qisqa muddatli obligatsiyalariga joylashtirmoqdalar. Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi tijorat banklari davlat qisqa muddatli obligatsiyasiga investitsiya qilishda agressiv siyosat olib bormoqda, ya'ni obligatsiyalarning ikkilamchi bozorida kurslarning pasayishi va ko'tarilishida qo'shimcha daromad topmoqda.

Tijorat banklari investitsiya qilayotgan qimmatli qog'ozlarning ahamiyati bo'yicha ikkinchi hisoblangan va katta istiqbollarga ega bo'lgan xususiylashtirilayotgan korxonalarining aksiyalari hisoblanadi. Bu faoliyatda banklar bunday aksiyalarga investitsiya qilishda asosan ulardan dividend shaklida foyda olish, kurslarning ko'tarilishida aksiyalarni yuqori bahoda qayta sotish natijasida daromad olishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan sanoat korxonalarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qilish natijasida bank kapitali va sanoat kapitali qo'shiladi hamda moliya kapitali tashkil topadi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunday jarayon ko'p mamlakatlarda amalga oshirilmaydi, lekin O'zbekistonda bunday jarayon keng rivojlangan. Bank kapitali bilan sanoat kapitali qo'shilishining ijobiy tomoni shundan iboratki, tijorat banki aksiyadorlik sanoat korxonasining paket aksiyasini sotib olgandan so'ng u bu korxonaning boshqaruvida faol ishtirok etadi. Bundan tashqari emitentni



rivojlantirish va moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida bank tomonidan unga kreditlar, shu jumladan imtiyozli kreditlar berilishi mumkin.

Tijorat banklarining investitsiya portfeli tarkibida bank tomonidan qo'shma va shu'ba korxonalar qimmatli qog'ozlariga qo'yilgan mablag'lar bo'lishi mumkin. Bunday investitsiya qo'yilmalaridan daromad katta bo'lishi yoki ba'zi hollarda umuman bo'lmasligi ham mumkin. O'zbekiston Respublikasida asosan barcha banklar turli yo'nalishda bir yoki bir necha investitsiya institutlari - investitsiya vositachisi, depozitariy, investitsiya kompaniyasining ta'sischisi hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikka asosan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklariga instituttsional investorlarning ta'sischisi bo'lishiga ruxsat etilgan. Bunday investorlarning aksiyalarini sotib olish natijasida tijorat banklari pul mablag'larini qo'shimcha jamlanishiga hamda mijozlarning qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bo'yicha operatsiyalarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari qimmatli qog'ozlarga investitsiya uchun mablag'larni joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni olib borishda andarrayting operatsiyasini ustav kapitalini o'z vaqtida va to'liq shakllantirish majburiyatini bajarish uchun emitentning qimmatli qog'ozlarini joylashtira olmasa, bu holatda bank joylashtirilmagan qimmatli qog'ozlarni o'z hisobidan sotib olishi majburiydir. Bunday jarayon yuzaga kelgandan so'ng tijorat banki emitentning sotib olingan qimmatli qog'ozlarini imkoni boricha qayta sotib yuborishga harakat qiladi yoki emitentning boshqaruvida faol ishtirok etib uning moliyaviy holatini yaxshilanishiga hamda shu asosda yuqori dividend olishni amalga oshiradi.

Tijorat banklari aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotib olgandan keyin, u bu jamiyatning moliyaviy holati barqarorligini saqlab turishga majbur bo'lib qolishi ham mumkin. Chunki bu erda bank tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarni yo'qotish xavfi yuzaga chiqadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish faoliyati bo'yicha ma'lum cheklovlar ko'zda tutilgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banki tomonidan bitta korxonaning ustav kapitaliga va shu korxonaning boshqa qimmatli qog'ozlariga qilinadigan quyilmalar miqdori birinchi darajali tijorat bank regulyativ kapitalining 15 foizidan ortmasligi kerak;
2. Tijorat banki tomonidan barcha emitentlarning ustav kapitaliga va ularning boshqa qimmatli qog'ozlariga qiladigan investitsiya qo'yilmalari miqdori birinchi darajali tijorat bank regulyativ kapitalining 50 foizidan ortmasligi kerak;
3. Tijorat banki tomonidan nodavlat qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi uchun qilinadigan qo'yilmalar miqdori birinchi darajali tijorat bank regulyativ kapitalining 25 foizidan ortmasligi kerak.

Amaldagi qonunchilikka asosan O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari va uning shu'ba tashkilotlari tomonidan investitsiya institutlaridan tashqari barcha tashkilotlarning ustav kapitalining 20 foizidan ortiq ulushiga egalik qilish ta'qiqlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan cheklovlar tijorat banklari tomonidan kredit garovi uchun qabul qilingan qimmatli qog'ozlarni sotish huquqiga qo'llanilmaydi. Bunday holatlarda, tijorat banklari garov uchun qabul qilingan qimmatli qog'ozlar yuzasidan huquqini bir oy davomida amalga oshirishlari lozim.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya portfeli o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni olishi kerak:

- qimmatli qog'ozlarning har bir shakli va turi bo'yicha ajratilishi;
- qimmatli qog'ozlarning sifat reytingi;
- qimmatli qog'ozlar har birining nominal va bozor qiymati;
- qimmatli qog'ozlar har birining sotib olish yoki sotish sanasi;
- qimmatli qog'ozlarning foiz stavkalari;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha skidkalar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan dividendlar yoki foiz daromadlari;
- qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimidan olingan foyda.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha bunday hisobot doimiy ravishda va investitsiya qimmatli qog'ozlari uchun hamda oldi-sotdiga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar uchun alohida olib borilishi kerak. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan barcha tijorat banklariga investitsiya faoliyatini olib borishda "qimmatli qog'oz emitenti" degan maxsus shakldan foydalanish ko'zda tutilgan. Ushbu anketada har bir qimmatli qog'oz emitentining barcha pasport ma'lumotlari va uning moliyaviy holati (qoplash koeffitsienti, likvidlik koeffitsienti, muxtorlik koeffitsienti, kreditga layoqatlilik toifasi va boshqalar) aks etadi. Bu anketa doimiy ravishda yangilanib turishi lozim.

**Tayanch iboralar:** qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlar bozori, operatsiyalar, fundamental tahlil, texnik tahlil, passiv operatsiyalari, aktiv operatsiyalari, investitsiya faoliyati, investitsiya portfeli, fond bozori, mutaxassislar, aktsiyadorlik jamiyati, emitent, aktsiyadorlik tijorat banklari, sarmoyador, aktsiyalar (oddiy, imtiyozli), depozit sertifikatlari, bank veksellari, reestr, depozitar operatsiyalar, investitsiya instituti, fond birjasi, kon'yunktura, depozitariy, pul aylanmasi, debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari, investitsion siyosat, loyihaviy moliyalashtirish, kreditorlar, sug'urtachilar, kliring hisob-kitob markazlari, makroiqtisodiy tahlil, industrial tahlil, menejmentning holati, to'lovga layoqatlilik, moliyaviy barqarorlik, modellashtirish, asosiy tamoyillar, aks etishlik, trend, qaytarishlilik, dilerlikka nomzod bank, nomzodlik anketasi, auditorlik firmasining rasmiy xulosasi, soliq idoralarining rasmiy ma'lumotnomasi, "Asosiy" bo'lim, "To'siq qo'yilgan" bo'lim, davlat qisqa muddatli obligatsiyalari, "depo" hisobvarag'i, auktsion, foydalilik, likvidlilik, kapitalni oshirish manbai, xatar (risk), passiv strategiya, aktiv strategiya, "zinapoya" usuli, "shtanga" usuli, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar, sifat reytingi, nominal va bozor qiymati, sotib olish yoki sotish sanasi, foiz stavkalari, skidkalar, dividendlar yoki foiz daromadlari, oldi-sotdi bitim.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida qanday vazifalarni amalga oshiradi?
2. Dunyoning boshqa mamlakatlarida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida tutgan o'rni va ahamiyati.


3. Tijorat banklarining milliy fond bozorida ishtirok etishining asosiy maqsadlari.
4. Milliy fond bozorida tijorat banklari faoliyatining faollashuviga sabab bo'lgan eng muhim omillarga nimalar kiradi?
5. Qimmatli qog'ozlar fundamental tahlili deganda nima tushuniladi?
6. Fond instrumentlarining investitsion jozibadorligini baholashda qanday yo'nalishlardan foydalanish mumkin?
7. Fundamental tahlilni qanaqa bosqichlarga ajratish mumkin?
8. Xalqaro amaliyotda fundamental tahlilda asosan qanaqa koeffitsientlardan foydalaniladi?
9. Qimmatli qog'ozlar texnik tahlili deganda nima tushuniladi?
10. Texnik tahlil maktabi tarafdorlari o'z uslublarining qanaqa afzallik tomonlarini ko'rsatishadi?
11. Texnik tahlil tarafdorlari qimmatli qog'ozlarni tahlil qilishda qanday tamoyillarga asoslanadi?
12. Depozit sertifikat - bu nima?
13. Depozit sertifikatlari qanaqa shakllarda muomalaga chiqarilishi mumkin?
14. Amaldagi qonunchilikka asosan aktsiyalar emissiyasi qanday hollarda amalga oshiriladi?
15. Tijorat banklari jami imtiyozli aktsiyalarining nominal qiymati bank ustav kapitalining necha foizidan oshmasligi lozim?
16. Tijorat banklarining muomalaga chiqaradigan naqd aktsiyalari qanaqa talablarga javob berishi shart?
17. Muomalaga chiqarilgan aktsiyalarni joylashtirish qanaqa shartlar asosida amalga oshiriladi?
18. Qimmatli qog'ozlar chiqarilishining davlat ro'yhatiga olinishi qanday holatlarda bekor qilinadi?
19. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bozorida dilerlik maqomiga nomzodlar qanday talablarga javob berishi shart?
20. Dilerlikka nomzodlarning arizalari qanday holatlarda ko'rib chiqilmaydi?
21. Buyurtmalar qanday shartlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi?
22. Investitsiya portfelini boshqarish o'z ichiga nimalarni oladi?
23. Tijorat banklari investitsiya siyosatini ishlab chiqishda va investitsiya portfelining hajmi hamda uning tarkibini aniqlashda nimalarga e'tibor qaratishlari lozim?
24. Xalqaro bank amaliyotida investitsiya faoliyati jarayonida qanaqa strategiyalardan foydalaniladi?
25. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya portfeli o'z ichiga qanaqa ma'lumotlarni olishi kerak?

## **V Bob. TIJORAT BANKLARINING MAJBURIYATLARI, LIKVIDLIGI VA TO'LOVGA LAYOQATLILIGI TAHLILI**

### **5.1. Tijorat banklari majburiyatlarining shakllanishi va ular holatining tahlili**

Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini depozit va omonatlarda saqlash uchun jalb qiladilar. Tijorat banklarining yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini jalb qilishga oid operatsiyalari passiv operatsiyalar bo'lib, u bankning kredit mablag'larini shakllantirishda, ya'ni aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bank depozitlari va omonatlaridagi mablag'lar, konta-korrent va korrespondentlik hisobvaraqlaridagi mablag'lar bankning jalb qilingan mablag'lari tarkibiga kiradi. Yuridik shaxslar xohlagan tijorat banklarida o'zlarining talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarini ochishlari mumkin. Ular ushbu hisobvaraqlardan xomashyo va materiallar sotib olish uchun mol etkazib beruvchilarga hamda soliqlarni to'lash uchun byudjetga pul mablag'larini o'tkazadilar. Ushbu hisobvaraqlarga xaridorlardan sotilgan tayyor mahsulotlar uchun to'lovlar kelib tushadi va yuridik shaxslar mazkur hisobvaraqlardan o'z kassasiga xodimlarining mehnat haqi va xizmat safari xarajatlarini to'lash maqsadida chek asosida pul mablag'larini oladilar. Shunday qilib, talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlarda bank mijozlari o'zlarining vaqtinchalik bo'sh pul mablag'larini saqlaydilar va ushbu hisobvaraqlar bo'yicha barcha operatsiyalarini tegishli hujjatlarga asosan amalga oshiradilar. Yuridik shaxslar bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'ini hisob-kitob hisobvarag'i deb yuritadilar. Ularning hisob-kitob hisobvaraqlarida har doim ma'lum darajada mablag'lar qoldig'i bo'lishi mumkin. Tijorat banklari o'z mijozlarining bunday mablag'lari hisobidan kredit mablag'larini to'ldirishga harakat qiladilar. Shuning uchun tijorat banklari o'z mijozlari tarkibida talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqida yirik mablag'lar aylanadigan mijozlarni imkoni boricha ko'paytirishga va bunday mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida barcha qulayliklarni yaratib berishga harakat qiladilar.

Tijorat banklari majburiyatlarining tarkibini quyidagi chizma yordamida ko'rishimiz mumkin (1-chizma):



Tijorat banklari majburiyatlarining tarkibida bank omonatlari ham salmoqli o'rnini egallaydi. Banklar aholidan vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilish maqsadida bank omonatlarining bir qancha turlarini joriy qiladilar. Hozirgi vaqtda bankning moliyaviy holati yaxshi bo'lgan mijozlariga kanta-korrent hisobvaraqlar ochilib, barcha hisob-kitoblarni ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishi mumkin. Bu hisobvaraqda mijozning o'z mablag'lari bilan birga chetdan jalb qilingan qarz majburiyatlari ham hisobga olib boriladi. Shuning uchun bu hisobvaraqning qoldig'i ham debet ham kredit tomonlarda bo'lishi mumkin. Qoldiq hisobvaraqning debetida bo'lsa, mijoz ushbu summaga bankdan qarz ekanligini va bu summa bo'yicha belgilangan stavkada bankka foiz to'lashi lozimligini bildiradi. Qoldiq hisobvaraqning kreditida bo'lsa, mijozning ushbu hisobvaraqida mablag'i borligini bildiradi.

Tijorat banklarining kreditga yo'naltiriladigan mablag'larini ko'paytirish manbalaridan yana biri bu banklararo kreditlardir. Bunda tijorat banklari o'zaro kelishgan holda korrespondentlik hisobvaraqi ochadilar. Bu hisobvaraqdan kredit beruvchi bank kredit oluvchi bank topshirig'iga asosan hisob-kitoblarni amalga oshirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklari kredit mablag'larining joriy holatini doimiy ravishda kuzatib boradi va pul-kredit

siyosatidan kelib chiqqan holda tijorat banklari likvidligini saqlash maqsadida, qayta moliyalash tariqasida ularga kredit ajratadi. Markaziy bank “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunning 30-moddasiga binoan o‘zi belgilagan shartlarda banklarga kredit berishga haqli, bunda quyidagi aktivlar garovga qo‘yilishi mumkin:

- oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;
- davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari;
- Markaziy bankda depozitga o‘tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo‘lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan yoki Markaziy bank ular bilan ushbu qonundoirasida boshqa xil operatsiyalar o‘tkazishi mumkin bo‘lgan aktivlar;
- to‘lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellari.

***Eslatma: O‘zbekiston Respublikasi hududida veksellar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish man qilingan.***

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklariga lombard krediti berishi mumkin. Lombard krediti O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 22 avgustdagi 416-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklarga lombard krediti berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan beriladi. Lombard krediti banklarni qayta moliyalash shakllaridan biri bo‘lib, u DQMO larni garovga qo‘yish yo‘li bilan beriladi. Kreditlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1996 yil 20 aprelda tasdiqlangan 41-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kredit resurslari kim oshdi savdolarini o‘tkazish tartibi”ga muvofiq joylashtirilib, Markaziy bank hududiy Bosh boshqarmalari va tijorat banklari o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Unda tomonlarning nomi, o‘zaro majburiyatlari, iqtisodiy mas’uliyatlari, kreditni berish va qaytarish tartibi, foiz stavkasi, uni o‘zgartirish shartlari va boshqa masalalar yozilgan bo‘ladi. Kreditni olgan tijorat banklari kreditdan foydalanish va uning holati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Pul-kredit siyosati” departamentiga ma’lumotnoma taqdim etib turadi.

## **5.2. Tijorat banklari majburiyatlaridan samarali foydalanishning tahlili**


Tijorat banklari aktivlari manbaining katta qismini bank majburiyatlari tashkil qiladi. Bank majburiyatlari bankning jismoniy shaxslardan omonatlarga va yuridik shaxslardan depozitlarga qabul qilingan mablag‘lari, boshqa banklardan olgan kreditlari va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan olgan ssudalaridan tashkil topishi mumkin.

Shu o‘rinda biz quyidagi yirik aktsiyadorlik tijorat banklarining tashkil etilishiga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik (4-rasm)<sup>1</sup>:

---

<sup>1</sup> Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua - Toshkent: Iqtisodiyot. – 2010 yil, 87-88 betlar.

«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki – iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik xarakatini qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustaxkamlash, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarini jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish maqsadida 2009 yil 30 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Agrobank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori asosida «Paxtabank» aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.



4-rasm

«Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat banki – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturiga muvofiq 2009 yil 30 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq qurilish bank» Aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq «G'alla-bank» aksiyadorlik tijorat banki negizida «Qishloq qurilish bank» Aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. «Qishloq qurilish bank» Aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so'm miqdorida shakllantirilgan.

Tijorat banklari majburiyatlarining holatini tahlil qilganda, bank majburiyatlarining umumiy summasi hisobot davrida qancha va qanday o'zgarganligini aniqlash lozim bo'ladi. Masalan, «Bank axborotnomasi» gazetasining 2009 yil aprel oyidagi sonida e'lon qilinishicha, AT «Savdogarbank» jami majburiyatlarining qoldig'i 2007 yil 31 dekabr holatiga 35826814 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2008 yil 31 dekabr holatiga esa 33073139 ming so'mni tashkil etgan, ya'ni bankning jami majburiyatlari yil davomida 2753675 (35826814-33073139) ming so'mga kamaygan. Ushbu holat bo'yicha aniq xulosa chiqarish uchun bank majburiyatlari aynan qaysi omillar hisobiga kamayganligini, buning sabablarini,

qachon sodir bo'lganligini va bu o'zgarish bankning korporativ boshqaruv faoliyatiga qanday ta'sir qilganligini aniqlash lozim.

Mazkur gazetada e'lon qilingan boshqa tijorat banklarining majburiyatlari esa ko'paygan. Masalan, AT "O'z sanoatqurilishbank"ning jami majburiyatlari 2007 yil 31 dekabr holatiga 281670176 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2008 yil 31 dekabr holatiga esa 365958573 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni bankning jami majburiyatlari yil davomida 84288397 ming so'mga ko'paygan. Xuddi shuningdek, AT "Aloqabank"ning jami majburiyatlari ham 2007 yil 31 dekabr holatidagi 15806071 ming so'mdan 2008 yil 31 dekabr holatiga 21648430 ming so'mga ko'tarilgan, ya'ni bankning jami majburiyatlari yil davomida 5842359 ming so'mga, boshqacha aytadigan bo'lsak 37 foizga ko'paygan. AT "Savdogarbank" majburiyatlarining yil davomida qaysi omillar hisobiga kamayganligini bilish uchun bank majburiyatlarining tarkibini tahlil qilib ko'rishimiz mumkin (13-jadval).

13- jadval

### AT "Savdogarbank" majburiyatlarining 2007-2008 yillar davomida o'zgarishi

T/r	Bank majburiyatlari	2007 yil		2008 yil		O'zgarishi	
		Summasi (mln. so'm)	Hissasi (%)	Summasi (mln. so'm)	Hissasi (%)	Mutloq summada (mln. so'm) (+; -)	Foizda (%)
1	Talab qilib olinguncha omonatlar	20778,3	58,0	11804,9	35,7	-8973,4	56,8
2	Jamg'armali omonatlar	276,1	0,8	293,1	0,9	+17,0	106,2
3	Muddatli omonatlar	5198,4	14,5	8206,1	24,8	+3007,7	157,9
4	Hukumat hisobvaraqlari	934,0	2,6	1527,2	4,6	+593,2	163,5
5	Jalb qilingan mablag'lar bo'yicha jami majburiyatlar (1q+2q+3q+4q)	27186,8	75,9	21831,3	66,0	-5355,5	80,3
6	O'zR Markaziy bankiga to'lanadigan mablag'lar	90,7	0,2	-	-	-90,7	-
7	Boshqa banklarga to'lanadigan mablag'lar	-	-	1590,0	4,8	+1590,0	-
8	Boshqa tashkilotlarga to'lanadigan mablag'lar	8372,9	23,4	9116,1	27,6	+743,2	108,9
9	Soliqlar bo'yicha majburiyatlar	105,0	0,3	138,8	0,4	+33,8	132,2
10	Boshqa majburiyatlar	71,4	0,2	396,9	1,2	+325,5	555,9
	Jami majburiyatlar (5q+6q+7q+8q+9q+10q)	35826,8	100	33073,1	100	-2753,7	92,3

Izoh: Jadvalda keltirilgan raqamlar misol tariqasida olindi.



Jadval ma'lumotlari AT "Savdogarbank" majburiyatlari tarkibida 2008 yil davomida qanday o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatib turibdi. Yuqorida yozilganidek, tahlil qilinayotgan davrda majburiyatlarning 2753,7 mln. so'mga kamayishi, jami jalb qilingan mablag'lar summasining 5355,5 mln. so'mga kamayishi hisobiga vujudga kelgan. Lekin jalb qilingan mablag'lar tarkibini o'rganib chiqqanimizda, talab olinguncha omonatlar summasi 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 8973,4 mln. so'mga kamayganligini ko'rsatmoqda. Albatta buning sabablari juda ko'p va turlicha bo'lishi mumkin. Chunki biz bank majburiyatlarini respublika miqiyosida tahlil qilayapmiz. Bunda AT "Savdogarbank" mijozlarining hisobvaraqlarida mablag'lar kam bo'lganligi, ularning mablag'lari tahlil qilinayotgan davrda kamayib, moliyaviy holati yomonlashgan yoki bankning ayrim mijozlar AT "Savdogarbank" filiallari ko'rsatayotgan xizmatlardan qoniqmay boshqa banklarga o'tib ketgan bo'lishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, jamharmali va muddatli omonatlarga jalb qilingan mablag'lar summasi hisobot davrida ko'paygan. Ayniqsa, muddatli omonatlarga jalb qilingan mablag'lar summasining 2008 yil davomida 157,9 foizga ko'payishi taqsiqsa sazovordir. Agar tahlil qilinayotgan davrda bankning talab qilib olinguncha omonatlari summasi 8973,4 mln. so'mga kamaymaganda AT "Savdogarbank"ning jami majburiyatlari summasi 2008 yil 31 dekabr holatiga 33073,1 mln. so'm emas, balki 42046,5 mln. so'mni tashkil etgan bo'lardi.

### **5.3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari**

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bank tizimining mustahkam faoliyat yuritishiga bog'liqdir. Tijorat banklari faoliyati bank balansining likvidligi bilan baholanadi. "Likvidlik" atamasi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "oquvchan", "suyuqlik" ma'nolarini anglatadi. Tijorat banklari likvidligi deganda, bankning mavjud aktivlari bilan uning omonatchilar va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatiga aytiladi. Shuning uchun tijorat banklarining aktivlarini pul mablag'lariga aylanishiga qarab turli likvidlik darajasiga ega bo'lgan aktivlarga ajratishimiz mumkin. Tijorat banklarining aktivlari va passivlari balans tuzilgan ma'lum bir sanaga aniqlanganligi uchun banklarning likvidligi ularning balansi bo'yicha aniqlanadi. Shuning uchun ko'pincha tijorat banklarining likvidligi emas, balki bank balansining likvidligi deb ham ataladi.

Bozor munosabatlari sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari tijorat banklari ham yuqori foyda olgan holda ishlashga harakat qiladilar. Lekin bozor mexanizmlaridan qonunga zid bo'lmagan holda foydalanib bank aktivlarini to'g'ri joylashtirish, yuqori foyda olib ishlash va bir vaqtning o'zida yuqori likvidlikni ta'minlab turish murakkab masaladir. Shuning uchun tijorat banklarining likvidligi va ularning bir maromda faoliyat yuritib borishlarini nafaqat ushbu banklarning rahbariyati, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki orqali hukumat ham nazorat va tahlil qilib boradi. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, bank mablag'larining katta qismi omonatda saqlanayotgan mablag'lardan tashkil topadi. Tijorat banki mijozlarning omonatlarda saqlanayotgan mablag'larini belgilangan muddatlarda qaytara olmasa, u holda mijozlarning ushbu bankka bo'lgan ishonchi yo'qoladi. Bu

holat butun bank tizimi uchun xavfli bo'lib, jamoatchilik tijorat banklari joriy qilayotgan yangi omonatlar va depozitlarga o'z mablag'larini qo'yishdan bosh tortadi. Ushbu holatning oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998 yil 2 noyabrdagi 421-sonli "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizomda har bir tijorat bankida mablag'larni boshqarish qo'mitasi tashkil etilishi, unga bank boshqaruvi raisi rahbarlik qilishi va ushbu qo'mita a'zolari likvidlikni samarali boshqarishni ta'minlash uchun bankning kunlik balansi bo'yicha har kuni likvidlikni nazorat qilib borishi va haftasiga bir marta yiqilib likvidlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berishi lozimligi ta'kidlangan.


Tijorat banklarining to'lovga layoqatliligi asosan ular balansining likvidligiga bog'liq. Umuman olganda bank aktivlari ularning majburiyatlarini to'lashga yetarli bo'lsa, ushbu bank to'lovga layoqatli, aks holda esa to'lovga layoqatsiz hisoblanadi. Shunday qilib, tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bank balansi asosida aktivlarning likvidlik darajasiga baho berish;
- bankning likvidlik ko'rsatkichlarini aniqlash va ular o'zgarishini o'rganish;
- bank aktivlarining joylanishi va mablag'lar jalb qilishning o'zgarishini o'rganish;
- bankning likvidlik ko'rsatkichlari asosida bank likvidligini baholash va uni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish;
- bankning to'lovga layoqatlilik ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishini o'rganish.

### **Tijorat banklari aktivlarini likvidlik darajasi bo'yicha guruhlash**

Tijorat banklari faoliyat yuritishlari uchun kerakli miqdorda bank aktivlariga ega bo'lishlari lozim. Bank aktivlarining asosiy qismi mijozlarga turli muddatga berilgan kreditlar, bank kassasidagi naqd pullar, korrespondentlik hisobvarag'idagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'lar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa aktivlardan tashkil topadi. Ma'lumki, yuqorida sanab o'tilgan bank aktivlarining likvidlik darajasi turlichadir. Biz bank kassasidagi naqd pullarni bank majburiyatlarining muddati kelganda ularni to'lashga tayyor holatda deb baholasak, asosiy vositalarni esa bunday guruhga kirita olmaymiz. Chunki asosiy vositalarni pul mablag'lariga aylantirib, bank majburiyatlarini to'laguncha ma'lum bir vaqt o'tadi. Shunda ham sotuvga qo'yilgan asosiy vositalarning balans qiymatida sotilishiga hech qanaqa kafolat yo'q. Bu muammoli holat bo'lib tahlil qilishni toqazo etadi.

Tijorat banklarining aktivlari likvidlik darajasi bo'yicha 4 ta guruhga bo'linadi (2-chizma):



**1-guruh: Juda tez likvidlanadigan aktivlar.** Bularga bank kassasidagi naqd pullar, korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari, qimmatbaho metallar va boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlardagi pul mablag'lari kiradi. Ushbu aktivlar bank majburiyatlarini to'lashga tayyor holatda bo'lgan yoki pul mablag'lariga aylantirish juda oson bo'lgan mablag'lardir.

**2-guruh: Tez likvidlanadigan aktivlar.** Bunday aktivlarga bankning qisqa muddatli kreditlari (bir oygacha bo'lgan), qimmatliqog'ozlarga qo'yilgan mablag'lar, qisqa muddatli debitorlik qarzlari va shu kabi boshqa aktivlar kiradi. Bunday aktivlarning ushbu guruhga kiritilishiga sabab, ularning muddati juda qisqa bo'lib, bir

oy ichida bankka qaytib kelishi nazarda tutiladi. Lekin bu erda shuni ham hisobga olish lozimki, ushbu aktivlarning ayrimlari, masalan bankning qisqa muddatli kreditlari o'z vaqtida qaytmasligi mumkin. Shuning uchun bu guruhga aktivlarni kiritayotganda ularning haqiqiy holatiga ahamiyat berish kerak bo'ladi.

**3-guruh: Sekin (o'rtacha) likvidlanadigan aktivlar.** Bunday aktivlarga boshqa guruhlarga kirmagan bankning qisqa muddatli kreditlari (bir yilgacha bo'lgan), qimmatliqog'ozlarga qo'yilgan mablag'lar va shu kabi boshqa aktivlar kiradi.

**4-guruh: qiyin likvidlanadigan aktivlar.** Bularga asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli kreditlar va boshqa uzoq muddatli bank investitsiyalarini kiritish mumkin.

#### **5.4. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari va ularni baholash**

Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilishda, avvalambor bank balansi tarkibini o'rganish lozim. Tijorat banklarining balansi quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

- 1) Aktiv (1 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar);
- 2) Majburiyat (2 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar);
- 3) Kapital (3 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar);
- 4) Daromad (4 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar);
- 5) Xarajat (5 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar);
- 6) Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar (9 raqami bilan boshlanadigan hisobvaraqlar).

Tijorat banklari balansining "Aktiv" bo'limida bankning balans tuzilgan sanaga mavjud bo'lgan mablag'lari, "Majburiyat" bo'limida bankning balans tuzilgan sanaga mavjud bo'lgan majburiyatlari va "Kapital" bo'limida balans tuzilgan sanaga mavjud bo'lgan bank kapitali ko'rsatiladi va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining balansi va buxgalteriya hisobvaraqlari rejasi 1997 yildan xalqaro andozalarga moslashtirilgan bo'lib, balans aktivlari ularning likvidlik darajasi bo'yicha, majburiyatlari esa ularning to'lov muddatlariga qarab joylashtirilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 2 noyabrda tasdiqlangan "Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida"gi nizomda barcha tijorat banklari joriy likvidlik me'yorlarini bajarishlari lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda tijorat banklarining likvidligi quyidagi koeffitsientlar bilan ifodalanadi:

- Lahzali likvidlik koeffitsienti (LLK);
- Joriy likvidlik koeffitsienti (JLK);
- Qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti (QMLK).

Lahzali likvidlik koeffitsienti tijorat banklari yuqori likvidli mablag'larining (bularga bank kassasidagi naqd pul mablag'lari va korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari kiradi) joriy majburiyatlarga nisbati bilan aniqlanadi. Lahzali likvidlik koeffitsientini tijorat banklari har kuni tahlil qilib borishlari lozim. Ushbu koeffitsientning minimal miqdori 0,25 deb qabul qilingan.

$$LLK = \frac{BKNPM + KHPM}{JM}$$

Bu erda:

LLK - Lahzali likvidlik koeffitsienti;

BKNPM - Bank kassasidagi naqd pul mablag'lari;

KHPM - Korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari;

JM - Joriy majburiyatlar.

Joriy likvidlik koeffitsienti joriy aktivlarning (bankning muddati bir oygacha bo'lgan barcha likvid aktivlari, shuni ta'kidlash lozimki, bir marta bo'lsada muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tib ketgan kreditlar bundan mustasno) talab qilib olinguncha omonatlar va ijro etish muddati bir oygacha bo'lgan majburiyatlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy mazmuniga ko'ra tijorat banklarining joriy aktivlari hisobidan joriy majburiyatlarini qay darajada qoplay olishini ko'rsatadi. Bankning joriy majburiyatlariga talab qilib olinguncha omonatlar, joriy oyda to'lanishi lozim bo'lgan (olingan) kreditlar va boshqa shu kabi majburiyatlar kiradi. Joriy likvidlik koeffitsientining minimal miqdori 0,3 deb qabul qilingan.

$$JLK = \frac{JA}{TQOO + MBOBM}$$

Bu erda:

JLK - Joriy likvidlik koeffitsienti;

JA - Joriy aktivlar;

TQOO - Talab qilib olinguncha omonatlar;

MBOBM - Muddati bir oygacha bo'lgan majburiyatlar.

Qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank aktivlarini muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank majburiyatlari va bank kapitaliga nisbati bilan aniqlanadi.

$$QMLK = \frac{MBOBYBBA}{MBOBYBBM + BK}$$

Bu erda:

QMLK - qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti;

MBOBYBBA – Muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank aktivlari;

MBOBYBBM - Muddati bir oydan bir yilgacha bo'lgan bank majburiyatlari;

BK - bank kapitali.

Tijorat banklarining likvidligini tahlil qilishda, yuqorida keltirilgan likvidlik koeffitsientlarining belgilangan me'yorlardan kam emasligi o'rganiladi ( $LLK > 0,25$ ;

JLK>0,3) hamda ular o'tgan davrlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, ularning o'zgarishi aniqlanadi. Tahlildan tegishli xulosalar chiqarilib, bank likvidligini yaxshilash bo'yicha choralar ko'riladi.

Shu o'rinda tahlildan asosiy maqsad tijorat banklarining likvidligini muntazam ravishda kuzatib borish va ularning likvidligini ta'minlashdan iboratdir. Tijorat banklarining likvidligini muntazam ravishda ta'minlab borish murakkab jarayon bo'lib, jahonda bu borada bir necha usullardan foydalaniladi. Bu usullarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- aktivlarni boshqarish yo'li bilan bank likvidligini ta'minlash;
- jalb qilingan mablag'lar asosida likvidlikni ta'minlash (passivlarni boshqarish yo'li bilan);
- bank aktivlari va passivlari muvozanatini saqlagan holda likvidlikni ta'minlash.

Bank aktivlarini boshqarish yo'li bilan likvidlikni ta'minlashda bankda yuqori likvidli aktivlar ko'proq jamg'ariladi (korrespondentlik hisobvaraqidagi pul mablag'lari, juda qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar va kreditlar). Bu usul asosan kichik banklarda qo'llaniladi hamda aktivlardan samarali foydalanishni ma'lum darajada chegaralaydi.

Jalb qilingan mablag'lar asosida likvidlikni ta'minlashda bank juda tez sotiladigan aktivlarni qarzga olishi lozim. Agar bank likvidligi pasayadigan bo'lsa, ushbu aktivlarni tezda qaytarish yoki qaytadan sotish mumkin bo'ladi. Lekin narx-navo o'zgarib turgan davrda bu usulning xatarlilikini hisobga olish lozim bo'ladi.

Bank aktivlari va passivlari muvozanatini saqlagan holda likvidlikni ta'minlash eng qulay usul bo'lib, bunda bank rahbariyatidan aktivlar va passivlarni boshqarishda doimiy nazorat va mahorat talab qilinadi. Bu usulda ma'lum miqdorda juda tez likvidlanadigan aktivlar (qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar sifatida) saqlab turiladi. Zaruriyat tuqilganda, bu aktivlarni sotish va pul mablag'lariga aylantirish mumkin bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bankning jalb qilingan mablag'lari (passivlari) ham nazorat qilib boriladi va ularning juda tez likvidlanadigan aktivlarga muvofiqligi ta'minlab turiladi.

**Tayanch iboralar:** bank majburiyatlari, bank majburiyatlaridan samarali foydalanish, talab qilib olinguncha omonatlar, jalb qilingan mablag'lar, kredit mablag'lari, bank likvidligi, bankning to'lovga layoqatliligi, tez likvidlanadigan aktivlar, sekin (o'rtacha) likvidlanadigan aktivlar, qiyin likvidlanadigan aktivlar, lahzali likvidlik koeffitsienti, joriy likvidlik koeffitsienti, qisqa muddatli likvidlik koeffitsienti, likvidlik koeffitsientlari, bank aktivlari, bank passivlari, aktivlar va passivlar muvozanati.

### Nazorat uchun savollar

1. Bank majburiyatlarining mohiyati va shakllanishi.
2. Talab qilib olinguncha omonatlarning mohiyati.
3. Muddatli omonatlarning mohiyati.
4. Jamg'armali omonatlarning mohiyati.

5. Bank majburiyatlarining holati va harakati tahlili.
6. Bank majburiyatlaridan samarali foydalanishning tahlili.
7. Tijorat banklari likvidligining mohiyati va ahamiyati.
8. Likvidlik so'zining ma'nosi nimani bildiradi?
9. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining vazifalari.
10. Tijorat banklari aktivlarini likvidlik darajasi bo'yicha guruhlash.
11. Tijorat banklarining juda tez va tez likvidlanadigan aktivlari.
12. Sekin (o'rtacha) likvidlanadigan aktivlarga nimalar kiradi?
13. Qiyin likvidlanadigan aktivlarga nimalar kiradi?
14. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari.
15. Lahzali va joriy likvidlik koeffitsientlarining mohiyati.
16. Qisqa muddatli likvidlik koeffitsientining mohiyati.
17. Tijorat banklari likvidligini boshqarish usullari.

## **VI Bob. TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI**

### **6.1. Tijorat banklarida moliyaviy natijalarning shakllanishi va tahlil qilish vazifalari**

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklari ham boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari o'z faoliyatidan olgan daromadlari hisobidan qilgan xarajatlarini qoplagan holda, ma'lum miqdorda foyda olib faoliyat yuritishlari lozim. Foyda tijorat banklari faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichdir. Tijorat banklarining foydasi (agar ular faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo'lsa, zarari) muayyan hisobot davrida (oy, chorak, yil) olingan daromadlardan qilingan xarajatlar, soliq va boshqa to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan summadir.

Tijorat banklarining daromadlari 2 guruhga bo'linadi:

- 1) Foizli daromadlar;
- 2) Foizsiz daromadlar.

Tijorat banklarining foizli daromadlariga mijozlarga berilgan qisqa va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha olingan foizlar, maboda berilgan kreditlar vaqtida qaytarilmagan bo'lsa, mijozlardan ushbu muddati o'tgan kreditlar bo'yicha yuqori stavkalarda olingan foizlar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalardan olingan va turli investitsiyalar bo'yicha olingan daromadlar kiradi.

Tijorat banklarining foizsiz daromadlariga bank xizmatlarini ko'rsatish natijasida olingan daromadlar hamda savdo va valyuta operatsiyalari bo'yicha olingan daromadlar kiradi.

Tijorat banklarining moliyaviy natijalarini tahlil qilishda foydaning asosiy manbai bo'lgan ushbu daromad turlarining tarkibi va o'zgarishini chuqur o'rganish lozim.

Tijorat banklarining xarajatlari ham 2 guruhga bo'linadi:

- 1) Foizli xarajatlar;
- 2) Foizsiz xarajatlar.

Tijorat banklarining foizli xarajatlariga bank omonatlari va depozitlarga qo'yilgan mablag'lar, olingan kreditlar va qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlari hamda shu kabi boshqa foizli xarajatlar kiradi.

Tijorat banklarining foizsiz xarajatlariga ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, ko'rsatilgan xizmatlar (transport, suv, gaz, elektr energiyasi va shu kabilar) uchun va xodimlarning ish haqi uchun to'lanadigan xarajatlar kiradi.

Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlilida ushbu xarajatlar o'tgan davr ma'lumotlari bilan solishtiriladi, ularning o'zgarishlari aniqlanadi va hisobot davrida qay darajada tejamkorlikka rioya qilinganligi o'rganiladi. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari tahlili ularning daromadlari va xarajatlari tahlili bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi lozim. Bunda tahlil uchun ma'lumotlar asosan bankning buxgalteriya balansidan, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotidan, auditorlik tekshiruvi natijalaridan va majlis bayonnomalaridan olinadi. Agar zaruriyat tug'ilganda, buxgalteriya hisobining analitik yozuvlaridan ham foydalaniladi.

Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarining hisobot davrida olgan foydasini (yoki zararini) aniqlash;
- foydaning belgilangan reja va o'tgan davrlarga nisbatan farqini aniqlash;
- foydaning shakllanishini, ya'ni daromadlar va xarajatlar qanday o'zgarganligini o'rganish hamda ushbu o'zgarishlar sabablarini aniqlash;
- tijorat banklarining faoliyati davomida tejamkorlikka qay darajada rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishlarini o'rganish;
- tijorat banklarining daromadlarini oshirish va xarajatlarini kamaytirish yo'li bilan bank foydasini ko'paytirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va shu kabilar.

## **6.2. Tijorat banklari sof foydasining tahlili**

Tijorat banklarining sof foydasini tahlil qilishda bank daromadlari va xarajatlarining tarkibi o'rganiladi. Eng avvalo, hisobot davrida olingan sof foyda summasi reja ko'rsatkichi bilan taqqoslanib, o'zgarishi aniqlanadi va mavjud farqlarning sabablari o'rganiladi. Bank sof foydasini shakllantiruvchi daromadlar va xarajatlar tarkibi o'tgan yillar bilan taqqoslangan holda o'rganiladi.

AT "Savdogarbank" o'z faoliyati natijalarini 2008 yilda 564,0 mln. so'm sof foyda bilan yakunlagan. Respublika hududida ko'pgina bo'limlari bo'lgan ushbu bankning o'z faoliyatidan olgan bunday summadagi sof foydasiga baho berish uchun bankning hisobot yilidagi ma'lumotlarini o'tgan yildagi ma'lumotlar bilan taqqoslash kerak. AT "Savdogarbank"ning hisobotiga ko'ra



bank 2007 yilda bank 251,6 mln. so'm sof foyda olgan. Demak, AT "Savdogarbank" o'z faoliyatini 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 2,24 baravar ko'p sof foyda olish bilan yakunlagan. Ushbu o'zgarishning sababini aniqlash uchun bank daromadlari va xarajatlari tarkibini chuqur o'rganish va tahlil qilish zarur. Buning uchun quyidagi jadvalni ko'rib chiqamiz (14-jadval):

14-jadval

**AT "Savdogarbank" ning 2007-2008 yillar ma'lumotlari bo'yicha moliyaviy natijalari tahlili**

(mln. so'm)

T/r	Hisobot moddalari	2007 yil	2008 yil	O'zgarishi	
				Mutloq summada (+; -)	Foizda
1	Foizli daromadlar – jami	5541,9	7037,8	+1495,9	127,0
2	Foizli xarajatlar – jami	2491,5	3496,6	+1005,1	140,3
3	Sof foizli daromad	3050,4	3541,2	+490,8	116,1
4	Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan ehtimoliy zararlarga qarshi shakllantirilgan zaxirani baholash	381,6	185,0	-196,6	48,5
5	Zaxirani baholashni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan sof foizli daromad	2668,8	3356,2	+687,4	125,8
6	Foizsiz daromadlar – jami	1963,2	1912,2	-51,0	97,4
7	Operatsion xarajatlar – jami	3930,0	4241,3	+311,3	107,9
8	Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar)	702,0	1027,1	+325,1	146,3
9	Daromad (foyda) solig'i	450,4	463,1	+12,7	102,8
10	Sof foyda (zarar)	251,6	564,0	+312,4	224,2

*Izoh: Jadvalda keltirilgan raqamlar misol tariqasida olindi.*

Jadval ma'lumotlaridan AT "Savdogarbank"ning sof foydasi hisobot yilida qaysi moddalar hisobiga ko'payganligi va bank xarajatlari qanaqa o'zgarganligi ko'rinib turibdi. Bankning foizli daromadlari 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 27 foizga ko'paygan bo'lsa, foizli xarajatlari ushbu davrda 40,3 foizga ko'paygan. Demak, foizli xarajatlarning o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib, ushbu holat bank faoliyati uchun xavflidir. Natijada bankning sof foizli daromadi 2008 yilda 2007 yilga nisbatan faqat 16,1 foizga o'sgan. Bank kreditlar bo'yicha ko'rilishi

mumkin bo'lgan ehtimoliy zararlarga qarshi shakllantirilgan zaxiralarga 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 196,6 mln. so'm kam mablag' ajratgan bo'lib, shu yo'l bilan bank o'zining foizli daromadlari summasini biroz oshirgan. Lekin bankning foizsiz daromadlari 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 51 mln. so'mga kamaygan. Bankning operatsion xarajatlari 2008 yilda 2007 yilga nisbatan 311,3 mln. so'mga yoki 7,9 foizga ko'paygan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatayaptiki, AT "Savdogarbank"ning bo'limlarida foizli va foizsiz daromadlar turlarini ko'paytirishning ichki imkoniyatlarini topish lozim.

### 6.3. Tijorat banklarining rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili

Tijorat banklarining hisobot davrida olgan sof foydasi bo'yicha ular faoliyatining foydaliligiga baho berib bo'lmaydi, chunki tijorat banklari ustav kapitalining hajmiga ko'ra kichik, o'rta va yirik banklarga bo'linadi.

Misol. "A" bank hisobot yilida 640 mln. so'm, "B" bank esa hisobot yilida 680 mln. so'm sof foyda olgan. Ushbu holatda "B" bankni foydali ishlayapti, deb baholab bo'lmaydi. Chunki "A" bank faoliyati jihatidan kichik bank, "B" bank esa yirik bank bo'lishi mumkin. Shuning uchun tijorat banklarining rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari aniqlanadi va tahlil qilinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari nisbiy ko'rsatkichlar bo'lib, bankning sof foydasi summasini bankning barcha aktivlari va kapitali summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Tijorat banklari mavjud aktivlaridan samarali foydalanishni tahlil qilib borishlari lozim. Bank aktivlari turlicha bo'lib, ular bankning turli operatsiyalarida ishtirok etishi mumkin.

Tijorat banklari aktivlaridan samarali foydalanishni quyidagi umumiy ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilish mumkin:

1. Bank aktivlarining natijaviyligi (BAN);
2. Bank aktivlarining daromadliligi (BAD);
3. Bank aktivlarining tejamkorligi (BAT);
4. Bank aktivlarining foydaliligi (BAF).

**Bank aktivlarining natijaviyligi (BAN)** ko'rsatkichi bank mavjud aktivlaridan foydalanib, ularning har bir so'miga qancha so'mlik kredit aylanmasiga erishganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davridagi (oy, chorak, yil) kredit aylanmasi summasini bank aktivlarining o'rtacha summasiga bo'lish orqali topiladi:

$$BAN = \frac{KAS}{BAO'S}$$

Bu erda:

*BAN* - Bank aktivlarining natijaviyligi;

*KAS* – Kredit aylanmasi summasi;

*BAO'S* - Bank aktivlarining o'rtacha summasi.

Tijorat banklarining kredit aylanmasi deganda, bank tomonidan tahlil qilinayotgan hisobot davrida (oy, chorak, yil) mijozlarga berilgan va qaytarib olingan kreditlar summasi tushuniladi.

Misol. Tijorat banki hisobot yilida o'z mijozlariga 126 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari ajratgan va ushbu mablag'larni hisobot yili davomida qaytarib olgan. Bank aktivlarining o'rtacha summasi esa 41 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Berilgan ma'lumotlardan foydalanib bank aktivlarining natijaviyligi ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$BAN = \frac{KAS}{BAO'S} = \frac{126}{41} = 3,1$$

Mazkur tijorat bank aktivlarining natijaviyligi 3,1 so'mni tashkil qilgan.

**Bank aktivlarining daromadliligi (BAD)** ko'rsatkichi bank aktivlarining har bir so'miga hisobot davrida qancha so'mlik daromad olinganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davrida olgan barcha daromadlari summasini bank aktivlarining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BAD = \frac{BDS}{BAO'S}$$

Bu erda:

*BAD* - Bank aktivlarining daromadliligi;

*BDS* – Bank daromadlari summasi;

*BAO'S* - Bank aktivlarining o'rtacha summasi.

**Bank aktivlarining tejamkorligi (BAT)** ko'rsatkichi banklar mavjud aktivlaridan foydalanish uchun ularning har bir so'miga qancha so'mlik xarajat qilayotganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich bankning hisobot davridagi xarajatlari summasini bank aktivlarining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BAT = \frac{BXS}{BAO'S}$$

Bu erda:

*BAT* - Bank aktivlarining tejamkorligi;

*BXS* – Bank xarajatlari summasi;

*BAO'S* - Bank aktivlarining o'rtacha summasi.

**Bank aktivlarining foydaliligi (BAF)** ko'rsatkichi bank mavjud aktivlaridan foydalanib ularning har bir summasiga qancha so'mlik sof foyda olayotganligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davridagi sof foydasi summasini bank aktivlarining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BAF = \frac{BSF}{BAO'S}$$

Bu erda:

*BAF* - Bank aktivlarining foydaliligi;

*BSF* – Bankning sof foydasi;

*BAO'S* - Bank aktivlarining o'rtacha summasi.

Tahlil qilish jarayonida tijorat banklari mavjud aktivlarining har bir turidan qanday foydalanayotganligini ham alohida o'rganish mumkin. Masalan, tijorat banklari asosiy vositalardan, kreditga berilgan mablag'lardan, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'lardan va boshqa aktivlardan qanday foydalanayotganligini alohida tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Banklarning aktivlardan samarali foydalanishlarini boshqa banklarning xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslagan holda tahlil qilish ham mumkin.

Tijorat banklarining mavjud kapitalidan samarali foydalanishlari ham muntazam ravishda tahlil qilib boriladi. Bank kapitalidan samarali foydalanishni quyidagi umumiy ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilish mumkin:

1. Bank kapitalining natijaviyligi (BKN);
2. Bank kapitalining daromadliligi (BKD);
3. Bank kapitalining foydaliligi (BKF).

**Bank kapitalining natijaviyligi (BKN)** ko'rsatkichi bir so'mlik bank kapitaliga qancha so'mlik kredit aylanmasi to'g'ri kelishini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davridagi (oy, chorak, yil) kredit aylanmasi summasini bank kapitalining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BKN = \frac{KAS}{BKO'S}$$

Bu erda:

*BKN* - Bank kapitalining natijaviyligi;

*KAS* – Kredit aylanmasi summasi;

*BKO'S* - Bank kapitalining o'rtacha summasi.

Misol. Tijorat banki joriy yilda kreditning barcha turlari bo'yicha 18480 mln. so'mlik kredit aylanmasiga erishdi, bank kapitalining o'rtacha summasi 1540 mln.

so'ndan iborat. Demak, ushbu bank kapitalining natijaviyligi 12 so'mni tashkil qilgan, ya'ni:

$$BKN = \frac{KAS}{BKO'S} = \frac{18480}{1540} = 12$$

Bundan shunday xulosa chiqadiki, mazkur bank joriy yilda mavjud kapitalining har bir so'miga 12 so'mlik kredit aylanmasiga erishgan.

**Bank kapitalining daromadliligi (BKD)** ko'rsatkichi bankning mavjud kapitalidan foydalanib, uning har bir so'miga qancha so'mlik daromad olganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davrida olgan daromadi summasini bank kapitalining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BKD = \frac{BDS}{BKO'S}$$

Bu erda:

*BKD* - Bank kapitalining daromadliligi;

*BDS* – Bank daromadi summasi;

*BKO'S* - Bank kapitalining o'rtacha summasi.

Misol. Tijorat banki joriy yilda 5544 mln. so'mlik daromad olgan, bank kapitalining o'rtacha summasi 1540 mln. so'mni tashkil qiladi. Demak, bank kapitalining daromadliligi 3,6 so'mni tashkil qilgan, ya'ni:

$$BKD = \frac{BDS}{BKO'S} = \frac{5544}{1540} = 3,6$$

Bundan shunday xulosa chiqadiki, mazkur bank joriy yilda mavjud kapitalining har bir so'miga 3,6 so'mlik daromad olgan.

**Bank kapitalining foydaliligi (BKF)** ko'rsatkichi bankning mavjud kapitalidan foydalanib, uning har bir so'miga qancha so'mlik sof foyda olganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bankning hisobot davrida olgan sof foydasi summasini bank kapitalining o'rtacha summasiga bo'lib topiladi:

$$BKF = \frac{BSF}{BKO'S}$$

Bu erda:

*BKF* - Bank kapitalining foydaliligi;

*BSF* – Bankning sof foydasi;

*BKO'S* - Bank kapitalining o'rtacha summasi.

Misol. Tijorat banki joriy yilda 693 mln. so'm sof foyda olgan, bank kapitalining o'rtacha summasi 1540 mln. so'mni tashkil qilgan. Demak, bank kapitalining foydaliligi 0,45 so'mni tashkil qiladi, ya'ni:

$$BKF = \frac{BSF}{BKO'S} = \frac{693}{1540} = 0,45$$

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mazkur bank joriy yilda mavjud kapitalining har bir so'miga 0,45 so'mlik sof foyda olgan.

Tijorat banklari kapitalidan samarali foydalanishni ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar aniqlangandan so'ng o'tgan davrlardagi bunday ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi va tegishli xulosalar chiqariladi. Tahlil qilish jarayonida umumiy ko'rsatkichlardan tashqari, bank ustav kapitali va taqsimlanmagan foydasining o'zgarishini va ulardan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash lozim.

**Tayanch iboralar:** moliyaviy natijalar, tijorat banklarining daromadlari, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, foizli xarajatlar, foizsiz xarajatlar, daromadlar va xarajatlar tahlili, tahlilning asosiy vazifalari, sof foyda, daromadlar va xarajatlar tarkibi, sof foizli daromad, operatsion xarajatlar, daromad solig'i, rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari, bank aktivlari, samarali foydalanish, bank aktivlarining natijaviyligi, bank aktivlarining daromadliligi, bank aktivlarining tejamkorligi, bank aktivlarining foydaliligi, bank kapitali, bank kapitalining natijaviyligi, bank kapitalining daromadliligi, bank kapitalining foydaliligi.

### Nazorat uchun savollar

1. Tijorat banklari moliyaviy natijalarining shakllanishi.
2. Tijorat banklari foizli daromadlarining tarkibi.
3. Tijorat banklari foizsiz daromadlarining tarkibi.
4. Tijorat banklari foizli xarajatlarining tarkibi.
5. Tijorat banklari foizsiz xarajatlarining tarkibi.
6. Tijorat banklari moliyaviy natijalari tahlilining asosiy vazifalari.
7. Tijorat banklari sof foydasining tahlili.
8. Sof foizli daromadni aniqlash.
9. Zaxirani baholashni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan sof foizli daromadni aniqlash.
10. Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar bo'lgan foydani (zararni) aniqlash.
11. Hisobot davrida olingan sof foydani (zararni) aniqlash.
12. Tijorat banklarining rentabellik ko'rsatkichlari tahlili.

13. Bank aktivlarining natijaviyligi (BAN) ko'rsatkichini aniqlash.
14. Bank aktivlarining daromadliligi (BAD) ko'rsatkichini aniqlash.
15. Bank aktivlarining tejamkorligi (BAT) ko'rsatkichini aniqlash.
16. Bank aktivlarining foydaliligi (BAF) ko'rsatkichini aniqlash.
17. Bank kapitalining natijaviyligi (BKN) ko'rsatkichini aniqlash.
18. Bank kapitalining daromadliligi (BKD) ko'rsatkichini aniqlash.
19. Bank kapitalining foydaliligi (BKF) ko'rsatkichini aniqlash.

## GLOSSARIY

**Aval** – veksel bo'yicha qarzdorni o'z garoviga oluvchi shaxs. Bunday garov vekselning ustiga yoki ustiga qo'yilgan varaqa(alonje)ga imzo chekish shaklida beriladi. Bunday kafolat bergan shaxs (avalchi) qarzdor bilan birgalikda javobgar hisoblanadi.

**Addendum** - shartnomaga qo'shimchalar, to'ldirishlar kiritish mumkinligini bildiradigan so'z. Bu so'z shartnomalar ustiga yoziladi.

**Ajio** - veksel, pul, qimmatli qog'ozlarning nominal narxlaridan ko'tarilish tomonga o'zgarishi.

**Aktsept** - pul, hisob-kitoblar, tovar hujjatlari yoki tovarlarga haq to'lashga rozilik yoki haq to'lashni kafolatlash.

**Al-pari** - valyuta, qimmatli qog'ozlar, veksellarning nominal narxlari bozor, birja narxlari bilan baravarligi ko'rsatilishi.

**Auditor** - firma, kompaniya, aktsiyadorlik jamiyatlarining moliya-xo'jalik holatini shartnoma asosida tartibga keltiruvchi shaxs yoki firma. Auditorlar tekshirgan hujjatlar qonunchilik bo'yicha ishoniladi va qo'llaniladi.

**Autsayderlar** - yirik monopol firmalarga kirmaydigan korxonalar va muassasalar, mayda shirkatlar.

**Bank-emitent** - banknotlar, qimmatli qog'ozlar, to'lov-hisob hujjatlari chiqaradigan bank.

**Banknotlar** - emission banklar chiqaradigan foizsiz majburiy bank chiptalari; kredit pullarning asosiy turi.

**Benifitsiar bank** - bu to'lov operatsiyalarini oluvchi bank.

**Bonifikatsiya** - olib kelingan mahsulotlarning sifati shartnomada kelishilgan sifatiga ko'ra balandroq bo'lganda mahsulotlarga qo'yiladigan qo'shimcha narx.

**Bonus** - sotuvchi o'z mahsulotining narxini xaridor bilan kelishgan holda pasaytirishi (arzonlashtirishi).

**Bonn** - tomonlarning qisqa muddatli majburiyatlari.

**Broker** - xaridor bilan sotuvchi o'rtasidagi oldi-sotdi jarayonini bajaruvchi dallol.

**Valvatsiya** - xorijiy mamlakatlarning valyutasini milliy valyutaga taqqoslab bahosini bilish.

**Via** - Yukni, mahsulotni ko'rsatilgan yo'l bo'yicha manzilga etkazish (masalan, Via London - Toshkent).

«**Vostro**» **hisobvaraqlari** - xorijiy banklarning rezident bankdagi mahalliy valyutada yoki uchinchi mamlakat valyutasida ochilgan hisobvaraqlari.

**Gratis** - tekin, to'lovlarsiz bajariladigan jarayonlar, narsalar va xizmatlar.

**Debentura** - pul jarimasining qaytarib berilganligi to'g'risidagi bojxona guvohnomasi.

**Demping** - tovarlarni tashqi bozorda ichki bozordagiga nisbatan arzon narxlarda sotish; ba'zan tashqi bozorni egallash uchun tovarlarni tannarxidan, ishlab chiqarish xarajatlaridan past baholarda chetga chiqarish (raqobatda yutish uchun ham shunday qilinadi).

**Denonsatsiya** - shartnomadan voz kechish.



**Depozit yoki jamg'arma sertifikati** - bu element bankning belgilangan muddat tugashi bo'yicha pul mablag'lari va ular bo'yicha foizlarni to'lashi haqidagi yozma dalolati.

**Dilerlar** - qimmatbaho metallar, valyutalar, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan banklarning va fond birjalarining a'zolari; ular o'z hisobiga va o'z nomlaridan ish ko'radilar. Dilerlar o'zaro yoki brokerlar hamda mijozlar bilan shartnomalar tuzishlari mumkin.

**Jirat** - veksel o'tkazadigan shaxs.

**Jirobank** - bankda joriy raqamlari bor bo'lgan mijozlar o'rtasidagi hisob-kitob operatsiyalari bilan shug'ullanadigan bank.

**Taqiq tariflari** - tashqi bozorni aniq bir chet el tovarlarini (mollarini) olib kelib kiritishdan ehtiyotlash maqsadida qo'yiladigan bojxona pul jarimalarining yuqori stavkalari.

**Investitsiya** – bu sarmoyani qandaydir mustaqil korxonaga faoliyatiga ma'lum bir muddat(qisqa yoki uzoq)ga foydalanish yoki o'z ta'sirini o'tkazish maqsadida yoki mablag'larni ushbu sohaga kiritish shaxsiy operatsiyalarni amalga oshirishga nisbatan foydaliroq ekanligi munosabati bilan joylashtirish.

**Indeksatsiya** - inflyatsiya sharoitida pul talablari va turli daromadlarni saqlash usuli.

**Injining** - chet el buyurtmachisi bilan kontrakt bo'yicha loyihaoldi injener-qidiruv ishlari, ilmiy izlanishlar, texnikaviy topshiriqlar tuzish, loyiha takliflari, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa xarakterdagi bir qator ishlarni amalga oshirish.

**Kabotaj** - bir mamlakatning portlari orasida yuk va yo'lovchilarni dengiz orqali olib o'tish.

**Kafolat, kafillik** - bitim, unda kafolatchi qarzdorning kreditor oldida qarzdor tomonidan o'zining majburiyatlarini to'liqligicha yoki qisman ijro etishi bo'yicha majburiyatini oladi.

**Kleymslar** - etkazilgan tovarning sifati va holatidagi kamchiliklar tufayli xaridorning sotuvchiga da'volari, talablari va shikoyatlari.

**Kliring** - tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, xizmatlar uchun o'zaro majburiyat va talablarni hisobga olgan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar qilish tizimi. Banklararo kliring va xalqaro valyuta kliringlari mavjud.

**Konsalting** - maslahat va sifatli konsultatsiya beradigan xizmat.

**Kontokorrent hisobvarag'i** - bu yagona aktiv-passiv hisobvaraqlar.

**Korrespondentlik munosabatlari** - (lotincha "sorrespondeo" - javob beraman, xabar beraman so'zidan olingan) - banklar o'rtasida operatsiyalarni o'zaro bajarish maqsadidagi munosabatlar.

**Lizing** - mashina, asbob-uskuna, transport vositalari, ishlab chiqarish inshootlarini ijaraga olish. Lizingda ijarachining shartnoma muddati tugagandan so'ng uning asbob-uskunlarini qoldiq qiymat bo'yicha sotib olish mumkin.

**Likvidlik** – kredit-moliya majburiyatlari va qonuniy pulli talablarni muddatida, to'raligicha, hisoblangan foizlar bilan birga o'z vaqtida to'lash imkoniyati.

«Loro» hisobvaraqlari («ularning» hisobvarag'i) - korrespondent bank tomonidan respondent tijorat bank uchun ochiladigan, uning balansi passivida aks ettiriladigan joriy hisobvaraqlar.

**Markaziy bank** - bank tizimini davlat tomonidan tartibga solish idoralari: banklarni tashkil etish va tugatish, pul muomalasi, kredit, valyuta kursini tartibga solish, rasmiy oltin-valyuta zahiralari boshqarish kabi huquqlar berilgan bank. U banklarning banki bo'lib, davlat byudjetiga xizmat ko'rsatishda hukumatning vakili hisoblanadi.

**Marketing** - bozor holatini har tomonlama o'rganish va oldindan baholash asosida tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu tariqa yaxshi foyda topishni uyushtirish.

**Menejer** - firma, kompaniya yoki bankning boshqaruv rahbari, yollanma boshqaruv rahbari.

**Moliyaviy lizing** - bu bitimda uskuna yoki uning bir qismi amortizatsiyasining to'liq qiymati, qo'shimcha xarajatlar va lizing beruvchining xarajatlarini qoplovchi lizing to'lovlarini lizing davomida to'liq to'lanishi ko'zda tutiladi.

**«NOSTRO» hisobvaraqlari** («bizning» hisobvarag'imiz) - respondentning bankda ochgan hisobvaraqlari; bank birinchi shakldagi balans aktivida aks ettirilgan korrespondentning bankdagi joriy hisobvaraqlari.

**«Nou-xau»** - ishlab chiqarishning texnikaviy, konstruktorlik va boshqa sirlari; mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan texnikaviy, tijorat va boshqa bilimlar hamda ishlab chiqarish tajribasi (rasmiylashtirilgan, ammo patentlanmagan bo'ladi).

**Operativ lizing** - bu ijara munosabatlari bo'lib, ularda ijaraga beriladigan predmetlarni xarid qilish va saqlab turish bilan bog'liq lizing beruvchining xarajatlari va ijara to'lovlari bitta lizing davomida qoplanmaydi.

**Paritet** - turli mamlakatlar valyutalarining (tilla, kumush) miqdor birligi bo'yicha yoki xarid kuchi bo'yicha tengligi.

**Penalti** - shartnoma buzilgan holatlardagi to'lovlar.

**«Pul»** - vaqtincha tuzilgan monopol birlashma. Xo'jalik mustaqilligini Yuzaki saqlovchi «Pul» ishtirokchilari xarajat va foydalarni oldindan kelishilgan qonun-qoidalar orqali birgalikda bo'lib olishadi.

**Rezident** - soliq huquqlari bo'yicha faqat shu mamlakatga tegishli iqtisodiy hududda (kamida 1 yildan ortiqroq yashagan bo'lishi shart) yashab turgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Reyting** - obro'; shaxsning yoki korxonaning, uyushmaning iqtisodiy, siyosiy manfaatdorligi qaysi darajada ekanligining ko'rsatkichi.

**Renting** - mashina, uskuna va asboblarni qisqa muddatga - olti oygacha ijaraga olish (ammo, keyinchalik sotib olish huquqiga ega emaslik sharti bilan).

**Refaktsiya** - mahsulot sifati shartnomada kelishilgandan pastroq bo'lsa, narxning tushirilishi, pasaytirilishi.

**Royalti** - kelishilgan litsenziya shartnomasi davomida vaqti-vaqti bilan savdo-sotiq foydasidan foiz hisobidan to'lanadigan mukofot.

**Sertifikat** - u yoki bu faoliyat-amaliyot jarayonini tasdiqlaydigan hujjat.

**Subventsiya** - mahalliy hokimiyatga ajratilgan maqsadli moliyaviy nafaqalar (masalan, pul mablag'i faqat shifoxona qurish uchun ajratiladi).

**Tashabbuskor bank** - bu to'lov operatsiyalarini boshlovchi bank.

**Troya untsiyasi** - bozorlarda tillaning narxini bilib, pul bilan hisob-kitob qilish

uchun tilla og'irligining an'anaviy o'lchov birligi (31,1g).

**Faktoring** - bir qator komission vositachilik xizmatlari, faktor tomonidan mijozga tovarlar va xizmatlar uchun oxirgi hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida ko'rsatiladi va «qoidaga ko'ra», uning aylanma sarmoyasini kreditlash uchun beriladi.

**Franshiz** - sug'urta shartnomasining sharti; bunda sug'urtachining ayrim miqdordan oshirilmagan zarar to'lovlaridan ozod qilinishi ko'zda tutiladi.

**Xolding kompaniya** - boshqa firmalarni nazorat qilish va boshqarish maqsadida aktsiya nazorat paketlari bilan ta'minlangan kompaniya.

**Chek** - to'lovchining o'z bankiga o'zining hisob raqamidan ma'lum bir naqd pul summasini olish bo'yicha yozma farmoyishi.

**Elektron to'lovlar tizimi (ETT)** - bu umumdavlat to'lov tizimi u banklararo hisob-kitoblarni amalga oshiradi, qog'ozsiz texnologiyalar va elektron axborotlarni O'zbekiston Respublikasi Markazim bank elektron pochta vositalari bilan uzatishga asoslanadi.

**Embargo** - tilla va boshqa ko'rsatilgan qimmatbaho narsalarni olib kirishni yoki olib chiqishni davlat tomonidan man qiladigan farmoyish.

**Emissiya** - muomalaga barcha shakllardagi pul belgilarini chiqarish. Emissiyaning asosiy shakllari: kredit, pul-banknotlari emissiyasi; depozit-chek emissiyasi; qimmatli qog'ozlar emissiyasi.

**Qarz sarmoyasi** - foiz ko'rinishidagi to'lov uchun qaytarilish sharti bilan beriladigan pul mablag'lari.

**Qimmatli qog'ozlar** - pul hujjatlari hisoblanadi, ular bu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan hujjat egasining qarz huquqlari va munosabatlarini tasdiqlaydilar, qog'oz yoki elektron shaklda mavjud bo'lishi mumkin.

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY BANKI TO'G'RISIDA**

*(Ushbu qonunga 1998 yil 29 avgustdagi 681-I sonli, 1999 yil 15 apreldagi 772-I sonli O'zbekiston Respublikasi Qonunining X bobi bilan va O'zbekiston Respublikasi 2002 yil 15 dekabrda 175-II sonli Qonunining XII bobi, 2002 yil 13 dekabrda 447-II sonli Qonunining VIII bobi bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan)*

### **I. UMUMIY QOIDALAR**

#### **1-modda. Huquqiy maqom**

Markaziy bankning huquqiy maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati printsiplari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun hamda boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Markaziy bank yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutlaq mulkidir.

Markaziy bank - o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Markaziy bank va uning muassasalari O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhriga ega.

#### **2-modda. Mol-mulk**

Markaziy bankning mol-mulki uning pul va boshqa moddiy boyliklaridan iborat bo'lib, ularning qiymati Markaziy bank balansida aks ettiriladi.

Markaziy bank o'z balansida aks ettirilgan mol-mulkka qonun hujjatlarida belgilangan tartibda egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilishga haqli.

#### **3-modda. Bosh maqsadi va asosiy vazifalari**

Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

davlat byudjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir.

#### **4-modda. Markaziy bank uchun taqiqlangan faoliyat turlari**

Markaziy bank:

moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishga;

tijorat faoliyati bilan shug'ullanishga;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining, shuningdek Markaziy bank faoliyat yuritishini ta'minlovchi korxonalar va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishini istisno etganda, banklar va boshqa yuridik shaxslarning kapitallarida qatnashishga haqli emas.

#### **5-modda. Hisobdorlik**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi, Oliy Majlis:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga ko'ra Markaziy bank Raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;

yillik hisobotni, shuningdek auditorlik xulosasini ko'rib chiqadi.

Markaziy bank pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari to'g'risida har yili matbuotda ma'ruza e'lon qiladi.

#### **6-modda. Markaziy bankning mustaqilligi**

Markaziy bank o'z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir.

Davlat Markaziy bankning majburiyatlari Yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, basharti, ular o'z zimmlariga bunday majburiyatlarni olmagan bo'lsalar yoki qonunlarda boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

#### **7-modda. Normativ hujjatlar**

Markaziy bank o'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar ijro etishi majburiy bo'lgan normativ hujjatlar chiqaradi.

Markaziy bankning normativ hujjatlari, agar hujjatning o'zida o'zga qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

#### **8-modda. Tashkiliy tuzilish**

Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimidir.

Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etadi.

Markaziy bank Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti, viloyatlarning

markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan bosh boshqarmalar tuzadi.

Markaziy bankka qarashli xizmatlar va muassasalar Markaziy bank Boshqaruvi (bundan buyon matnda - Boshqaruv) tasdiqlaydigan nizomlar asosida faoliyat ko'rsatadi.

## **9-modda. Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Markaziy bank:

boshqa davlatlarning markaziy banklari, xalqaro banklar va o'zga moliya-kredit muassasalarida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilishga;

moliya operatsiyalari bajarishga, shu jumladan, chet el hukumatlari, chet el markaziy banklari va pul-kreditni tartibga solish organlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlarga bank xizmati ko'rsatishga;

xorijiy davlatlarda vakolatxonalar ochishga;

O'zbekiston Respublikasida chet el banklarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilishga haqlidir.

Markaziy bankning boshqa davlatlar banklari va kredit muassasalari bilan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek banklararo bitimlarga muvofiq amalga oshiriladi.

## **II. BANKNING MOLIYAVIY AHVOLI**

### **10-modda. Markaziy bankning ustav kapitali**

Markaziy bankning ustav kapitali miqdori ikki milliard so'mdan iborat. Ustav kapitali miqdori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qaroriga muvofiq oshiriladi.

Markaziy bankning ustav kapitali boshqa shaxslarga berilishi yoki undan zaklat sifatida foydalanilishi mumkin emas.

### **11-modda. Foydani aniqlash va taqsimlash**

Markaziy bankning foydasi har bir moliya yili uchun:

ishonchsiz, shubhali qarzlarni va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash rezervlari shakllantirilgandan so'ng;

umumiy qabul qilingan buxgalterlik amaliyotiga muvofiq amalda barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek aktivlar va passivlar baholanganidan so'ng aniqlanadi.

Markaziy bankning chet el valyutasi kursining yoki qimmatbaho metallar qiymatining o'zgartirishi natijasida oltin-valyuta rezervlarini qayta baholashdan hosil bo'ladigan realizatsiya qilinmagan daromadlari va xarajatlari oltin-valyuta rezervlariga oid operatsiyalar bo'yicha qayta baholash fondiga kiradi.

Markaziy bankning foydasi Boshqaruv belgilagan tartibda yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda taqsimlanadi.

Boshqaruvning qaroriga muvofiq aniq maqsadli turli rezervlar va fondlar shakllantirilishi mumkin.

Aniq maqsadga yo'naltirilgan rezervlar va fondlar belgilangan tartibda to'ldirilganidan keyin foydaning qolgan qismi respublika byudjeti daromadiga yo'naltiriladi.

Yillik hisobot ko'rib chiqilmaguncha foydaning respublika byudjetiga o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **12-modda. Markaziy bankning soliqlar, yig'imlar va bojlardan ozod qilinishi**

Markaziy bank va uning muassasalari soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlardan ozod qilinadi.

#### **13-modda. Hisobot berish**

Markaziy bankning hisobot davri 1 yanvar - 31 dekabr qilib belgilanadi. Yillik hisobot 15 maydan kechiktirilmay Oliy Majlis ko'rib chiqishi uchun taqdim etiladi.

#### **14-modda. Markaziy bankda auditorlik tekshiruvi**

Markaziy bankda auditorlik tekshiruvi mustaqil auditor tashkilotlar tomonidan har yili o'tkaziladi.

### **III. MARKAZIY BANKNI BOSHQARISH**

#### **15-modda. Markaziy bank Boshqaruvi**

Markaziy bankning oliy organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi.

#### **16-modda. Boshqaruv tarkibi**

Boshqaruv o'n bir kishidan iborat bo'ladi. Boshqaruv tarkibiga Markaziy bank Raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek bankning asosiy bo'linmalari rahbarlari kiradi.

Markaziy bank Raisi Boshqaruvning Raisi hisoblanadi. Boshqaruv a'zolarini (Markaziy bank Raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari bundan mustasno) Markaziy bank Raisining takdimnomasiga binoan Oliy Majlisning Kengashi tasdiqlaydi.

#### **17-modda. Boshqaruvning vakolatlari**

Boshqaruv quyidagi vakolatlarga ega:  
monetar siyosatning yo'nalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq

bozordagi operatsiyalari ko'lamini, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari normasini belgilaydi;

Markaziy bankning normativ hujjatlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi; banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi;

banklar uchun iqtisodiy normativlarni va kredit uyushmalari hamda garovxonalar uchun moliyaviy operatsiyalar o'tkazish qoidalarini tasdiklaydi, shuningdek ularga rioya etilishini ko'rib chiqadi;

bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyalar berish va ularni chaqirib olish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyati, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarish litsenziyalanishini amalga oshiradi;

Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi;

Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi;

Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;

Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi;

Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalarini rahbarlarini tasdiqlaydi;

Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda ma'ruzalarini tinglaydi;

Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga xaq to'lash shartlarini, shuningdek ularning kreditlar olishi va aksiyalar sotib olishi tartibini qonun hujjatlariga muvofiq belgilaydi;

Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

## **18-modda. Boshqaruvning majlislari**

Boshqaruvning majlislari oyiga kamida bir marta o'tkazib turiladi.

Boshqaruv majlislarini Markaziy bank Raisi chaqiradi. Majlislar, shuningdek Boshqaruvning kamida uchta a'zosining talabnomasi bo'yicha chaqirilishi mumkin.

Boshqaruv majlislariga Markaziy bank Raisi, u bo'lmagan paytlarda esa, o'rinbosarlaridan biri raislik qiladi.

Boshqaruv a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan Boshqaruv majlisi haqiqiy hisoblanadi. Boshqaruv qarorlari qatnashayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelgan taqdirda Markaziy bank Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Boshqaruv majlislari, qoida tariqasida yopiq tarzda o'tadi.



## **19-modda. Boshqaruvning qarori**

Boshqaruvning to'xtami qaror shaklida qabul qilinadi.

## **20-modda. Markaziy bank Raisi**

Markaziy bank Raisi:

Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo'ladi;

Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, ushbu Qonunga binoan Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

Boshqaruv qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi;

Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank nomidan ish ko'radi;

ayrim masalalarni hal qilishni o'zining o'rinbosarlariga, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalarining rahbarlariga, hududiy muassasalarning rahbarlariga topshiradi.

Markaziy bank Raisining vakolat muddati - besh yil.

Markaziy bank Raisi bo'lmagan paytda uning vazifalarini o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

## **21-modda. Markaziy bank Raisini egallab turgan lavozimidan ozod qilish uchun asoslar**

Markaziy bank Raisi quyidagi asoslar bo'yicha:

vakolat muddati tugaganida;

iste'foga chiqishni so'rab, sabablarini ko'rsatgan holda yozgan shaxsiy arizasiga ko'ra;

jinoiyat sodir qilishda qonunda belgilangan tartibda aybdor deb topilganda;

o'zining xizmat vazifalarini salomatligiga ko'ra bajara olmaganida, davlat tibbiy komissiyasining xulosasi asosida;

egallab turgan lavozimiga munosib bo'lmagan xatti-harakatlar qilganida, shu jumladan ushbu qonunni qo'pol ravishda buzganida va Markaziy bank manfaatlariga katta zarar etkazganida egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

Markaziy bank Raisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

## **22-modda. Markaziy bank Raisining o'rinbosarlari**

Markaziy bank Raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari Markaziy bank Raisining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

#### **IV. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT OPERATSIYALARI**

##### **23-modda. Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari**

Markaziy bank kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida o'ttiz kun oldin Oliy Majlisga bu haqda axborot beradi.

Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari:

iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini;  
muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini;

pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini;

valyuta xamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini;

pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi lozim.

##### **24-modda. Monetar ko'rsatkichlar o'zgartirishining aniq maqsadli mo'ljallari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasidagi pul-kredit, moliya, valyuta va narx munosabatlari holatidan kelib chiqib, bitta yoki bir qancha monetar ko'rsatkichlar o'zgarishlarining aniq maqsadli mo'ljallarini belgilashi mumkin.

##### **25-modda. Ochiq bozordagi operatsiyalar**

Markaziy bank o'zi chiqargan davlatning qimmatli qog'ozlarini, shuningdek qarz majburiyatlarini ochiq bozorda xarid qilishi va sotishi mumkin.

Markaziy bank har qanday darajadagi byudjetlarni moliyaviy ta'minlash uchun ochiq bozordagi operatsiyalardan foydalanishi, shuningdek davlat qimmatli qog'ozlari birlamchi joylashtirilganda ularni sotib olishi mumkin emas.

Ochiq bozordagi operatsiyalar limitini boshqaruv tasdiqlaydi.

##### **26-modda. Markaziy bankniig hisob operatsiyalari**

Markaziy bank qiymati to'lanishini banklar kafolatlagan qisqa muddatli xazina veksellari, shuningdek tijorat veksellari hisobini yuritishi mumkin.

Hisob operatsiyalarini o'tkazish shartlarini, shu jumladan hisob stavkasi miqdorlarini Markaziy bank belgilaydi.

##### **27-modda. Markaziy bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari**

Markaziy bank o'z operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilaydi.

## **28-modda. Majburiy rezerv talablari**

Markaziy bank o'zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida banklarga ko'rsatma beradi. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning normativ xujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir.

Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko'rinishida, Markaziy bank belgilaydigan tartibda depozitga o'tkaziladi. Majburiy rezerv talablarining normativlari yoki tarkibi belgilangani yoki o'zgartirilgani to'g'risidagi ko'rsatmalarda kamida bir oylik muddat ko'rsatiladi, rezervlarning tarkibi yoki miqdoriga doir yangi normativlarni banklar ana shu muddatgacha bajarishlari shart.

Markaziy bank majburiy rezervlar bo'yicha foizlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi.

## **29-modda. Majburiy rezerv talablari normasini bajarmaganlik uchun sanksiyalar**

Bank majburiy rezerv talablarining eng kam miqdorini saqlab turish to'g'risidagi 28-modda qoidalarini bajarmagan takdirida Markaziy bank qat'iy tartibda bu bankdan etishmayotgan mablag' summasini, shuningdek qayta moliyaviy ta'minlashning ikki stavkasidan oshmaydigan miqdorda jarima undirib oladi.

## **30-modda. Markaziy bankning banklarni qayta moliyaviy ta'minlashi**

Markaziy bank o'zi belgilagan shartlarda banklarga kredit berishga haqli, bunda quyidagi aktivlar garovga qo'yilishi mumkin:

oltin, chet el valyutasi, xalqaro rezervlar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari va boshqa boyliklar;

davlat qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari;

Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, xarid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan yoki Markaziy bank ular bilan ushbu qonun doirasida boshqa xil operatsiyalar o'tkazishi mumkin bo'lgan aktivlar; to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellari.

Markaziy bank o'zining qayta moliyaviy ta'minlash tizimida banklarning ishtirok etish shartlarini e'lon qiladi.

## **31-modda. Markaziy bankning mijozlarga xizmat ko'rsatishi**

Markaziy bank qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning muassasalari va tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat

chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita, shuningdek Markaziy bankka qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

## **V. PUL TIZIMI HAMDA PUL MUOMALASINI TASHKIL ETISH**

### **32-modda. Pul tizimi**

O'zbekiston Respublikasining pul tizimi, O'zbekiston Respublikasining pul birligini, pul muomalasi tashkil etilishini va uni tartibga solishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining pul birligi so'mdir. Bir so'm yuz tiyindan iborat.

So'm O'zbekiston Respublikasida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi.

### **33-modda. Markaziy bankning pul belgilarini chiqarishdagi vakolatlari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Ularni qalbakilashtirish va noqonuniy tarzda tayyorlash qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta'minlanadi.

Markaziy bank yo'q qilib yuborilgan, yo'qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo'qotgan banknotlar va tangalarning o'rnini qoplamaydi.

Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalari, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlisning kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Banknot va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko'ra bir nominal qiymatdagi banknot va tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik xaqisiz almashtirib beradi.

### **34-modda. Pul belgilarini tayyorlash va saqlash**

Markaziy bank banknotlar bosilishi va tangalar zarb qilinishi, muomalaga chiqarilmagan pul belgilari saqlanishini, shuningdek bosma qoliqlar va bo'yoqlar saqlanishi hamda yo'q qilinishini ta'minlaydi, nakd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yo'q qilib yuborish qoidalarini belgilaydi.

### **35-modda. Muomaladagi pul belgilaridan foydalanishga qo'yiladigan talablar**

Markaziy bank muomalaga chiqargan banknot va tangalar O'zbekiston Respublikasining butun hududida to'lovlarning barcha turlarida yozilgan qiymati bo'yicha qabul qilinishi, shuningdek hisobvaraqa, omonatga o'tkazish va jo'natma sifatida o'tkazish uchun qabul qilinishi majburiydir.

### **36-modda. To'lovlarni amalga oshirish**

To'lovlar O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pul bilan yoki naqd pulsiz hisob-kitoblar ko'rinishida amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi hududida banklar orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari va qoidalarini belgilaydi.

Markaziy bank yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

### **37-modda. Shikastlangan pul belgilari**

Markaziy bank pul belgilarining foydalanishga yaroqliligini aniqlash hamda putur etgan banknotlar va tangalarni almashtirish tartibini belgilaydi. Pul belgilari yaroqliligini aniqlash va ularni almashtirib berish tartibi e'lon qilinishi lozim.

Banklar putur etgan banknotlar va tangalarni belgilangan qoidalarga muvofiq cheklovsiz ayirboshlab beradi.

### **38-modda. Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish**

Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi.

### **39-modda. Pul belgilarini muomaladan qaytarib olish**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday banknot va tangalarni muomaladan qaytarib olishga haqli. Bunga Markaziy bankning ayirboshlash tartibi va muddati ko'rsatilgan normativ hujjat asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Markaziy bank ayirboshlash uchun belgilagan muddat tugaganida ayirboshlanishi kerak bo'lgan banknot va tangalar qonuniy to'lov vositasi sifatidagi o'z kuchini yo'qotadi.

## **VI. VALYUTANI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO REZERV LARNI BOSHQARISH**

### **40-modda. Valyutani tartibga solish**

Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir.

Markaziy bank:

ijro etish O'zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar uchun majburiy bo'lgan valyutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqaradi;

banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga chet el valyutasida

operatsiyalar o'tkazish uchun litsenziyalar beradi va litsenziyalarni qaytarib oladi, ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib boradi;

banklar uchun ochiq valyuta mavqei limitlarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilaydi;

milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etadi va boshqaradi.

#### **41-modda. Xalqaro kliring va to'lov bitimlari**

Markaziy bank o'z nomidan yoki hukumat topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi nomidan chet elda joylashgan kliring muassasalari bilan kliring hamda to'lov bitimlari, shuningdek har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir.

#### **42-modda. Xalqaro rezervlar**

Markaziy bank o'zining balans hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini shakllantiradi. Bu rezervlar quyidagilarni:

oltin va boshqa qimmatbaho metallarni;

nakd chet el valyutasini;

chet el banklarida, xalqaro moliya tashkilotlarida hisobvaraqlar va depozitlarda bo'lgan chet el valyutasi qoldiqlarini;

chet el hukumatlari, banklari va xalqaro moliya tashkilotlari chiqargan yoki kafolatlangan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasining monetar hamda valyuta siyosatini amalga oshirish uchun, shuningdek xalqaro operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni ta'minlash uchun etarli bo'lgan darajada xalqaro rezervlar saqlab turilishiga yordam beradi.

#### **43-modda. Chet el valyutasidagi operatsiyalar**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududi va uning tashqarisida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga hamda xalqaro amaliyotiga muvofiq chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir.

### **VII. MARKAZIY BANKNING HUKUMAT BILAN MUNOSABATLARI**

#### **44-modda. Markaziy bankning vazifalari**

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hukumatining banki, maslahatchisi va fiskal agenti (xazina vakili) sifatida ish tutadi.

Markaziy bank hukumatga Markaziy bankning vazifalariga hamda vakolatlariga daxldor barcha muhim masalalar bo'yicha maslahat beradi.

Markaziy bank har yili hukumatga iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo'yicha, davlat byudjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan ma'ruzani taqdim etadi.

#### **45-modda. Davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida maslahatlar berish**

Hukumat kelgusi moliya yilida kreditlashning ichki va tashqi manbalaridan qarz ajratish, shu jumladan ushbu qarz doirasida to'lanadigan summalarni berish rejalari, shuningdek kredit berishning taklif etilayotgan muddatlari va shartlari to'g'risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi. Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi va uning davlat organlari olayotgan barcha qarzlarni to'g'risida Markaziy bankka xabar beradi.

#### **46-modda. Depozitariy va kassirning vazifalari**

Markaziy bank hukumatning, shuningdek Moliya vazirligining ruxsatnomasi bo'lgan takdirda boshqa davlat organlarining pul mablag'larini va valyuta qimmatliklarini depozitga qabul qilishi mumkin. Markaziy bank depozitariy sifatida pul mablag'larini va valyuta qimmatliklarini oladi va beradi, ularning hisobini yuritadi. Markaziy bank ko'rsatib o'tilgan depozitlar yuzasidan foizlar to'lashi mumkin.

#### **47-modda. Fiskal agentning vazifalari**

Markaziy bank Moliya vazirligi bilan kelishilgan shartlarda ish tutib, O'zbekiston Respublikasi hukumati va davlat organlarining fiskal agenti sifatida:

Moliya vazirligi va boshqa davlat organlari chiqargan qarz majburiyatlarini joylashtirish, bu joylashtirishlarni ro'yxatga olish va ularni topshirishda agent rolini bajarish;

ko'rsatib o'tilgan qimmatli qog'ozlarning qiymatini, ular bo'yicha foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash;

ko'rsatib o'tilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobvaraqlarni yuritish va ularga doir to'lov operatsiyalarini bajarish;

ko'rsatib o'tilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish borasida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Markaziy bank Moliya vazirligiga davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish va davlat qarzini qaytarish jadvali hamda hajmi masalalari yuzasidan ularning bank tizimi likvidligiga ta'siri va monetar siyosatining ustivor yo'nalishlarini hisobga olgan holda maslahat beradi.

#### **48-modda. Hukumatga kredit berish**

Kreditlar hukumatga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlagan miqdorda ushbu qonun 30-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan va bir yil ichida qiymati to'lanadigan aktivlar garovga qo'yilishi sharti bilan beriladi.

Kredit berish hukumat va Markaziy bank o'rtasida alohida kredit shartnomasi tuzish bilan rasmiylashtiriladi, unda kreditning miqdori, qaytarilish muddatlari, to'lanadigan foizlar normasi va ssudani uzish tartibi kelishib olinadi.

Markaziy bank hukumatga obuna bo'yicha badallar uchun yoki respublikaning u yoki bu xalqaro tashkilotga a'zolidan kelib chiquvchi boshqa to'lovlar uchun ancha uzoq muddatli kreditlar berishga haqli.

Markaziy bank hukumatga ushbu moddada nazarda tutilganlaridan tashqari hollarda moliyaviy yordam berishga haqli.

#### **49-modda. Hukumat bilan Markaziy bank o'rtasida axborot almashuvi**

Hukumat bilan Markaziy bank iqtisodiyotidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish uchun doimiy ravishda statistik axborot almashib turadilar.

Hukumat, vazirliklar va idoralar Markaziy bankka u o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan moliyaviy, iqtisodiy axborot va hujjatlarni takdim etadilar.

### **VIII. BANKLAR, KREDIT UYUSHMALARI VA GAROVXONALAR FAOLIYATINI, SHUNINGDEK QIMMATBAHO QOG'OZLAR BLANKALARI ISHLAB CHIQRISHNI TARTIBGA SOLISH HAMDA NAZORAT QILISH**

#### **50-modda. Banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni tartibga solish hamda nazorat qilish borasidagi vazifalar**

Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.

Markaziy bank banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, kredit uyushmalari garovxonalar faoliyatini va qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi.

Banklar va kredit uyushmalarni ro'yxatga olish, shuningdek banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarga litsenziyalar berish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qimmatbaho qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarishga litsenziyalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Banklar va kredit uyushmalarini ro'yxatga olish, shuningdek banklar, garovxonalarga hamda qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga litsenziyalar berish haq evaziga amalga oshiriladi.

Markaziy bank Banklarni davlat ro'yxatiga olish daftari, kredit uyushmalari, garovxonalarga hamda qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga berilgan litsenziyalar reestrini yuritadi. Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi kerak.



## **51-modda. Markaziy bankning nazorat vazifalarini bajarishga doir vakolatlari**

Markaziy bank:

bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va bank statistika hisobotini yuritish, yillik hisobotlar tuzish yuzasidan banklar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish yuzasidan kredit uyushmalari uchun majburiy bo'lgan qoidalarni;

faoliyat va operatsiyalarni amalga oshirish yuzasidan garovxonalar uchun majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bank:

banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarning hisoboti va boshqa hujjatlarini olish va tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot so'rash hamda olish;

olingan axborot Yuzasidan izoh talab qilish;

banklar va kredit uyushmalarining, ularning filiallari va ular bilan uzviy bog'langan shaxslarning, shuningdek garovxonalarning faoliyatini tekshirish, qoidabuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo'llash;

banklarning ichki auditiga doir talablarni belgilash;

bank aktivlari sifatini tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar o'rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar yaratishga doir talablarni belgilash;

ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va taomilini aniklash;

banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborish;

bank aktsiyadorlari ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiqroq qismini sotib olgan taqdirda ularning moliyaviy ahvoli hamda obro'-e'tibori haqida axborot so'rash va olish;

banklarning va ular filiallarining rahbarlari, boshqaruv a'zolari hamda bosh buxgalterlariga, kredit uyushmalari ijro organlarining rahbarlariga nisbatan malaka talablarini qo'yish huquqiga ega.

Tekshirishlar Markaziy bankning vakolatli vakillari va Markaziy bank belgilaydigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bank aktsiyalarini sotib olish uchun oldindan Markaziy bankning roziligini olish talab qilinadi. Markaziy bank aktsiya sotib oluvchilarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi aniqlangan taqdirda bank aktsiyalari xarid qilinishi va sotilishiga rozilik bermaslik huquqiga ega. Markaziy bank o'z qarori to'g'risida ariza beruvchiga iltimosnoma olingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay yozma ravishda xabar beradi.

Markaziy bank auditorlardan Markaziy bankning normativ hujjatlariga, shu jumladan tartib va uslubiyotlariga rioya etishlarini talab qilishga, shuningdek ulardan bank auditori bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni bevosita olishga haqli.

## **52-modda. Iqtisodiy normativlar**

Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni, shu jumladan:

kapitalning monandlik koeffitsientini;

bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini;

yirik kredit tavakkalchilik va investitsiyalarning eng ko'p miqdorini;

likvidlilik koeffitsientlarini;

aktivlarni tasniflash va baholashga doir talablarni, shuningdek bunday tasniflar asosida bankning operatsiya xarajatlari jumlasiga kiritiladigan chegirmalardan shubhali va harakatsiz qarzlarga qarshi tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirishni;

qarzlarga doir foizlarni hisoblab chiqarish va ularni bank daromadlari hisobvarag'iga kiritishga doir talablarni;

ochiq valyuta mavqei limitlarini belgilaydi.

Markaziy bank iqtisodiy normativlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi.

## **53-modda. Markaziy bank qo'llaydigan choralar va sanksiyalar**

Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Agar yo'l qo'yilgan tartib buzilishlar yoki bank o'tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug'dirgan bo'lsa, Markaziy bank:

banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan summada jarima undirishga;

bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, shu jumladan aktivlar tuzilmasini o'zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aktsiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini ko'rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini, shu jumladan bank Kengashi rahbarlari va a'zolarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilishga;

bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirishga;

bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo'lgan muddatga, shuningdek filiallar ochishni ham shuncha muddatga taqiqlab qo'yishga;

bankni moliyaviy sog'lomlashtirish yoki Markaziy bank ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davrda mansabdor shaxslar va aktsiyadorlar ega bo'lgan barcha vakolatlarni vasiyga berib, bankka vasiylik qilish tartibini belgilash to'g'risida qaror qabul qilishga;

bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olishga haqlidir.

Bank filiallari to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazmagan va ularning vakillik hisobvaraqlari qoniqarsiz ahvolda bo'lgan hollarda Markaziy bank bank filiali ushbu

harakat natijasida olgan daromadini qat'iy tartibda undirib oladi, shuningdek shunday miqdorda jarima soladi.

Kredit uyushmalari, garovxonalar, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqaruvchilarga nisbatan choralar va sanksiyalar qo'llash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

#### **54-modda. Xalqaro hamkorlik**

Markaziy bank xalqaro tashkilotlar, chet el davlatlarning markaziy banklari hamda bank nazoratining boshqa organlari bilan hamkorlik qiladi va axborot ayirboshlaydi.

### **IX. BANKLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR**

#### **55-modda. Javobgarlikni cheklash**

Markaziy bank va banklar bir-birlarining majburiyatlari bo'yicha javobgar emas, ular shunday javobgarlikni o'z zimmasiga o'zlari olgan hollar bundan mustasno.

#### **56-modda. Banklarning Markaziy bankdagi hisobvaraqlari**

Markaziy bankka banklarning hisobvaraklarini yuritish va depozitlarni qabul qilishga ruxsat etiladi.

#### **57-modda. Kliring va hisob-kitoblarni tashkil etish**

Markaziy bank banklarga banklararo to'lovlarga hisob-kitob-kliring xizmatini, shu jumladan cheklar va boshqa to'lov hujjatlari orqali haq to'lashni tashkil etishda yordam ko'rsatish, shunday operatsiyalarni o'tkazish tartibini o'z ixtiyoriga ko'ra belgilash va tegishli ko'rsatmalar berishga haqlidir.

#### **58-modda. Bank axborot tarmog'i va statistik axborot yig'ish**

Markaziy bank bank tizimi ehtiyojlari uchun axborot tarmog'ini yaratadi va saqlab turadi.

Markaziy bank statistik axborotni tegishli organlardan yoki bevosita iqtisodiy faoliyat yurituvchi sub'ektlardan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda oladi.

Markaziy bank statistik axborotni qayta ishlash, saqlash va tarqatish qoidalari hamda amaliyotini tegishli tashkilotlar bilan kelishib olishda o'z vakolatlari doirasida qatnashadi.

### **59-modda. Markaziy bankning imtiyozli huquqi**

Markaziy bankka qarzdorning hisobvaraqlaridagi qoldiqlari hamda uning Markaziy bankdagi boshqa aktivlari hisobidan o'zining barcha talablarini qondirishdan iborat qat'iy imtiyozli huquq berilgan, majburiy rezervlar sifatida Markaziy bank depozitida turgan banklar mablag'i bu aktivlarga kirmaydi.

Markaziy bank o'zining imtiyozli huquqini hisobvaraqlardagi qoldiqlarni ushlab qolish yoki boshqa aktivlarni maqbul narxlarda sotish va tushumdan sotish xarajatlarini chegirib tashlagandan keyin o'ziga tegishli bo'lgan miqdordagi to'lovni ushlab qolish orqali amalga oshirishi mumkin.

### **60-modda. Markaziy bankning qarorlari ustidan shikoyat qilish**

Markaziy bankning qarorlari va harakatlari ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish mumkin.

*O'zbekiston Respublikasi*  
*Prezidenti*

*I. KARIMOV*

Toshkent shahri,  
1995 yil 21 dekabr

# **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI BANKLAR VA BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDA**

*(Ushbu qonunga 1996 yil 27 dekabrda 357-I-sonli, 1997 yil 30 avgustda 485-I-sonli, 1999 yil 15 aprelda 772-I-sonli qonunning XIII bobi hamda 1999 yil 20 avgustda 832-I-sonli qonunning XVI bobi bilan kiritilgan o'zgartirishlar bilan)*

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

### **1-modda. Ta'riflar**

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to'lovlarni amalga oshirish.

Omonat (depozit) - talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi.

Chet el banki - chet el bankining o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan sho'ba banki bo'lib, uning ustav kapitalining hammasi chet el banki tomonidan to'lanadi.

### **2-modda. Bank faoliyatining sub'ektlari**

O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan hamma banklar bank faoliyatining sub'ektlaridir.

### **3-modda. Banklar faoliyatining huquqiy asosi**

Banklar faoliyati ushbu Qonun, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonun, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solib boriladi.

### **4-modda. Bank operatsiyalari**

Banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshiradilar: jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va Yuritish, hisobvaraklar bo'yicha hisob-kitob qilish; omonatlarni jalb etish;

kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

Banklar boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin, chunonchi:

mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;

chet el valyutasini naqd pul va nakd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;

pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;

uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;

uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;

qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandshutrni ijaraga berish;

moliyaviy lizing;

xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo va sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emaslar.

### **5-modda. Banklar faoliyatini litsenziyalash**

Bank, shu jumladan, chet el banki, O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi.

Litsenziasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib qo'yilishi lozim.

### **6-modda. Firma nomi**

"Bank" atamasi yoki mazkur atama qo'shib yasalgan so'z birikmalarini ushbu Qonunga muvofiq bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar o'z firma nomida yoki reklama maqsadlarida ishlatishlari mumkin.

Ushbu talabni buzish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

## **II. BANKLAR TASHKIL ETISH VA ULARNING FAOLIYATINI TUGATISH TARTIBI**

### **7-modda. Bank muassislari**

Banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aktsiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi.

Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassasalari bo'lishi mumkin, basharti, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va jamoat fondlari bundan mustasno.

Har bir aktsiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Banklarning aktsiyalarini olish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank muassislari bank aktsiyadorlari tarkibidan u ruyxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar.

Bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklar tashkil etish hollari bundan mustasno.

## **8-modda. Bank ustavi**

Banklar o'z ustavlari asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Bank ustavida:

bankning (to'la va qisqartirilgan) nomi va qaerda joylashganligi (pochta manzili);

bank operatsiyalarining ro'yxati;

ustav kapitalining miqdori, muassislar ro'yxati va ustav kapitalidagi ulushlarning taqsimoti;

bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etish tartibi, ularning vakolatlari hamda vazifalari haqidagi ma'lumotlar;

bank auditi tartibi, shu jumladan, buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga muvofiq belgilangan hisobotlar va auditorlik dasturlarining maqsadlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Bank ustavida, ushbu moddada belgilangan talablardan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma'lumotlar ham bo'lishi kerak.

Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartishlar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

## **9-modda. Bankning ustav kapitali**

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aktsiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan mablag'lardan xamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Alohida hollarda qonun hujjatlariga muvofiq bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun byudjet mablag'laridan foydalanilishi mumkin.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro'yxatga olish paytigacha to'lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarda ochilgan

jamg'arish hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

### **10-modda. Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash**

Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Ro'yxatga olish tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Ro'yxatga olish bilan bir vaqtda banklarga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya topshiriladi.

Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish haq evaziga amalga oshiriladi.

Banklarning filiallari Markaziy bankda ro'yxatga olinadi va o'z faoliyatlarini ularni tashkil etgan bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

### **11-modda. Bank ochish uchun oldindan Markaziy bankning ruxsatnomasini olish asoslari va muddatlari**

Litsenziya berishdan oldin Markaziy bank arizachilarga bank tashkil etish sohasidagi faoliyatlarini davom ettirish imkonini beradigan dastlabki ruxsatnomani beradi.

Dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi qaror ariza va u bilan birga barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab ko'pi bilan uch oy ichida qabul qilinadi va muassislarning moliyaviy imkoniyatlarini hamda obro'sini, bank rahbarligiga taklif etilayotganlarning kasb malakalarini, biznes-rejani, moliyaviy rejani, kapitalning tuzilishini, tegishli bank binolari va uskunalar bilan ta'minlash imkoniyatlarini baholashga asoslanadi.

### **12-modda. Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish muddati**

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari kerak.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi.

### **13-modda. Banklarni ro'yxatga olishni va ularga litsenziya berishni rad etish asoslari**

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

bankni ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar topshirilmaganligi;  
ta'sis hujjatlarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;



bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi;  
muassislarning moliyaviy mablag'larining manbalari e'lon qilinmaganligi;  
bankni ro'yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to'lanmaganligi;  
bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

#### **14-modda. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olish asoslari**

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganida, passivlar aktivlardan ko'payib ketganida;

litsenziya berishga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlanganda;

bank o'z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmaganida;

hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;

qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;

litsenziya berilgan paytdan e'tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;

monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda;

O'zbekiston Respublikasida o'z sho'ba bankini tashkil etgan chet el bankidan litsenziya chaqirib olinganda.

#### **15-modda. Chet el kapitali ishtirokida banklar ta'sis etish va ularning faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan qo'shimcha talablar**

Markaziy bank chet el kapitali ishtirokidagi banklar oldiga qo'shimcha talablar qo'yish, shu jumladan, chet davlatlar banklaridan ular o'zlari joylashgan va ro'yxatga olingan erdagi tekshiruv organi nazorati ostida ekanliklarining tasdiqnomasini talab qilish huquqlariga ega.

Chet el banklariga litsenziyalar, basharti, chet davlat banki o'z mamlakatida qaytarib berish sharti bilan pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga ega bo'lsagina beriladi.

#### **16-modda. Banklarning filial hamda vakolatxonalarini**

Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z filiallarini, chet el banklari esa o'z vakolatxonalarini Markaziy bankning ruxsati bilan ochishlari mumkin.

Bank filiali uni tashkil etgan bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi alohida bo'linmadir.

Chet el banki vakolatxonasi bank faoliyatini amalga oshirmagan holda bankning manfaatlarini ko'zlab ish yurituvchi alohida bo'linmadir.

Filiallarining rahbarlarini ularni tashkil etgan bankning rahbari Markaziy bank bilan kelishib tayinlaydi.

### **17-modda. Banklarning chet ellardagi filiallari va vakolatxonolari**

Banklar Markaziy bankning ruxsati bilan chet ellarda o'z sho'ba banklarini, filiallari va vakolatxonalarini ochishlari, banklar tashkil etishda qatnashishlari mumkin.

### **18-modda. Banklarning ittifoqlari va uyushmalari**

Banklar, basharti, qonun hujjatlarining talablariga zid kelmasa, o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, o'z a'zolari manfaatlarini himoya qilish va birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish uchun ittifoqlar, uyushmalar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin.

Bunday birlashmalar mustaqil ravishda tijorat faoliyati, shu jumladan, bank faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas, ular tijoratchi bo'lmagan tashkilotlar uchun belgilab qo'yilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

### **19-modda. Banklar faoliyatini to'xtatish va ularni tugatish**

Bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

aktsiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;

Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;

bankrot deb e'lon qilinganida.

O'z faoliyatini to'xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi.

Bankning faoliyati to'xtatilganligi haqidagi xabar matbuotda e'lon qilinadi.

Bank faoliyatini to'xtatish va uni tugatish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## **III. BANK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH. BANKLARNING HUQUQ VA BURCHLARI**

### **20-modda. Banklarning mustaqilligi**

O'zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar.

Bank xizmatchisi bank boshqaruvining roziligi bilan o'rindoshlik asosida boshqa joyda ishlashi mumkin.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari bank muassasalarida o'rindoshlik asosida ishlashga haqli emaslar.

### **21-modda. Davlat va banklarning mas'uliyati chegaralab qo'yilishi**

Banklar davlatning majburiyatlari bo'yicha, davlat esa banklarning majburiyatlari bo'yicha javobgar emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

## **22-modda. Bankning boshqaruv organlari**

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi, bank kengashi va boshqaruvi bankning boshqaruv organlari hisoblanadi.

Bank kengashining burchlari quyidagilardan iborat:

omonatchilar va aktsiyadorlarni himoya qilish maqsadida bank faoliyatini, shu jumladan, kreditlash va mablag'larni investitsiyalashning to'g'riligini nazorat qilish; bank rahbarlarini ishga tayinlash va ishdan bo'shatish; bank kapitalining bir tekis o'sib borishini ta'minlab turish; bank siyosatini ishlab chiqish; qonun hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash.

Bank kengashi a'zolari kamida besh kishidan iborat bo'lishi lozim. Aktsiyadorlardan tashqari bank sohasi olimlari va mutaxassislari ham bank kengashi a'zosi bo'lishlari mumkin.

Bankka operativ rahbarlik qiluvchi va uning faoliyati uchun javob beruvchi bank boshqaruvi bankning ijroiya organi hisoblanadi. Boshqaruv bank kengashi va aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi oldida hisobdordir.

## **23-modda. Banklarning fondlari**

Banklar o'z foydalaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda turli fondlar tashkil etishlari mumkin.

## **24-modda. Banklarning pul mablag'larini zaxiralash sohasidagi burchi**

Banklar Markaziy bankda majburiy zaxiralarini saqlashlari shart. Majburiy zaxiralar normativi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

## **25-modda. Banklarning umumiy iqtisodiy normativlarga rioya qilish sohasidagi burchlari**

Banklarning barqarorligini ta'minlash hamda omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan iqtisodiy normativlarga rioya etishlari shart.

Banklar o'z kapitali va likvid resurslarini etarli darajada saqlab turishlari, aktivlarni tasniflash asosida shubhali va harakatsiz aktivlarga qarshi zaxiralarni tashkil etishlari shart, shuningdek, zarar ko'rish xavfini kamaytirish maqsadida o'z aktivlari diversifikatsiyalanishini ta'minlashlari lozim.

Banklar:

amalga oshirilgan investitsiyalarning turlari yoki shakllariga; ko'chmas mulk va boshqa mol-mulk sotib olish hamda unga egalik qilishga; boshqa yuridik shaxslarning ustav fondlarida qatnashishga doir shartlarga rioya etishlari lozim.

Banklar:

kapitalni taqsimlash natijasida o'z kapitali talab qilinadigan eng kam miqdordan ham kamayib ketadigan bo'lsa, kapitalni taqsimlashga;

aktsiyalar shaklidagi o'z qimmatli qog'ozlari bilan kafolatlangan kredit berishga;

oldindan Markaziy bankning roziligini olmay turib, o'z aksiyalarini sotib olishga hakli emaslar.

Normativlar va ularni hisob-kitob qilish uslubiga bo'lajak o'zgartishlar amalga kiritilishidan kamida bir oy oldin Markaziy bank tomonidan rasman e'lon qilinadi. Ustav kapitalining eng kam miqdori o'zgartirilishi to'g'risida Markaziy bank bunday o'zgartish amalga kiritilishidan kamida uch oy oldin rasman xabar beradi.

## **26-modda. Bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish**

Banklarning o'ziga aloqador bo'lgan shaxslar bilan yoki ular nomidan tuzadigan shartnomalari o'ziga aloqador bo'lmagan shaxslar bilan tuzadigan shartnomalarga qaraganda ancha qulay shartlarga asoslansa, ularning bunday shartnomalarni tuzishi taqiqlanadi.

Markaziy bank bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bitimlar tuzish, jumladan, ularga kreditlar ajratish yuzasidan cheklovlar belgilaydi.

Quyidagi shaxslar:

bankning mansabdor shaxsi, jumladan, bank kengashining a'zosi, shu bankning boshqa xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq qismiga egalik qilib turgan bank aktsiyadorlari;

ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq qismiga egalik qilib turgan aktsiyador yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq qismiga egalik qilib turgan aktsiyador yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;

bank yuridik shaxslarning qatnashchisi bo'lib, ularning ustav kapitalidagi ulushi o'n foizdan ortiq bo'lsa, mazkur yuridik shaxslar, ularning mansabdor shaxslari va bu shaxslarning yaqin qarindoshlari bank bilan aloqador shaxslar deb hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan shaxslarning biri bilan aloqador bo'lgan shaxs ularning har biri bilan aloqador deb hisoblanadi.

Bank bilan aloqador shaxsga kredit, shuningdek bank bilan aloqador shaxs uchun kafolatlar ushbu modda talablarini hisobga olgan holda bank kengashining qaroriga ko'ra berilishi mumkin.

## **27-modda. Banklarning O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kassa ijrosiga doir operatsiyalarni bajarishi**

Markaziy bankning topshirig'iga ko'ra banklar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kassa ijrosiga doir operatsiyalarni bajaradilar.

## **28-modda. Banklarning kredit stavkalari va vositachilik haqi miqdorini belgilash huquqlari**

Bank operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari va vositachilik haqi miqdori banklar tomonidan mustaqil belgilanadi.

Davlat dasturlarini moliyalash uchun Markaziy bank tomonidan banklarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank ushbu banklar qarzdordan undirib oladigan foiz stavkalarining eng ko'p miqdorini belgilashi mumkin, bunda markazlashtirilgan resurslar uchun to'lov va banklarning xarajatlari o'rnini qoplash hisobga olinadi.

## **29-modda. Banklarning hisobot va boshqa axborotni taqdim etish majburiyatlari**

Banklar o'z faoliyatlariga doir hisobot va boshqa axborotni Markaziy bankka o'z vaqtida takdim etishlari shart.

## **29'-modda. Banklarning moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonalarining bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishni davom ettirishni to'xtatib qo'yish majburiyati**

Korxonalar olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik korxonalari esa - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalarini o'tkazish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan hollarda, dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno, banklar ularning hisobvaraqlarini yopib qo'yishi hamda axborotini korxonalar hisobga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari yopilgan sanadan boshlab uch ish kuni mobaynida taqdim etishi shart.

Korxonalarining yopilayotgan hisobvaraqlaridagi mablag'larning qoldiqlari foydalanish huquqsiz maxsus hisobvaraqlarga banklar tomonidan kiritib qo'yiladi, korxonalarining to'lanishi uchun bankka taqdim etilgan kreditorlik qarzi ko'zda tutilmagan holatlar alohida hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Korxonalarining bank hisobvaraqlari yopilganidan keyin ularning nomiga kelib tushayotgan mablag'lar foydalanish huquqsiz maxsus hisobvaraqlarga kiritib qo'yiladi.

Foydalanish huquqsiz maxsus hisobvaraqlarda jamlangan mablag'lar banklar tomonidan birinchi navbatda korxonalarining byudjet va byudjetdan tashqari fondlar oldidagi qarzlarini qoplash uchun, qolgan summa esa ularning kreditorlik qarzini to'lovlarning kalendar navbati bo'yicha qoplash uchun yo'llanadi.

Korxonalarini tugatish bo'yicha maxsus komissiya korxonalar faoliyatini davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilgan yoki belgilangan tartibda tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran bu korxonaning hisobvaraqlari tasarrufi tegishli korxonaning o'ziga yoki tugatish komissiyasiga o'tadi.

### **30-modda. Bank operatsiyalariga doir hujjatlar**

Banklar hujjatlarni Markaziy bank belgilagan tartibda va muddatda o'z arxivlarida saqlashlari shart.

### **31-modda. Banklar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar**

Banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Mijozlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'zlari tanlagan bitta yoki bir nechta bankda milliy valyutada va chet el valyutasida talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlar ochishga haqli.

Banklar mijozlarga hisobvaraqlar ochishning Markaziy bank belgilagan tartibiga rioya qilishlari shart.

Bankning barcha xizmatlari bank aktsiyadorlari va boshqa mijozlarga teng shartlar asosida ko'rsatiladi.

### **32-modda. Banklararo operatsiyalar**

Banklar shartnoma asosida mablag'larni depozitlar, kreditlar shaklida bir-birlaridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, tashkil etadigan hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni bajarishi mumkin.

### **33-modda. Banklarning hisob-kitob qilish tartibi**

Banklar va ularning mijozlari hisob-kitoblarni Markaziy bank belgilaydigan tartibda amalga oshiradilar. Ko'rsatilgan tartibni buzganlik uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.

### **34-modda. Kreditlar qaytarilishini ta'minlash**

Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ko'char va ko'chmas mulkni garovga qo'yish, kafolat berish, kafillikka olish va majburiyatlar asosida kredit beradilar.

Banklar ta'minlanmagan kredit (ehtimolli kredit) berish haqida qaror qabul qilishlari mumkin.

### **35-modda. Qarzdorlarni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish**

Bankdan olgan kreditlarni o'z vaqtida to'lash majburiyatlarini bajarmayotgan qarzdorlarni bank to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilishi va bu haqda matbuotda xabar berishi mumkin. Bank bunday qarzdorlarni bankrot deb topishni so'rab, xo'jalik sudida da'vo qo'zg'atish huquqiga ega.

## **IV. BANKLARGA VASIYLIK QILISH**

### **36-modda. Vasiylikni tayinlash**

Bankning muvaqqat ma'muriyatini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Markaziy bank vasiy tayinlaydi va vasiylik qilish haqida farmoyish chiqaradi. Farmoyish matbuotda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Bankning oldindan vasiydan rozilik olmay qilgan harakatlari haqiqiy emas.

### **37-modda. Vasiyning vakolatlari**

Vasiy bankning mansabdor shaxslari va uning aktsiyadorlari vakolatlariga, shuningdek bank ahvolini normallashtirish uchun zarur choralar ko'rish, jumladan qonun hujjatlariga muvofiq filiallarni yopish, mansabdor shaxslarni va xizmatchilarni ishdan bo'shatish huquqiga ega bo'ladi.

Vasiy istalgan paytda fuqarolarning depozitlari va investitsiyalari bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga qisman yoki to'la to'xtatib qo'yilganligini e'lon qilishi mumkin, bunda depozitlar va investitsiyalarning taxminiy qiymatini saqlab qoladigan choralar ko'rilishi shart.

Basharti, vasiylik vaqtida yoki vasiylik davrining oxirida bankni sog'lomlashtirishning iloji yo'qligi Markaziy bank tomonidan aniqlansa, u litsenziyani chaqirib oladi va belgilangan tartibda bankni tugatadi.

## **V. BANK MIJOZLARINING MANFAATLARINI HIMOYA QILISH**

### **38-modda. Bank siri**

Banklar o'z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlari hamda jamg'armalariga doir ma'lumotlar sir saqlanishiga kafolat beradi. Bankning barcha xizmatchilari bank, uning mijozlari va vakillarining bank operatsiyalari, hisobvaraqlari va jamg'armalariga doir ma'lumotlarni sir saqlashlari shart.

Yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari hamda hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o'ziga, prokuror, sudlarga, jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma'lumotnomalar mijozlarning o'ziga va ularning qonuniy vakillariga; mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag'lari hamda boshqa qimmatbaho narsalar xatlanishi, ularga undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo'lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo'yicha sudlar, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Hisobvaraqlar va omonatning egalari vafot etganda ushbu hisobvaraqlar hamda omonatga doir ma'lumotnomalar mazkur hisobvaraqlar yoki omonat egasi bankka topshirgan vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning jamg'armalariga doir meros ishlarini yuritayotgan davlat notarial idoralariga, chet el fuqarolarining hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar esa - chet el konsullik muassasalariga beriladi.

Xizmat burchi yuzasidan bank axborotidan xabardor bo'lgan shaxslar xizmat sirini oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Banklar o'z mijozlari bo'lgan korxonalarining operatsiyalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni ular soliq to'lovlarini to'liq va to'g'ri to'layotganliklarini nazorat qilish uchun soliq organlarining so'roviga binoan taqdim etadilar.

### **39-modda. Banklarning o'z mijozlari oldidagi javobgarligi**

Banklar mablag'larining saqlanishi hamda omonatchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishi uchun, shu jumladan to'lovlar bir bankdan boshqa bankka o'z vaqtida o'tishi hamda mablag'larning korxonalar va tashkilotlar hisob-kitob varaqlariga kiritilishi uchun o'z mijozlari va omonatchilari oldida javobgardirlar.

Bank tugatilganda uning jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilari bankni tugatishdan keladigan tushumlar hisobidan o'z omonatlarini olishda imtiyozga egadirlar.

Banklar depozit va kredit operatsiyalariga doir muddatlar va shartlar, shu jumladan Markaziy bank chiqargan qoidalarga muvofiq hisoblab chiqilgan yillik foiz stavkalari, mukofotlar va yig'implar to'g'risida o'z mijozlariga muntazam ravishda axborot berib borishlari shart.

### **40- modda. Monopoliyaga qarshi qoidalar**

Banklarning bank operatsiyalari bozorini monopoliyalash va bank ishida raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlarga erishish maqsadida o'z ittifoqlari, uyushmalari va boshqa birlashmalaridan foydalanishi taqiqlanadi.

Monopoliyaga qarshi qoidalarga rioya etilishi Markaziy bank tomonidan, shuningdek, ushbu maqsadlarda qonun hujjatlariga muvofiq tuziladigan boshqa organlar tomonidan nazorat qilinadi.

## **VI. BANKLARDA HISOB VA HISOBOT. BANKLARNI NAZORAT QILISH**

### **41-modda. Banklarda hisob yuritish va hisobot**

Banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari buzilganligi uchun bank rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **42-modda. Banklarning moliyaviy hisobotlarni e'lon qilishi**

Banklar o'z moliyaviy hisobotlarini Markaziy bank belgilaydigan shakl va muddatlarda, unda ko'rsatilgan ma'lumotning to'g'riligini auditorlar tasdiqlagach, matbuotda e'lon qiladilar.



### **43-modda. Banklar auditi**

Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim.

Audit, xususan, kapitalning etarililigini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni o'lchashni o'z ichiga oladi.

Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqarishlari va amalga oshirishlari ham shart.

### **44-modda. Banklarni nazorat qilish**

Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi.

Markaziy bank tijorat banklaridan axborot berishni talab qilishga va ushbu qonunni bajarish maqsadida boshqa ishlarni amalga oshirishga haqlidir.

Banklar faoliyatini tekshirish Markaziy bank tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

*O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti*

*I. KARIMOV*

Toshkent shahri,  
1996 yil 25 aprel

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T., 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni. - T., 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. - T., 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. - T., 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. (yangi tahrir) - T., 2000.

### II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari:

1. «Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent, 14.06.2005.
2. «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent, 14.06.2005.
3. «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent, 15.06.2005.
4. Banklardagi depozit hisobvaraqlardan naqt pul to'lovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. №PQ-147, 05.08.2005.

### III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 280-sonli, 2002 yil 5 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi Qarori. 2002 yil 4 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pul-kredit ko'rsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori. 2003 yil 4 fevral.

### IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va

2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2010 yil 30 yanvar.

2. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

3. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009.

5. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir. //Xalq so'zi, 2007 yil 13 fevral.

6. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatimiz mezonini bo'lishi darkor. //Xalq so'zi, 2006 yil 25 fevral.

7. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. //Xalq so'zi, 2006 yil 11 fevral.

8. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. T.: «O'zbekiston», 2005.

9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O'zbekiston», 2005.

10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'muriy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – T.: «O'zbekiston», 2003.

11. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish taraqqiyot garovi. //Xalq so'zi, 2001 yil 18 iyul.

## **V. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari:**

1. Положение о порядке ведения коммерческими банками бухгалтерского учета инвестиций в зависимые хозяйственные общества Пост. Прав. ЦБ от 06.11.2004 г. N 24/9, Зарег. МЮ 02.12.2004 г. №1429.

2. Положение о порядке отражения банками в бухгалтерском учете событий после отчетной даты Пост. Прав. ЦБ от 06.11.2004 г. №24/10, Зарег. МЮ 23.11.2004 г. №1426.

3. O'zbekiston Respublikasi banklarida pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to'g'risidagi Yo'riqnoma O'zR MBB 12.10.2004. 1156-4-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB Qarori №14/7.

4. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar. 2004 yil 23 iyun.

## VI. Darsliklar

1. Abdullaev Y., Abdullaeva Sh., «Bank ishi», Toshkent, 2003.
2. Климович В.П. Основы банковского аудита: учеб. М.: ФОРУМ, 2010, 192 стр.
3. Экономический анализ / сост. Н. Ольшевская. – М.: АСТ: Полиграфиздат, 2010. – 160 с.
4. Розанова Н.М, Зороастрова И.В. Экономический анализ фирмы и рынка. Учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 279 с.
5. Курсов В.Н., Яковлев Г.А. «Бухгалтерский учет в коммерческом банке». Москва. Инфра-М. 2006, 293 стр.
6. Белов А.А., Белов А.Н. «Денежно-валютные и расчетные операции» Москва, 2005.
7. Маманова И.Д. «Банковский надзор и аудит» М. Инфра-М., 2004.
8. Ковалев В.В. «Финансовый учет и анализ: концептуальные основы», М.: Финансы и статистика, 2004, 720 стр.
9. Ковалев В.В. Учет, анализ и бюджетирование лизинговых операций. Теория и практика. М.: Финансы и Статистика, 2004, 150 стр.
10. Шеремет А.Д., Щербакова Г.П. «Финансовый анализ в коммерческом банке», М.: Финансы и статистика, 2002, 254 стр.
11. Шеремет А.Д., Неганев Е.В. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. М.: 2004, 237 стр.
12. Шишкин А.К., Микрюков В.А., Дышкант И.Д. Учет, анализ, аудит на предприятии. М.: «Юнити», 2003.
13. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика. М.: Финансы и статистика, 2003, 167 стр.
14. Дон Патинкин. Деньги, процент и цены. М.: «Экономика», 2004, 375 стр.
15. Долан Э.Дж., Кемпбелл Р.Дж. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. М.: 2003, 446 стр.

## VII. O'quv qo'llanmalar

1. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua – Toshkent: Iqtisodiyot. 2010. 331 bet.
2. Mamatov X. Tijorat banklarining buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. TDIU, 2005, 297 bet.
3. Tojiev R.R., Yakubova Sh. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalar to'plami. TDIU, 2005, 240 bet.

4. Toymuxamedov I.R. Bank ishi. Ma'ruzalar matni, TDIU, 2005, 330 bet.
5. Bekmurodov A.Sh., Boltaboev M., G'oibnazarov B., Amonboev M., Toshxo'jaev M. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. T.: TDIU, 2005, 59 bet.
6. Bekmurodov A.Sh., Hakimov R., Safarov B., Zoxidov G. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 2-qism. qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. T.: TDIU, 2005, 56 bet.
7. Bekmurodov A.Sh., Sattorov S., To'raev J., Soliev Q., Ro'ziev S. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 3-qism. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. T.: TDIU, 2005, 66 bet.
8. Bekmurodov A.Sh., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 4-qism. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. T.: TDIU, 2005, 62 bet.
9. Bekmurodov A.Sh., Toirov Sh., Maxmudov E., Isakov M., To'raev N. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 5-qism. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. T.: TDIU, 2005, 61 bet.
10. Рашидов О.Ю., Эргашев Б. Финансовый анализ банка. Текст лекции, ТГЭУ, 2005.
11. Климова Н.В. Экономический анализ. Теория, задачи, тесты, деловые игры. Учеб. пособ. – М.: Вузовский учебник, 2010. – 287 стр.
12. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: анализ реальных схем. М.: Эксмо, 2010, 288 стр.
13. Просветов Г.И. Экономический анализ задачи и решения. Учеб.-практ. пособ. – М.: «Альфа-Пресс», 2008. – 640 стр.
14. Кокорев Н.А., Турчаева И.Н. Учет и анализ банкротств: учеб. пособ. М.: КНОРУС, 2010, 192 стр.
15. Курсов В.Н. Яковлев Г.А. Бухгалтерский учет в коммерческом банке: Новые типовые бухгалтерские проводки операций банка: учеб. пособ. М.: ИНФРА-М, 2010, 216 с.
16. Адамайтис Л.А. Анализ финансовой отчетности. Практикум: учеб. пособ. - М.: КНОРУС, 2007. - 400 с.
17. Усатова Л.В., Сироситан М.С., Арская Е.В. Бухгалтерский учет коммерческих банков. Учебное пособие. М.: 2006, 403 стр.
18. Парфёнов К.Г. Банковский учёт и операционная техника. Учеб. пос. М.: 2004, 125 стр.
19. Ковалев В.В. Сборник задач по финансовому анализу. Учебное пособие. М.: Финансы и статистика, 2003, 124 стр.
20. Куницына Н.Н. Учеб. пос. в.в. Банковский аудит. М.: Финансы и Статистика, 2005, 265 стр.
21. Валенцева Н.И. Сборник задач по банковскому делу операции коммерческого банка М.: Финансы и Статистика, 2005, 198 стр.
22. Бабченко Т.Н., Бабченко И.А. Трансформация отчетности и кредитных организаций от РСБУ К МСФО: Учебно-практические пособие. М.: Финансы и Статистика, 2005, 326 стр.

23. Вешкин Ю.Г., Авагян Г.Л. Экономический анализ деятельности коммерческого банка: учеб. пособ. – М.: Магистр, 2007. – 350 с.

24. Парфёнов К.Г. Банковский учёт и операционная техника. учеб. пос. М.: 2004, 125 стр.

25. Басовский Л.Е., Лунёва А.М., Басовский А.Л. Экономический анализ (Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности): учеб. пособ.– М.: ИНФРА-М, 2007. 222 стр.

## **VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar**

### **IX. Internet saytlari**

1. <http://www.review.uz/>
2. <http://www.uba.uz/>
3. <http://www.cbu.uz/>
4. <http://www.gov.uz/>
5. <http://www.imf.org>
6. <http://www.bahkir.ru>
7. <http://www.vklad-deneg.ru/banki/>
8. <http://www.nbu.com>
9. <http://www.federalreserve.gov>
10. <http://www.bankofengland.co.uk>
11. <http://www.thebanker.com>
12. <http://www.peugeotufa.ru>
13. <http://www.bashexpo.ru>
14. <http://www.interunion.ru>
15. <http://www.cbr.ru/links>

## MUNDARIJA

Kirish.....	6
-------------	---

### **I Bob. TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY TAHLIL: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA AHAMIYATI**

1.1. O'zbekistonda bank tizimi va tijorat banklarining ahamiyati.....	9
1.2. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning o'rni va ahamiyati.....	12
1.3. Tijorat banklarida iqtisodiy tahlilning predmeti va ob'ektlari.....	14
1.4. Tahlilning turlari, usullari va bozor munosabatlari sharoitidagi vazifalari...	15

### **II Bob. TIJORAT BANKLARIDA IQTISODIY TAHLILNING AXBOROT MANBAI**

2.1. Bank haqidagi axborotlarning asosiy manbalari.....	20
2.2. Bank tahlilining sub'ektlari.....	23
2.3. Bank hisobotlarining asosiy shakllari. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning mohiyati.....	28

### **III Bob. BANKLARNING O'Z VA JALB QILINGAN MABLAG'LARI HOLATINING TAHLILI**

3.1. Bank mablag'lari, ularning tuzilishi va tashkil topish manbalari.....	33
3.2. Banklarning o'z mablag'lari holatining tahlili.....	39
3.3. Banklarning jalb qilingan mablag'lari holatining tahlili.....	42

### **IV Bob. TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BO'YICHA OPERATSIYALARI TAHLILI**

4.1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi roli va vazifalari.....	50
4.2. Qimmatli qog'ozlar fundamental tahlilining mohiyati.....	56
4.3. Qimmatli qog'ozlar texnik tahlilining mohiyati.....	59
4.4. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha passiv operatsiyalari tahlili.....	60
4.5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha aktiv operatsiyalari tahlili.....	65
4.6. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha investitsiya faoliyati va investitsiya portfelini shakllantirish usullari.....	71

### **V Bob. TIJORAT BANKLARINING MAJBURIYATLARI, LIKVIDLIGI VA TO'LOVGA LAYOQATLILIGI TAHLILI**

5.1. Tijorat banklari majburiyatlarining shakllanishi va ular holatining tahlili.....	77
---	----

5.2. Tijorat banklari majburiyatlaridan samarali foydalanishning tahlili.....	79
5.3. Tijorat banklari likvidligi va to'lovga layoqatliligi tahlilining ahamiyati va vazifalari.....	82
5.4. Tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlari va ularni baholash.....	85

## **VI Bob. TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI**

6.1. Tijorat banklarida moliyaviy natijalarning shakllanishi va tahlil qilish vazifalari.....	88
6.2. Tijorat banklari sof foydasining tahlili.....	89
6.3. Tijorat banklarining rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlari tahlili.....	91
Glossariy.....	97
O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi Qonuni.....	101
O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.....	118
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	131



## СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	6
<b>Глава I. ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ: ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ</b>	
1.1. Значение банковской системы и коммерческих банков в Узбекистане.....	9
1.2. Место и значение экономического анализа в коммерческих банках.....	12
1.3. Предмет и объекты экономического анализа в коммерческих банках.....	14
1.4. Виды, методы и задачи анализа в условиях рыночных отношений.....	15
<b>Глава II. ИНФОРМАЦИОННЫЙ ИСТОЧНИК ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ</b>	
2.1. Основные источники информации о банках.....	20
2.2. Субъекты банковского анализа.....	23
2.3. Основные формы банковских отчетов. Сущность отчетов о прибыли и убытков.....	28
<b>Глава III. АНАЛИЗ СОБСТВЕННЫХ И ПРИВЛЕЧЕННЫХ СРЕДСТВ БАНКОВ</b>	
3.1. Средства банков, их структура и источники образования.....	33
3.2. Анализ собственных средств банков.....	39
3.3. Анализ привлеченных средств банков.....	42
<b>Глава IV. АНАЛИЗ ОПЕРАЦИЙ С ЦЕННЫМИ БУМАГАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ</b>	
4.1. Роль и задачи коммерческих банков на рынке ценных бумаг.....	50
4.2. Сущность фундаментального анализа ценных бумаг.....	56
4.3. Сущность технического анализа ценных бумаг.....	59
4.4. Анализ пассивных операций коммерческих банков с ценными бумагами.....	60
4.5. Анализ активных операций коммерческих банков с ценными бумагами.....	65
4.6. Инвестиционная деятельность коммерческих банков в области ценных бумаг и методы формирования инвестиционного портфеля.....	71

## **Глава V. АНАЛИЗ ОБЯЗАННОСТЕЙ, ЛИКВИДНОСТИ И ПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

5.1. Формирование обязанностей коммерческих банков и анализ их состояния.....	77
5.2. Анализ эффективного использования обязанностей коммерческих банков.....	79
5.3. Значение и задачи анализа ликвидности и платежеспособности коммерческих банков.....	82
5.4. Показатели ликвидности коммерческих банков и их оценка.....	85

## **Глава VI. АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

6.1. Формирование финансовых результатов в коммерческих банках и задачи их анализа.....	88
6.2. Анализ чистой прибыли коммерческих банков.....	89
6.3. Анализ показателей рентабельности (прибыльности) коммерческих банков.....	91
Глоссарий.....	97
Закон Республики Узбекистан «О Центральном банке Республики Узбекистан».....	101
Закон Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности».....	118
Список использованной литературы.....	131

## CONTENTS

Introduction.....	6
<b>Chapter I. ECONOMIC ANALYSIS IN COMMERCIAL BANKS: MAIN CONCEPTS AND THEIR IMPORTANCE</b>	
1.1. Importance of the bank system and commercial banks in Uzbekistan.....	9
1.2. Place and importance of the economic analysis in commercial banks....	12
1.3. Subject and objects of the economic analysis in commercial banks.....	14
1.4. Types, methods and problems of the analysis in condition of the market relations.....	15
<b>Chapter II. INFORMATION SOURCE OF THE ECONOMIC ANALYSIS IN COMMERCIAL BANKS</b>	
2.1. Main sources of information about banks.....	20
2.2. Subjects of the bank analysis.....	23
2.3. The Main forms of the bank reports. Essence of the reports about profit and loss.....	28
<b>Chapter III. ANALYSIS OWN AND ATTRACTED FACILITIES OF THE BANKS</b>	
3.1. Properties of the banks, their structure and sources of the formation.....	33
3.2. Analysis of the own properties of the banks.....	39
3.3. Analysis of the borrowed properties of the banks.....	42
<b>Chapter IV. OPERATIONAL ANALYSIS OF SECURITIES OF THE COMMERCIAL BANKS</b>	
4.1. Role and problems of the commercial banks on securities market.....	50
4.2. Essence of the fundamental analysis of the securities.....	56
4.3. Essence of the technical analysis of the securities.....	59
4.4. Analysis of passive operations of commercial banks with securities.....	60
4.5. Analysis of active operations of commercial banks with securities.....	65
4.6. Investment activities of the commercial banks in the field of securities and methods of the shaping the investment briefcase.....	71
<b>Chapter V. ANALYSIS OF THE DUTIES, LIQUIDITY AND SOLVENCY OF THE COMMERCIAL BANKS</b>	
5.1. Duty formation of the commercial banks and analysis of their state.....	77
5.2. Analysis of the efficient use the duties of the commercial banks.....	79
5.3. Segnificance and problems of the analysis to liquidity and solvency of the commercial banks.....	82

5.4. Factors to liquidity of the commercial banks and their estimation.....	85
---	----

## Chapter VI. ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS OF COMMERCIAL BANKS

6.1. Financial results formation in commercial banks and the problems of their analysis.....	88
6.2. Analysis of net profits of commercial banks.....	89
6.3. Analysis of the profitability factors of the commercial banks.....	91
Glossary.....	97
Law of the Republic Uzbekistan «About Central bank of the Republic Uzbekistan».....	101
Law of the Republic Uzbekistan «About banks and bank activities».....	118
List of used literature.....	131